

R. S. ABDULLAYEV

O'ZBEK MUMTOZ MUSIQA SI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

R. S. ABDULLAYEV

O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI

*Madaniyat, san'at kollejlari
va akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma*

TOSHKENT
«YANGI NASHR»
2008



*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Mas'ul muharrir:

Soibjon BEGMATOV,
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Botir MATYOQUBOV –
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent
Chaman NOSIROVA –
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

«O'zbek mumtoz musiqasi» o'quv qo'llanmasi musiqa va san'at kollejlari hamda akademik litseylar tizimidagi «an'anaviy ijrochilik» bo'limlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda o'zbek xalqining boy merosi bo'lmish mumtoz musiqasi janrlari haqida ma'lumot beriladi. Ko'p asrlar davomida sozandayu xonandalar va bastakorlar tomonidan ijro etib kelinayotgan mumtoz musiqa namunalari – ashula, katta ashula, dostonlar va maqomlar – avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib, saqlanib, sayqal topib hozirgi kungacha rivoj olib kelmoqda. Mazkur qo'llanmada mumtoz musiqaning har bir janri mavqei, mazmuni, shakli va ijro uslublari ma'lum darajada yoritilib beriladi.

Abdullayev, Rustambek Samigovich.

Ozbek mumtoz musiqasi. KOD-3210706 – An'anaviy cholg'ular: (Madaniyat, san'at kollejlari va akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma). R.S.Abdullayev. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Yangi nashr, 2007. – 112 b.

BBK 85.313.(5U)ya722

KIRISH

O'zbek xalqining ko'hna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma'naviyat manbai bo'lganligi o'tmish tarix zarvaraqlaridan ma'lum. Binobarin, milliy qadriyatlarni ajoyib an'analar ila o'zida mujassam etgan an'anaviy musiqamiz xazinasi hanuzgacha badiiy-estetik qiymatini yo'qotmasdan kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damda madad bo'lgan. Shu xazinani ko'z qorachig'iday asrash va yanada boyitish kerak»¹.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo qadim-qadimlardayoq madaniyat o'chog'i, ilm-fan rivoj topgan zamin sifatida ma'lum va mashhur edi. Bu yerda yetishib chiqqan buyuk olimlar jahon fani, me'morchiligi, adabiyoti va san'ati rivojiga katta hissa qo'shib kelganlar. Musiqa san'ati ravnaqida ham ana shunday allomalarning ulushi katta bo'ldi.

Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan turli janr va shakllardagi an'anaviy musiqa namunalari badiiy-ma'naviy merosimizning ajralmas mulkiga aylangandir. Jumladan, o'zbek mumtoz musiqasining ko'hna va hamisha navqiron ashula, katta ashula, dostonchilik va maqomchilik san'atlari ham asrlar davomida har xil ko'rinishlarda rivojlandi, taraqqiy etdi.

O'zining tarixiy jarayonida turli davr shart-sharoitlari hamda ehtiyojlar taqozosi bilan ular shaklan, usluban va mazmunan tobora o'zgarib borganini qisman tegishli manbalar yordamida kuzatish mumkin. Bizgacha yetib kelgan ashula va maqom namunalari, cholg'u kuylari, bastakorlik ijodiyotining noyob mahsullari rosmiyan musiqa folklori bilan uzviy bog'langan holda shakllanib,

¹I.A.Karimov. Milliy an'ana ma'naviy yuksalish yo'lida xizmat qilsin. // Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent, «O'zbekiston», 1998.

rivojlangandir. Aytish mumkinki, biz bugun «Shashmaqom» deya atab, e'zozlayotgan boy mumtoz musiqamiz shakllanishi, takomillashuvi, umuman taraqqiyoti qadim davrlarda boshlangan. Dastlab o'n ikki maqom, keyinchalik esa «Shashmaqom» shaklidagi bu merosning asosi yetuk bastakorlar, sozandayu xonandalar tomonidan bunyod etilgan va takomiliga yetkazilgan.

O'zbek mumtoz musiqa san'ati olamining oltin xazinalari cheksiz va dunyodagi eng qadimiylardandir. Shu o'lmas mumtoz asarlar xalqimiz o'rtasida professional va havaskor sozandalar, xonandalar ijrosida doimo yangrab, asrlardan-asrlarga, ustozdan shogirdlarga o'tib, mukammallashib, sayqal topib, boyitilib bizning davrimizgacha yashab keldi va xalqimizning bebaho mulkiga aylandi. Shu musiqiy xazinamiz ustozona sozandayu hofizlar, bastakorlar tomonidan yaratilib kuylangan va rivojlangan; o'zining turli xil yo'llari, shakllari, usul va uslublariga ega bo'lib, musiqa ilmining fidoyi ijodkorlari, nazariyotchi-olimlari tomonidan ilmiy-nazariy qonuniyatlariga ham ega bo'lgan va o'z aksini o'rta asr «musiqiy risolalarida» topgan. Og'zaki an'anada saqlanib va rivoj olib kelayotgan bizning bebaho mumtoz musiqamiz XX asrga kelib, to'planib yozib olindi va bu xazinaning yangi hayot rishtalari amalga oshdi. «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda Prezidentimiz I. A. Karimov shunday degan edi: «Alpomish» - o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan-avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir»¹.

An'anaviy musiqa namunalariga ega bo'lmish o'zbek xalqi o'zining «Alpomish», «Go'ro'g'li» dostonlari, «Shashmaqom»i va minglab musiqa folklor qo'shiqlari bilan dunyodagi badiiy merosga boy xalqlar qatoridan munosib o'rin olgan. 2001-yil may oyida Boysun madaniy muhiti va 2003-yil noyabr oyida O'zbek va tojik xalqlari mumtoz musiqasining nodir xazinasini bo'lmish «Shashmaqom» YUNESKO tomonidan «Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi» deb tan olindi. Shu tufayli asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan Boysun an'anaviy madaniyatiga, «Shashmaqom» turkumiga qiziqish dunyo miqyosida tobora oshib bormoqda. Bunda bu noyob merosimiz jahonning turli mamlakatlarida «Boysun» folklor ansambli, Turg'un Alimatov, Abduhoshim Ismoilov, Munojot Yo'lchiyeva, Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli va boshqa jamoalar

¹I.A.Karimov. «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. «Xalq so'zi», 1999, 9-noyabr.

hamda san'atkorlar tomonidan ijro etilishi; 1997-yildan har ikki yilda Samarqand shahrida o'tkazish an'anaga aylanib qolgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali va 2002-yildan buyon o'tkazilayotgan «Boysun bahori» ochiq folklor festivaliga o'zimiz shohid bo'lmoqdamiz.

Bu nufuzli musiqa anjumanlariga san'atkorlar bilan bir qatorda xalqimizning folklor va mumtoz musiqasi bilan shug'ullanuvchi ijodkorlar – olimlar ham tashrif buyurib, o'zlarining festival doirasidagi ilmiy-amaliy yig'ilishlarida xalq ijodi va maqomchilik san'atining tarixi, buguni va kelajagi haqida fikr yuritmoqdalar. Bu noyob durdonalarni targ'ib etuvchi maqolalar, to'plamlar, yirik kitoblar, CD, VCD, multimedialar nashr etilib, dunyo miqyosida tarqatilmogda.

O'zbekistonda tashkil etilgan, har to'rt yilda o'tkaziladigan Yunus Rajabiy nomidagi Respublika va Xalqaro miqyosdagi maqom ijrochilari va maqom ansambllari, folklor va oilaviy ansambllar, katta ashula ijrochilari, baxshi-shoirlar va havaskor maqom ansambllari ko'rik-tanlovlari ham o'zbek an'anaviy (folklor va mumtoz) musiqamizning kelajagini o'ylab qilinayotgan tadbirlardir. Bu tanlovlarda ko'plab iste'dod egalari kashf etiladi hamda ularning ijro mahoratlari bilan keng omma tanishadi.

Bugungi kunda O'zbekiston davlat konservatoriyasi, madaniyat va san'at institutlari, musiqa va san'at kollejlari, akademik litseylari va maxsus musiqa maktablari «An'anaviy ijrochilik» bo'limlarida yuzlab iqtidorli yigit va qizlar xalq ijodiyoti, katta ashula, dostonchilik va maqomchilik sirlarini o'rganib, ijro an'analari va uslublarini o'zlashtirmoqdalar.

Xalqimizning boy musiqa merosi, maqomlarimiz Markaziy Osiyo musiqa madaniyatining yuzaga kelishida, shakllanishida asosiy manba vazifasini o'tadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki uning noyob ohanglari, dilkash navolari va chuqur mazmunli she'riy matnlari inson ruhiyatiga ozuqa beruvchi manba ekanligini qayta-qayta ta'kidlash mumkin. XX asrda maqomchilik san'ati rivoji milliy negiz bilan uyg'unlashgan holda yanada taraqqiy topdi. O'zbekistonda «Shashmaqom»ning yangi milliy udumlari paydo bo'lishi ham serqirra maqom an'alarini nafaqat saqlanishi va himoya qilinishi, balki yanada yuksalishiga olib keldi.

O'zbek mumtoz musiqasi, birinchi navbatda, kishiga ruhiy engillik baxsh etish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, kishining tashqi dunyoga estetik munosabatda bo'lishini shakllantiradi; uchinchi tomondan esa tarbiyaviy ta'sir vazifasini ham bajaradi. har bir musiqa asarining kishi ruhiyatiga ta'sirini qadim davrlarda

yashab o'tgan olimlarning asarlari ham, hozirgi texnika taraqqiyoti davri samaralari ham isbotlab turibdi. Sharqning buyuk mutafakkirlari musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri, turli his-tuyg'ular uyg'ota olish xususiyatlarini batafsil tahlil qilganlar. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Darvish Ali Changiyalar maqomlar va umuman, mumtoz musiqaning kishilarga ta'sirini o'rganishgan. Maqom, uning sho'balari va qismlari insonga turlicha ta'sir qilishini uqtirib o'tishgan. Ushshoq, Navo, Husayniy, Iroq, Dugoh, Buzruk kabi jozibador va ohangdor maqom yo'llari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqasi madaniyatidan o'rin olib, mashhur bo'lgan. Shu bois, o'zbek mumtoz musiqasi minglab yillar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog'onalarga ko'tarilgan va xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan.

Taqdim etilayotgan ushbu «O'zbek mumtoz musiqasi» darsligida mumtoz musiqaning taraqqiyot yo'li, uning janrlar tarkibi, ichki qonuniyatlari, ijro uslublari zamonaviy tahlil vositalari orqali ochib beriladi. Aslini olganda, ajdodlarimizning bebaho madaniy merosiga bo'lgan munosabatimiz samimiy tarzda o'z ifodasini topadi. O'zbek mumtoz musiqasi haqida ma'lumotga ega bo'lish, ularni o'rganish va o'zlashtirishning bosh maqsadi — musiqasi va san'at kollejlari, akademik litsey o'quvchilarini o'zbekona an'ana va qadriyatlar ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shishdan iboratdir. Xalqimiz o'zbek bastakorlari tomonidan yaratilgan ashula va yallalar, dostonlar, katta ashulalar, cholg'u kuylari va, ayniqsa, maqomlar yuzasidan ma'lumot hosil qilish, ular haqida mustaqil fikrni shakllantirish o'zbek mumtoz (keng ma'noda an'anaviy) musiqasi fanining vazifalari hisoblanadi.

Kelajagi buyuk davlatni qurish uchun eng avvalo ma'naviy kamol topgan insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. «Xalqimizning ma'naviy boyligini, jahon sivilizatsiyasi eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan yangi avlodni shakllantirish bugunning eng muhim vazifasidir», — deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov¹. Darhaqiqat, yangi avlod har tomonlama baquvvat, kamolikka erishgan, o'zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlashtirgan, odobli, axloqli, bilimli, idrokli, farosatli, imonli, e'tiqodli, odil, halol, pok, vatan va millatiga sadoqatli, ruhiy va jismoniy sog'lom shaxs darajasiga ko'tarilgan insonlar bo'lishi zarur.

¹I.A.Karimov. Istiqloq va ma'naviyat. Toshkent, «O'zbekiston», 1994.

Insonni ma'naviy kamol toptirishda tarbiyaviy ta'sirning barcha shakl, usul va vositalaridan samarali va unumli foydalanish lozim bo'ladi. Ayniqsa, bu ishda kuchli ma'naviy-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan badiiy vositalardan biri musiqasi san'atidan mohirona foydalanish yaxshi natija beradi, jumladan, mumtoz musiqasi bu vositalar ichida o'ziga xos va o'ta muhim o'rin egallaydi.

Musiqasi qudratli kuchga ega bo'lib, o'z ohanglari bilan inson qalbini qamrab oladi. Shu boisdan musiqani xalqning, millatning qalbi deb bejiz aytilmagan. Ayniqsa, O'zbek mumtoz musiqasi ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. U kishilarni nafaqat nafosat olamiga etaklab estetik zavqlantiradi, balki yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlariga ega bo'lishga, chin insonparvar va vatanga sadoqatli bo'lishga chorlaydi.

O'zbek mumtoz musiqasi serjihat va buyuk ma'naviyat namunasi sifatida namoyon bo'lib kelgan. Binobarin, ushbu musiqasi namunalari ijod, san'at turi bo'lib qolmasdan, balki madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o'rganilishi lozim.

O'zbek mumtoz musiqasi shunday keng ko'lamligi, uning qamrab olmagan mavzulari kamdan-kam topiladi. Xalq o'zi kuylayotgan ashulalarga, dostonlariga, maqomlari va cholg'u kuylariga insonni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga ta'sir ko'rsata oluvchi tarbiyaviy mavzularni singdira olgan. Ushbu musiqasi namunalari orqali xalq yuragidagi dardlarini, mehr-muhabbatini, ishqiy kechinmalarni, orzu-istaklarini bayon qilib kelgan.

Ta'kidlash lozimki, o'rta ma'lumot beruvchi musiqasi ta'lim tizimida o'zbek mumtoz musiqasini alohida fan sifatida o'rganish birinchi marta amalga oshirilmoqda. Bu yosh avlodning o'tmishni, o'zining boy merosini mukammalroq bilishi va idrok qilishi uchun zamin tayyorladi. Mumtoz musiqamizni o'rganish, uni amalda o'zlashtirish musiqasi va san'at kollejlari hamda akademik litseylar talabalarining milliy g'ururini shakllantirish uchun asosiy omillardan bo'lib qoladi. O'zbek mumtoz musiqasi haqida alohida mukammal ma'lumot berishning bosh maqsadi mazkur o'quv muassasalari talabalarini o'zbekona musiqasi an'analari, qadriyatlarini ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shishdir. Xalqimiz va uning namoyandalari tomonidan yaratilgan ashula va katta ashulalar, dostonlar, maqomlar va turli shakllardagi cholg'u kuylari hamda ularning ijro uslublari va usullari yuzasidan ma'lumot hosil qilish, ular haqida mustaqil fikrni shakllantirish o'zbek mumtoz musiqasi fanining vazifalari hisoblanadi.

O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI VA UNING XUSUSIYATLARI

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, u ko'pchilik sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan an'anaviy musiqa san'ati ekanligi haqida guvohlik beradi. An'anaviy musiqa — bu badiiy jarayon bo'lib, unga xalq tomonidan yaratilgan, asrlar osha bizgacha yetib kelgan xalq musiqa ijodi yoki musiqa folklori va yetuk sozanda-bastakorlar tomonidan ijod etilgan mumtoz musiqasi kiradi. Bu ijodiyot namunalari og'zaki an'anada saqlanib, sayqal topib, barkamol musiqa asari sifatida rivojlanib kelmoqda.

O'zbek mumtoz musiqasi o'tmishdan o'zining teran ma'noga ega ekanligi, murakkabu mukammalligi va beqiyos an'analarni o'zida mujassam etganligi bilan o'zga xalqlar musiqasidan ajralib turadi. Ushbu musiqa ijodiyotida xalqimizning o'tmish an'analari, boy va teran ma'nolarga asoslangan tarixi muhrlangan. Ularning har bir namunasi tarixdan bir sadodir. Binobarin, ularni qanchalik o'rganmaylik, qanchalik sirlaridan voqif bo'lmaylik, shunchalik yangi qirralari ochilib, o'zining benazir xususiyatlarini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan o'zbek mumtoz musiqasini o'rganish, ularda mujassam etilgan falsafiy g'oyalarni anglash, tarix sadolarini uqib olish, ularning siru sinoatlarini idrok etish uchun bugungi kunda imkoniyatlar yetarli.

Ma'lumki, o'zbek an'anaviy musiqasi o'tmishdan ikki yo'nalish, ya'ni bir-biridan paydo bo'luvchi, bir-birini to'ldiruvchi, shu bilan birga o'zining alohida xususiyatlari va sifatlariga ega bo'lgan yo'nalishlardan tashkil topgan. Shulardan biri, hayotiy mezon bilan bog'liq musiqa folklori bo'lsa, ikkinchisi, ana shu jonli jarayonning ijodkorlar tafakkuri bilan to'ldirilgan mumtoz musiqa yo'nalishidir. Shakllanish va ravnaqi yo'lida har ikki yo'nalish o'zining ichki

qonuniyatlari, shaklu shamoili, ishlash uslubi, mavqei, joyi, vaqti, ijro an'analari va shu kabi qator xususiyatlarga ega bo'lgan. Har ikki yo'nalishda ham umumiy hisoblangan milliy an'analarni bilan bog'liq tomonlari bo'lgani kabi, o'z yo'nalishiga xos uslublarni ifoda etadigan alohida jihatlari ham yo'q emas. Lekin ijodiy mezon, ijrochilik an'analari va talqin masalalarida e'tiborga loyiq o'ziga xoslik jihatlari talayginadir.

Bugungi kunda O'zbekistonda zavq bilan tinglanayotgan, maroq bilan aytilayotgan ashula, yalla, katta ashula, doston, cholg'u kuylari va maqomlar o'zbek mumtoz musiqasining etuk janrlari hisoblanadi. Xalqimiz va uning namoyandalari yaratgan ana shu ma'naviy boyliklarimiz butun o'zbek xalqi madaniy merosi, qadriyatlarining tarkibiy qismidir. Manbalarga ko'ra, professional (ustozona) san'at bizning hududlarimizda milodning birinchi asrlarida yuzaga kelgan va rivojlangan. Mumtoz musiqa xalq musiqa ijodi namunalari negizida va ijrochilik madaniyatining rivoji, keyinchalik Sharq mumtoz she'riyati shakllanishi asosida tashkil topgan. Mumtoz musiqa deganda o'zbek xalqiga mansub, uning yetuk sozanda-bastakorlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan musiqa san'ati namunalari (aytim-ashula va cholg'u musiqalari) ko'zda tutiladi. Ushbu musiqa boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi:

1. Og'zaki tarzlilik — mumtoz musiqa xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, avlodlardan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan ijod mahsulidir. Ma'lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor va mumtoz asarlar omma (xalq) tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. O'rta asrlarda esa iste'dodli (yetuk) sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan yaratilgan. Og'zaki an'anadagi mualliflik ijodi, ommaviy ijod singari, xalq hayoti va uning turli tomonlarini to'g'ri, aniq, badiiy jihatdan mukammal ifoda etishi, xalq didi va talabiga mos tusha olishi tufayli uzoq yashaydi. Demak, mumtoz musiqaning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liqdir.

2. An'anaviylik — mumtoz musiqa namunalari an'ana sifatida saqlanib, rivojlanib kelmoqda. An'ana deganda uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o'tib, odat tusiga kirgan tadbir yoki xususiyat tushuniladi. An'anaviylik asarlarning og'zaki tarzda yaratilishi, ijro etilishi va tarqalishida; asarlarning matnida (kuy va she'r), ijro uslublari namoyon bo'ladi. Mumtoz asarlarning musiqiy-poetik matni janrlarga ko'ra uzoq muddat davomida doimiy

ravishda takrorlanib turadigan qismlarga ega (tasvir vositalari, parchalar, obrazlar tasvirida namoyon bo'ladi). Ijro etishda (ma'lum uslublarning saqlanishida) ham an'anaviylik mavjuddir.

3. Professionallik – mumtoz musiqa asarlari yaratilishi va ijro etilishi professional sifatlar (keng diapazonli ovoz sohibi, mohir sozanda, musiqa va she'riyat qonuniyatlarini bilish va ularga rioya qilish, ma'lum vohta va ijrochilik maktabi an'analari bo'ysunish)ga va mahoratga ega bo'lishdir. Ushbu musiqa namunalari o'ziga xos ijod va ijro jihatlari tufayli professionallikni talab etadi.

4. Mualliflik – mumtoz musiqa ijodiyoti yetuk sozanda va bastakor mahsulotidir, u individual-mualliflik (ma'lum shaxs tomonidan yaratilgan) ijodga kiradi. To'g'ri, aksariyat asarlarning mualliflari noma'lum, ammo ayrim asarlarning nomlari ijodkor va ijrochining ismlari bilan yuritilgan, masalan, Abdurahmonbegi, Karimqulbegi, Ashkullo saqili, Sodirxon Hofiz Ushshog'i, Hoji Abdulaziz Ushshog'i va h.k. Ushbu asarlar o'zining kuy rivoji, shakl murakkabligi va ijro usullari mukammalligi bilan ajralib turadi. Ular «ustoz-shogird» ta'limotini o'tgan yetuk sozanda, xonanda, baxshi, shoir, katta ashulachi va maqomchilar tomonidan ijro etiladi. San'atkorlar xalqning orzu va umidlarini, sevinch va hayratlarini, quvonch va qayg'ularini, jamiki insoniy qalb ehtiyojlarini yuksak musiqiy idrok bilan tasvirlab borib, kishilarga hamisha ruhiy-ma'naviy ozuqa berishgan. Ular mumtoz musiqa orqali nafosat va ezgulik olamiga tinglovchini oshno qilish istagida bo'lib, o'lmas qadriyatlar bilan hamisha bahramand etib kelganlar.

5. Lokallik – mumtoz musiqa namunalari mahalliy ijro uslubiga egadir, shu tufayli Buxoro «Shashmaqomi», «Xorazm maqomlari» turkumi, Farg'ona-Toshkent maqomlari yoki katta ashula janri faqatgina Farg'ona vodiysida shakllangan, rivojlangan va tarqalgan yoki dostonchilik san'ati Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm ijro uslublari va an'analari bo'linadi; ularning har biri o'z mavqei, mazmuni, kuy tuzilishi va rivoji, ijrochilik uslublari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek musiqasida hozirga qadar ko'lami jihatidan birmuncha kengligi, tarixan qadimiyligi, ijro xususiyatlari bo'yicha benazir, betakrorligi bilan asosan to'rtta mahalliy uslub tavsiflari alohida ajratilgan bo'lib, ularning har biri muayyan vohta nomi bilan, ya'ni Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Qashqadaryo-Surxondaryo va Xorazm lokal (mahalliy) uslublari deb yuritiladi. Har biri jug'rofiy va madaniy muhiti, tarixan aholi-ning turmush tarzi, musiqiy shevasi, musiqa janrlari

va chol-g'ularining tarqalishi hamda ijro uslublari bilan ajralib turadi. Har bir hudud yoki vohaning o'ziga xos mahalliy ijrochilik maktablari an'analari saqlanib, rivojlanishida namoyandalarning xizmati katta bo'lgan. Mumtoz musiqa ijrochiligi sohasida san'atkorlar «ustoz-shogird»chilik an'anasini yuzaga keltirib, uni qadimdan bevosita qo'llagan holda faoliyat ko'rsatib kelishgan. Ular Markaziy Osiyoning turli vohalaridagi taniqli xonanda, sozanda va bastakorlar bilan o'zaro yaqin aloqalarda bo'lishgan.

O'zbek mumtoz musiqasi o'zining hayotiyligi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari uning mavzui va g'oyaviy mazmunida aks etadi. Asarlarning xalqchilik xususiyati ularning hayotiyligi va qaysi bir dunyoqarashni himoya qilishi bilan belgilanadi. Mumtoz musiqa asarlari o'ziga xos badiiy tizimga ega bo'lib, har bir janr kuy-ohang tuzilishi va rivoji, shakli va o'ziga xos ijro uslubi sifatida namoyon bo'ladi. Mumtoz musiqa yuksak mahoratli badiiy tizim. Unda xalqning badiiy didi, voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat ifodalangan.

Mumtoz musiqaning har bir namunasi asrlar davomida ko'plab iste'dodli va yetuk sozanda va xonandalar tomonidan nihoyatda sayqallangan, yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan. An'anaviy ijrochilikning o'ziga xos nuqtai nazaridan O'zbekistonda turli mahalliy ijrochilik maktablari tarixiy rivojlanish sharoitida alohida o'rin tutadi. Maqomchilik, dostonchilik, ashulachilik, sozandachilik kabi o'ziga xos maktablari bilan jilolanadi. An'anaviy san'atimizning ulkan bilimdoni ustoz Yusufjon qiziq Shakarjonov shunday ta'riflaydi: «Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg'onadir». An'anaviy ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lkamizda mumtoz musiqa san'atining butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol, Ota G'iyos, Levi Boboxonov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Sodirxon hofiz Bobosharipov, Matyoqub Xarratov, Hamroqul qori To'raqulov, Mamadbuva Sattorov, Madali Hofiz, Ergash shoir Jumanbulbul o'g'li, Po'ikan shoir, Sherna baxshi, Islom Nazar o'g'li, Bola baxshi Abdullayev va keyinchalik ularning shogirdlari mumtoz musiqa san'atimiz xazinasini o'zlarining maqomlari, dostonlari, katta ashula va suvorlari bilan boyitdilar. An'anaviy

ijrochiligimizda har birlari bir-biriga o'xshamagan ajoyib ijro uslublarini va yangidan-yangi asarlarni ham yaratdilar. Sodirxon hofiz ijro etgan «Ushshoq», «Sodirxon Ushshog'i» nomi, «Bozirgon», «Oshiq Mahmud» dostonlari Bola baxshi nomi, «Yovvoyi Chorgoh» katta ashulasi Mamadbuva va Boltaboy hofizlarning nomlari bilan mashhur bo'lib ketgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov bastalagan «Guluzorim», «Bebokcha» ashulalari, Jo'raxon Sultonov bastalagan va o'zi ijro etgan «Guluzorim qani», «Naylayin» ashulalari mumtoz san'at namunalari qatori musiqiy xazinamizdan o'rin olgan. Ularni ardoqlash, saqlash, o'rganish va o'zlashtirish yosh avlodimizning muqaddas burchi deb hisoblaymiz.

Demak, estetik sezgilarimiz rivojida, go'zallikni, badiiy so'z qadr-qimmatini, ona tilimiz boyliklarini va musiqiy shevani his qilishimizda mumtoz musiqaning o'rni beqiyosdir.



Nikolay Mironov
Samarqand instituti
o'qituvchilari bilan
(1928)

Mumtoz musiqa rivojlanish tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchisi – XX asrgacha bosib o'tilgan yo'l, og'zaki an'anada saqlanib rivojlanishi, har biri o'z nomiga va uslubiga ega bo'lishi. IX asrdan boshlab «musiqiy risolalarda» Sharq mumtoz musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan olimlar tomonidan atroflicha o'rganilib kelingan. Ularning asarlari musiqa ilmining poydevorini tashkil qilib, musiqaning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, tarixiy shakllari, ijrochilik va ta'lim masalalari hamda ular negizida kuy, lad va usul tuzilmalarining tarkib topish qonun-qoidalari batafsil yoritilgan. Shu yo'lda maqom

asoslariga ham nisbatan yagona ilmiy an'ana sifatidagi qarashlar gavdalanadi.

Ikkinchisi – XX asrdan boshlab mumtoz musiqa namunalari nota yozuvlariga bitilgan, sadolari ohangrabo tasmalariga tushirilgan, yangi ta'lim tizimida o'zlashtirilgan, havaskor va professional ansambllar va ijrochilar tomonidan ijro etilib, jonli an'ana tarzida yashab kelmoqda. Ashula va yallalar, dostonlar va katta ashulalar, cholg'u kuylari va turkumlar, maqomlar zamonaviy nota yozuvlarida muhrlanib, abadiy yashashga hozirlandi.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz musiqa ijodiyoti tarixan asosan og'zaki an'ana sharoitlarida rivojlanib kelgan. Ammo Sharq musiqa nazariyasi masalalariga bag'ishlangan IX – XIII asr risolalarida musiqaning bir qator unsurlarini maxsus yozuvda belgilashga harakatlar amalga oshirilgan. Abu Nasr Forobiyning «Kitobul musiqiy al-kabir» asarida bunday izlanishlar o'zining ilk bor yechimini topgan edi va Sharq nota yozuvining yaratilishida zamin bo'lgan (yozuvlar doira va maxsus jadval shakllariga tushirilgan bo'lib, asosiy tovush pog'onalari ud cholg'usi pardalarini aks ettiruvchi harflar yordamida belgilangan). XIII asrda Safiuddin Urmaviy «tabulatura» (jadval) shaklidagi nota yozuvini kashf qilishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur yozuv tizimi ham ud cholg'usiga mo'ljallangan bo'lib, uning qator ijro xususiyatlarini aks ettira olgan. Bunday yozuv orqali o'z zamonida mashhur bo'lgan bir necha mumtoz maqom kuylari hujjatlashtirilgan (bu yozuvlar fransuz sharqshunos olimi De Erlanje, keyinchalik taniqli o'zbek maqomshunos olimi Ishoq Rajabov tomonlaridan hozirgi zamon nota yozuviga ko'chirilib, batafsil ilmiy sharhlangan)¹.

XX asrda o'zbek mumtoz musiqasi namunalari to'plash va yozib olish (zamonaviy Yevropa nota yozuvida) ishlari rivoj oladi. Buxoro «Shashmaqomi» ilk bor rus kompozitori Viktor Uspenskiy tomonidan notaga olinib (1923), to'plam sifatida chop etildi; keyinchalik Boboqul Fayzullayev, Shonazar Sohibov va Fazliddin Shahobovlar (Tojikiston, 1950-1961), Yunus Rajabiy (O'zbekiston, 1959) kabi ijrochi va bastakorlar tomonidan yozib olinib, nashr etildi. «Xorazm maqomlari» turkumi Komil Devoniy (XIX asrning oxirida) ixtiro etgan «tanbur chizig'i» yozuvida (tabulatura nota yozuvi XII-XIII asrlarda mavjud bo'lgan) kuy, usul va ijro asoslari qonunlashtirilib, qonun-qoidalarga bo'ysungan holda mukammal

¹Rajabov Ishoq. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963, 64–93-betlar.

ijro etilishi Xorazmda yoʻlga qoʻyilgan (mazkur yozuvlar V. Belyayev, I.Akbarov tomonlaridan zamonaviy nota yozuviga koʻchirilgan; keyinchalik Ozod Bobonazarov, Botir Rahimov, Rustam Boltayevlar ilmiy-ijodiy izlanishlari natijasida «tanbur chizigʻi» yozuvlari yangicha tasavvurga ega boʻldi). XX asning 30-yillarida Xorazm maqomlari Elena Romanovskaya (1939), 50-yillardan boshlab Matniyoz Yusupov (1958) tomonidan yozib olinib, chop etiladi. Fargʻona-Toshkent maqomlari Viktor Uspenskiy, Viktor Belyayev, Yunus Rajabiylar tomonidan yozib olindi. Katta ashula, suvoralar, dostonlar ham ijrochilar, musiqashunoslar va oʻzbek bastakorlari tomonidan yozib olindi. Yozib olingan va nashr etilgan toʻplamlar orqali ilmiy-tadqiqot ishlari ham jadallashdi, shu bois XX asning birinchi yarmida Rahmon Bekjon va Devonzoda, A.Fitrat, N.Mironov, V.Uspenskiy, V.Belyayev, E.Romanovskaya, I.Akbarovlarning mumtoz musiqa masalalariga bagʻishlangan maqolalar va kitoblari yuzaga keldi; XX asning ikkinchi yarmidan bu ishlar yanada rivojlanib, I.Rajabov, Yu.Rajabiy, F.Karomatov, T.Vizgo, T.Gʻofurbekov, O.Matyoqubov, R.Abdullayev, A.Jumayev, A.Nazarov, R.Yunusov, O.Ibrohimov, S.Begmatov kabi musiqashunos olimlar ilmiy ishlarida oʻz aksini topdi.

XX asrda oʻzbek mumtoz musiqasini toʻplash, yozib olish, ilmiy oʻrganish va targʻib etishda kompozitor va bastakorlar, musiqashunos olimlarning xizmatlari katta boʻlgan.

Viktor Aleksandrovich Uspenskiy (1879-1949) — Oʻzbekiston va Turkmaniston xalq artisti, sanʼatshunoslik fanlari doktori, musiqa etnografi, oʻqituvchi va isteʼdodli kompozitor. Sankt-Peterburg konservatoriyasini tugatgan (1913). V.Uspenskiy 1917-yildan Toshkentda oʻzining koʻp qirrali ijodiy va jamoatchilik faoliyati bilan respublikamiz musiqa madaniyati rivojlanishiga katta hissa qoʻshdi. Oʻzbekiston va Turkmaniston hududlari boʻyicha folklor ekspeditsiyalari oʻtkazdi, xalq va mumtoz musiqa namunalari yozib oldi. 1923-yili A.Fitratning tashabbusi bilan V.Uspenskiy Buxoroda maqom bilimdonlari Ota Jaloliddin Nosirov, Ota Gʻiyos



Abdugʻani va Domla Halim Ibodovlardan «Shashmaqom» turkumini yozib oldi va u 1924-yili «Olti musiqali poema «Shashmaqom» nomi bilan Moskvada nashr etildi. Taniqli hofiz Shorahim Shoumarovdan «Fargʻona-Toshkent maqomlari» (1920–1930-y.), 1940-yillari katta ashula va zikr aytimlarini yozib oldi. Oʻzbek xalq va mumtoz musiqa namunalari asosida vokal, fortepiano, simfonik va musiqa-sahna asarlarini yaratdi, jumladan, «Farhod va Shirin» musiqali drama va operasini.



Elena Evgenyevna Romanovskaya (1890-1947) — Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi, pedagog va musiqashunos. Sankt-Peterburg konservatoriyasini tugatgan (1929). 1917-yildan Toshkentda yashagan. Oʻzbek xalqining xalq va mumtoz musiqa namunalari yozib olgan, jumladan, Xorazm maqomlarining cholgʻu yoʻllarini 1939-yili «Xorazm klassik musiqasi» nomi bilan chop ettirgan. Toshkent davlat konservatoriyasi pedagogi sifatida faoliyat koʻrsatgan. Koʻpgina nota toʻplamlari va maqolalar muallifi.



Yunus Rajabiy (1897-1976) — Oʻzbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti sovrindori, sozanda, hofiz va bastakor, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi. Oʻzbek mumtoz musiqasini saqlash, targʻib etish va rivojlantirishda jonbozlik koʻrsatgan. Oʻzbekistonda ijro jamoalari, teatrlari va ansambllari tashkil etishda faol qatnashdi, jumladan, 1927-yili Oʻzbekiston radio qoshida etnografik ansambl (keyinchalik, xalq cholgʻulari orkestri), 1958-yili birinchi professional maqom ansambli va boshq.) 1930-yildan boshlab xalq qoʻshiq va kuylari, maqomlar va bastakorlar asarlarini notaga yozib oldi hamda 1955-yildan boshlab «Oʻzbek xalq musiqasi» koʻptomlik antologiyasida chop etdi. Buxoro «Shashmaqom»i,

Farg'ona-Toshkent maqomlari, katta ashula, ashula va cholg'u kuylari yetuk san'atkorlar ijrosida yozib olindi. 1966–1975-yillari «Shashmaqom» alohida olti tomlik to'plam sifatida Yunus Rajabiy yozuvida nashr etildi. 1960-yillardan boshlab «Shashmaqom»ning ayrim cholg'u va to'liq ravishda ashula yo'llari hamda boshqa maqom namunalari maqom ansambli tomonidan mangit tasmlarda va gramplastinkalarda yozib olinib, chop etildi. «Musiqqa merosimizga bir nazar» (1978) risolasi muallifi. Yunus Rajabiyning bastakorlik ijodiyotida ashulalar, cholg'u asarlari va musiqali dramalar o'rin olgan.



Matniyoz Yusupov (1925-1992) – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, sozanda, xonanda va kompozitor. Toshkent davlat konservatoriyasini tugatgan (1960). U musiqali drama, opera, vokal-simfonik va ko'pgina qo'shiqlar muallifi. M.Yusupov Xorazm xalq qo'shiq va kuylari, doston qo'shiqlari va, ayniqsa, Xorazm maqomlarini to'plab notaga yozib olgan. Uning nota yozuvlari «O'zbek xalq musiqasi» antologiyasining YI va YII jildlarida (1958, 1960), uchtomlik beshta kitobdan iborat «Xorazm maqomlari» to'plamida (1978-1991) nashr etilgan.




Is'hoq Rajabov (1927-1982) – sozanda va maqomshunos olim, san'atshunoslik fanlari doktori (1971). O'rta Osiyo davlat universitetini tugatgan (1950). O'zbek musiqasi tarixi, o'rta asr «musiqiy risolalar» va, ayniqsa, o'zbek maqomlariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. «Maqomlar masalasiga doir» (1963), «Maqom asoslari» (1992) va ko'pgina maqolalar muallifi. Toshkent davlat konservatoriyasida ilk bor «Maqom asoslari» fanidan ijrochitalabalarga saboq berib kelgan ustoz.



Fayzulla Muzaffarovich Karomatli (1925) – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, san'atshunoslik fanlari doktori (1971), professor, musiqashunos. Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika instituti (1944) va Toshkent davlat konservatoriyasini tugatgan (1950). 1972-yili Toshkent konservatoriyasi qoshida «Sharq musiqasi» kafedrasini tashkil etgan. 1954-yildan boshlab O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari hududlarida o'tkazilgan folklor ekspeditsiyalari rahbari. O'zbek va tojik an'anaviy musiqasi namunalari to'plab, yozib olib, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. O'zbek musiqasi folklori, maqomchilik va cholg'ushunoslik bo'yicha kitoblar, to'plamlar va maqolalar muallifi, jumladan, «O'zbek xalq musiqasi merosi. XX asr», 1–2-kitoblar (1978, 1985), «Pomir musiqasi san'ati», 1–2-tomlar (N.Nurjonov bilan hamkorlikda, 1978, 1985), «O'zbek cholg'u musiqasi. Meros» (1972) va boshqalar. Xalqaro «Maqom» guruhi hamraisi.

O'zbek an'anaviy musiqasi namunalari to'plash, magnit tasmlariga yozib olish, hujjatlashtirish, nota yozuvida muhrlash va ilmiy o'rganish hamda ularni nota to'plamlari, kitoblar va gramplastinkalar orqali nashr etishda San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining faoliyati ahamiyatlidir. 1928-yili Samarqandda o'zbeklarning xalq va klassik musiqasini o'rganish ilmiy tekshirish instituti sifatida ish boshlagan muassasa, keyinchalik o'zbek musiqasini o'rganish markaziga aylandi. V.Uspenskiy, I.Akbarov, F.Karomatli kabi atoqli olimlar rahbarligida respublikaning va Markaziy Osiyo davlatlarining turli joylarida ekspeditsiya ishlari olib borildi. Natijada O'zbekistonda juda boy musiqasi arxivi vujudga keldi va u kundan-kunga boyib bordi. Hozirgi kunda institut fonotekasi 1 million metr dan ortiq mangit tasmlarida va audio diskalarda xalqimizning noyob durdonalari – turli xalq qo'shiqlaridan tortib to yetuk san'atkorlar tomonidan ijro etilgan yirik maqom turkumlarigacha saqlanmoqda. Ayrimlari gramplastinkalar, audio diskalar va nota yozuvi to'plamlari sifatida xalqimizga taqdim etilgan.





Muhiddin Qori-Yoqubov rahbarligidagi konsert-etnografik ansambli



Samarqand musiqa va raqs instituti o'qituvchi va talabalari

Mumtoz musiqa jonli ravishda amaliyotda va ta'lim tizimida o'zlashtirilib, XX asrning yetuk sozanda va hofizlari, baxshi va maqom ansambllari repertuaridan mustahkam o'rin oldi va xalqimizga yangicha an'anaviy uslubda taqdim etilmoqda.

O'zbek mumtoz musiqasining ijtimoiy qimmati ma'rifiy, g'oyaviy-tarbiyaviy va estetik ahamiyati bilan belgilanadi. Uning madaniy-ma'rifiy ahamiyati shundaki, u xalqning tarixi, qadriyat-lari, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabati, orzu-umidlari haqida keng bilim beradi. Mumtoz musiqa — o'zbek musiqa san'atining poydevori, yuksak mahoratli badiiy tizimi. Unda xalqning badiiy didi, voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat ifodalangan. Ushbu musiqaning har bir namunasi asr davomida ko'plab iste'dodli va yetuk ijodkor-ijrochilari tomonidan pardoatlanib, yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan. Demak, estetik sezgilarimiz rivojida, go'zallikni, nafosatni, badiiy so'z qadri va nafis kuy qimmatini, ona tilimiz va musiqa shevalari hamda ijro uslublari boyliklarini his qilishimizda mumtoz musiqaning roli beqiyosdir.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek mumtoz musiqasi nafaqat qayta tiklandi, balki yanada keng rivoj olib, jahon madaniy muhitidan salmoqli joy egallab kelmoqda. Respublikamizning ijodiy va ilmiy jarayoniga asos bo'ladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlar qatorida asrlar osha bizgacha yetib kelgan mumtoz musiqamiz — ashula, katta ashula, cholg'u kuylari, dostonlar va maqomlar xalqimiz madaniyatida beqiyos o'rin tutadi.

Mumtoz musiqa janrlari tasnifi

Asrlar osha davr tahririga uchrab, sayqallashib, o'ziga xos murakkab shakllari, teran mazmuni, jozibali va ohangdor kuylari bilan bizgacha yetib kelgan mumtoz musiqa namunalari hanuz-gacha eng sevimli, eng ardoqli xalq asarlari bo'lib kelmoqda.

Mumtoz musiqa asarlarining badiiy kuchi — ularning xalq orzu-umidlari, his-tuyg'ulari, fazilatlar va turmush haqiqatlari bilan uyg'unligi, kishilarning ruhini, dardini o'zida aks ettirishida, undagi tinglovchilarga ham birday yoqimli, so'z va ohang, soz va kuy mushtarakligidir. Inson yashashi uchun, millat taqdiri va munosabatlari uchun zarur bo'lgan ma'naviy jarayonlar kuyga va aytim — ashulaga solinadi. Inson boshidan kechiradigan turli-tuman voqelik, yuragini zabt etuvchi shodu-xurramlik yoki dardu-alamlar, yorug' yoki qorong'u kunlarning izi cholg'u kuyi va ashulaga aylanadi.

Mumtoz ashula yo'llari va cholg'u kuylarining umrboqiyligi ulardagi ma'naviy-axloqiy ma'noning chuqurligi, musiqiy ohanglarning go'zalligidir. Ularda insoniy kechinmalar andishaga boy, hayotiy va samimiydir. Shuning uchun tinglovchiga zavq bag'ishlaydi, ko'nglini ko'taradi. Bunday ma'naviy go'zallik taronasi mumtoz musiqaning ajib va o'lmas an'anasiga aylangan. Mumtoz musiqa o'zining mukammalligi, mo'jaz shakli, obrazlarning serqirra ma'nodorligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Abdurauf Fitrat musiqa ijodiyotining asrlar mobaynida yashab kelgan shakl-shamoyillari, ularning turlari (ashula, doston va boshqalar) haqida yozar ekan, ashulaga quyidagicha ta'rif beradi: «Kuy, ohang bilan o'qulaturgon she'rlar, tizmalarga ashula deyiladi».

Darhaqiqat, mumtoz musiqa insonning moddiy va ma'naviy turmush talablari, ehtiyojlari va o'zini qurshab turadigan tashqi muhitga, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlari natijasida, mumtoz she'riyatning va ijrochilik mahoratining rivojida yuzaga kelgan. Xalqning ichki ruhiyati, dunyoqarashi, intilishlari va orzu-umidlari musiqa ohanglarida aks etadi. Ushbu musiqa namunalari minglab yillar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog'onalarga ko'tarilgan va xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan.

Har bir musiqa asari, birinchi navbatda kishiga ruhiy engillik baxsh etish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, kishining tashqi dunyoga estetik munosabatda bo'lishini shakllantiradi; uchinchi tomondan esa tarbiyaviy ta'sir vazifasini ham o'taydi. Musiqa asarlarining kishi ruhiyatiga ta'siri haqidagi fikrlarni qadim davrlarda yashab o'tgan olimlarning asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, Sharqning buyuk mutafakkirlari o'zlarining «musiqiy risolalarida» musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri, turli his-tuyg'ular uyg'ota olish xususiyatlarini batafsil tahlil qilishib, jumladan, maqom va ularning sho''balari kishiga shijoat va jasorat bag'ishlaydi deb uqtirib o'tishgan. Navo yoki Ushshoq jozibador va ohangdor maqom yo'llari deb hisoblansa, Rost yoki Iroq nozik va yoqimli maqom yo'llari bo'lib, kishiga huzur, xushchaqchaq kayfiyat bag'ishlaydi. Buzruk yoki Segoh va ularning sho''balari ulug'vorlik, g'amginlik, quvonch hamda qayg'u kayfiyatini qo'zg'aydi. «Dilxiroj» cholg'u kuyini tinglaganda kishida ko'tarinki ruhiy holat vujudga kelsa, «Cho'li iroq» kuyi ruhan moziydan sado eshitilgandek bo'ladi. Kishining tashqi dunyoga estetik munosabatini shakllantirishdagi mumtoz musiqaning vazifasi insonning ta'sirchanlik kayfiyati bilan bevosita bog'liqdir.

Xalq yoki bastakor tomonidan yaratilgan har bir musiqa asari o'z oldiga u yoki bu darajadagi vazifani qo'yadi. Mumtoz musiqa ham o'z mavqei, mohiyati, mazmuni, vazifasi va ijrochilik xususiyatlari jihatidan ikki yirik guruhga — ovoz va so'z bilan bog'liq bo'lgan aytim yo'llari va cholg'u orqali ifoda etiluvchi cholg'u yo'llariga bo'linadi. Ularning har biri o'z navbatida quyidagi janrlarga tasniflanadi:

I. *Aytim yo'llari:*

1. **Mumtoz yalla va ashula** — har biri rivojlangan kuy va shakldan, o'ziga xos mazmundan va ijro uslubidan iborat. Bularga lokal xususiyatlariga ega bo'lgan xalq ashula yo'llari, suvoralar, naqshlar ham kiradi.

2. Yirik ashula janri bo'lmish — faqatgina Farg'ona vodiysida shakllanib, rivoj olgan **katta ashula**.

3. **Dostonlar** — xalq epik janri bo'lib, adabiy matn, she'r, musiqadan iborat uch birlik tamoyili mavjudligi bilan ajralib turadi.

4. **Maqomlar** — o'z navbatida maqom ashula yo'llari va yirik ashula-cholg'u turkumli janr sifatida keng tarqalgan. Buxoro «Shashmaqom»i, «Xorazm maqomlari» turkumi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari kabi maqom turkumlaridan iborat.

II. *Cholg'u yo'llari:*

1. Rivojlangan kuy va shakllardan iborat, murakkab ijro uslublari mavjudligi bilan ajralib turuvchi **cholg'u kuyi yoki asar va cholg'u turkumlar** (bu toifaga yirik **cholg'u usullari** ham kiradi), jumladan, Eshvoy — Eshvoy kurd — Eshvoy turkman; Dilxiroj va Sinaxiroj.

2. **Maqom cholg'u yo'llari va turkumlari**, jumladan, Cho'li iroq, Mushkiloti dugoh, Ajam taronalari; Dutor maqom turkumlari (Xorazmda), Surnay maqom yo'llari — Navo, Chorgoh va boshq. (Farg'ona-Toshkent).

3. Mumtoz ashulalarning **cholg'u yo'llari** (variantlari) va turkumlari, jumladan, Tanovar turkumi, Chorgoh turkumi va boshq.

Har bir janr o'z mavqei, kuy-ohang tuzilishi, ijro uslubi bilan ajralib turadi.

O'zbek mumtoz musiqasi asrlar osha og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning fikr-o'yi, dardi, orzusi, donishmandligini o'zida mujassamlashtiradi. O'zining an'anaviyligi, buyukligi, ta'sirchanligi, professionalligi, mukammalligi, ko'plab badiiy vositalarga boyligi bilan o'ziga xos musiqa san'ati turiga aylanadi. Katta badiiy-estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan o'zbek mumtoz musiqasi milliy ruh, milliy qiyofani

shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlash, boyitish va keyingi avlodga yetkazib berishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek mumtoz musiqasida xalqning ma'naviy madaniyatiga doir durdonalar to'plangan bo'lib, hozirgi mustaqillik davrida milliy o'zlikni anglash va milliy ongni taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'ZBEK MUMTOZ CHOLG'U MUSIQASI

Mumtoz musiqa inson moddiy va ma'naviy turmush talablari, ehtiyojlari va o'zini qurshab turgan tashqi muhitga, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlari natijasida paydo bo'lgan. Xalqning ichki ruhiyati, dunyoqarashi, intilishlari va orzu-havasi musiqa ohanglarida aks etib kelingan.

Musiqiy ohanglarda uning ijodkori hisoblangan xalqning yoki elatning sho'x va hazil, o'ynoqi va mungli ichki nidolari mujassamlangan. Mumtoz musiqada kishilar o'rtasida ro'y beradigan insoniy-axloqiy munosabatlar o'z ifodasini topadi.

O'tmish ajdodlarimiz katta yig'inlar, xalq bayramlari va sayillarni, to'y-tomoshalarni musiqasiz tashkil qilmaganlar, chunki bu yirik anjumanlarda yangragan har bir cholg'u kuyi, ijro etilgan qo'shiq-ashula yoki raqs anjuman ishtirokchilarining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

An'anaviy cholg'u musiqasi xalq va mumtoz cholg'u kuylari va asarlaridan iborat bo'lib, asrlar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog'onalarga ko'tarilgan va har bir xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan.

O'zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan musiqa cholg'ulari va cholg'u musiqasi qadim-qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga egadir. O'zbek cholg'u musiqasi barcha xalqlar musiqasi kabi o'ziga xos tarix va an'analarga boy. Asr osha bizgacha yetib kelgan ushbu musiqaning ajoyib namunalari o'zining rango-rang jilosi, ohangrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam shavq-zavq va huzur baxshida etmoqda. Kishining tashqi dunyoga estetik munosabatini shakllantirishdagi cholg'u musiqasining vazifasi insonning ta'sirchanlik kayfiyati bilan bevosita bog'liqdir. Musiqa ta'sirida shakllanadigan estetik munosabat kishi ruhiy holatiga yo bog'liq bo'ladi, yoki uni belgilab beradi. Bog'liqligi shundaki, kishi ruhiyati tushkun holatda bo'lsa,

musiqiy ohanglar ta'siri qanchalik kuchli bo'lmasin, hatto bulbulning sayrashi ham uning qalbiga faqat mung bo'lib kiradi.

Inson hayotida musiqa cholg'ularining yaratilishi bevosita ushbu cholg'u orqali ijro etiladigan kuylarni ijod etishiga undaydi. Bizning xalqimiz xilma-xil cholg'ularga ega bo'lib, o'ziga xos cholg'u musiqasini yaratgan. Bu cholg'ular tovush chiqarish xususiyatlari bo'yicha torli (torli chertim, torli plektor, torli kamonli va torli urma), puflama-damli (naysimon, tilsimon va karnaysimon) va urma-zarbli (teri bilan qoplangan va o'zi sado beruvchi) cholg'ular guruhi va turlariga bo'linadi. Har bir cholg'u o'z tuzilishi, tasviriy vositalarining xarakteri xususiyatlari va ijrochilik uslublari bilan ajralib turadi. O'zbek musiqa cholg'ulari an'anaviy (nay, sibizgi, qo'shnay, g'ajir nay, surnay, bulamon, karnay, tanbur, dutor, do'mbira, qonun, qo'biz, sato, chang-qo'biz, doyra, nog'ora, doul va boshq.) va qayta ishlangan (g'ijjak, qashqar va afg'on ruboblari, chang, ud) xillariga bo'linadi. Bu cholg'ularning har biri ijro etiladigan musiqa asari xususiyatlari va vazifalariga qarab yakkasoz yoki ma'lum ansambl tarkibida ishlatiladi. Shu tufayli an'anaviy yakkasoz va ansambl ijrochiligi yuzaga kelgan.

O'zbek mumtoz cholg'u musiqasi xalq cholg'u musiqasiga qaraganda kuy rivoji, shakl murakkabligi va ijro uslubining mukammalligi bilan ajralib turadi. Uning janrlar tarkibi ham yirik va murakkab cholg'u kuylari, asarlari va turkumlaridan iborat. Bular yirik cholg'u usullari (doyra yoki nog'ora cholg'ularida ijro etilgan), cholg'u kuylari (yakkasoz yoki ansambl uchun mo'ljallangan), yirik cholg'u asarlari, masalan, Cho'li Iroq, Munojot, Tanovar, Aliqambar, Qo'shchinor, Qo'shtor, Yovvoyi Chorgoh (yakkasoz uchun mo'ljallangan, masalan, g'ijjak, dutor, tanbur, nay, surnay, qonun, chang), cholg'u turkumlari va maqom cholg'u asarlari turkumlari, jumladan, Nog'ora Bayoti, Dutor Bayoti, Duchava, Eshvoy, Surnay Navosi, Ajam taronalari, Mushkiloti Dugoh, Miskin I-YII, dutor maqomlari, surnay maqom yo'llari va boshq. (yakkasoz yoki ansambl ijrochiligida).

Musiqiy cholg'ularining kelib chiqishi, ishlatilishi va o'zaro muvofiqlashuvi ularning taraqqiy yo'lida sozandalik san'atining o'tmishdan yuzaga kelishiga va ushbu san'atning rivoj olishiga olib keldi. Bu san'at o'z ichiga ijrochilik mezonlari va uslublari, cholg'u musiqa asarlarini ijod etishi va ularning o'ziga munosabatlarini qamrab oladi. Bu esa ijrochi-sozandaning ijodi



Muxtorjon Murtazoyev



Komiljon Jabborov

va mahorati bilan bog'liqdir. Cholg'uning umumiy ko'rinishi, parda tuzilishi (torli cholg'ularda) va tembr-akustik xususiyatlarining shakllanishi sozandalarning kasbkor qurollarini o'zlariga moslashtirish yo'lidagi izlanish va intilishlarining samarasidir. O'rta asrlarda parda-lad tizimi, kuy-ohang tuzilishining tarkibiy birliklari (*ilmi advor*) va yangrashi, ritm-usul tizimi (*ilmi iqo'*) shakllanishi va amaliyotda qo'llanishi musiqa cholg'usi orqali o'z ifodasini ilmiy-amaliy ishlarda topgan. Birobarin, qaysi musiqa cholg'usi bo'lmasin, mohiyatan musiqa amaliyotini takomillashtirishga, kuy va ashulalarning jozibasini oshirishga qaratilgandir. Qadimgi davrlardan ma'lum bo'lgan cholg'ularning har birida inson qalbining nozik tuyg'ulariga hamohang sadolarni izlab topish va ularni mukammal shakllarga keltirishning uzoq tarixi aks ettirilgan. Barhayot an'analarga ko'ra musiqa cholg'usi sozanda va, ayniqsa, xonandaning suyanchi va ishonchli hamrohi hisoblanadi. Darhaqiqat, musiqa cholg'usi ijrochi uchun chinakam ilhom manbai, erkin ijodiy intilish va mahorat namoyish etishda uning yo'ldoshidir. Musiqa cholg'ularining shakllanishi, avvalo, amaliyatda yuzaga keladi, ularning parda tuzilishi, bezagi, tovush chiqarishi va yangrashi, uslublari ijro jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shu bois har bir cholg'uning repertuari ham mukammallashib va murakkablashib boradi. Musiqa madaniyatining o'rta asrlarda, ayniqsa, uning uyg'onish davri (IX

– XVI asrlar)da, misli ko‘rilmagan darajada yuksalishi musiqa cholg‘ularning repertuari va ijro uslublari yanada boy va rang-barang bo‘lishidan guvohlik beradi.

O‘zbek milliy sozandalik san‘atida shakllangan yakka, ikki yoki undan ortiq cholg‘ular ishtirokidagi ijro uslublari, ularning turli milliy va umummilliy ko‘rinishlari takomillashib, yangi ijrochilik uslubiga ega bo‘lgan turli oqimlarning vujudga kelishi kuzatildi. XX asrda an‘anaviy (maqom cholg‘u ansambli, tomosha san‘ati cholg‘u ansambli, dostonchilik cholg‘u ansambli, jo‘rnavor xonandalik cholg‘u ansambli, bayramona-marosim cholg‘u (yoki karnay-surnay) ansambli va zamonaviy (dutorchilar, doyrachilar, g‘ijjakchilar, rubobchilar, changchilar, udchilar, xalfachilar kabi) cholg‘u ansambllari shakllangan bo‘lib, festivallar, bayramlar, ko‘rik-tanlovlar mazmunini to‘ldirish bilan birgalikda, an‘anaviy cholg‘u musiqasi janrlari qonun-qoidalarida yaratilgan asarlar hisobiga o‘z repertuarlarini boyitib bormoqdalar.

Hozirgi davrida milliy musiqaga bo‘lgan e‘tibor, xususan, cholg‘u musiqa janrlarining mahalliy ko‘rinishlari, kuylarning shakl va ohang jihatlari, ijro uslublarning mahalliy va badiiy mezonlari va, ayniqsa, uning autentik (jonli sharoit) ko‘rinishdagi ijrosiga imkon yaratmoqda. Xorazm mahalliy musiqa san‘ati xususiyatlarini belgilab beruvchi qo‘l sozi (garmon), bulamon va tor; Surxondaryo, Qashqadaryo va qisman Samarqand hududlaridagi turli o‘zbek urug‘larining asosiy musiqa vositasi hisoblangan do‘mbira va chang-qo‘biz (Surxon vohasida nay shuvulloq va g‘ajir nay), Qoraqalpog‘istonda baxshichilik san‘atida o‘rin olgan qo‘biz va uch torli g‘ijjak boshqa cholg‘u (nay, surnay, karnay, qo‘shnay, tanbur, dutor, qashg‘ar va afg‘on ruboblari, ud, sato, g‘ijjak, chang, qonun, doyra, nog‘ora)larning umumo‘zbek cholg‘u sozlari sifatida o‘z vazifa va qiyofalarini saqlab qolishi o‘zbek milliy sozandalik san‘atining to‘g‘ri yo‘lda ekanligidan dalolat beradi. Bu jarayonga xos bo‘lgan yana bir xususiyat – bu o‘zbek guruhli cholg‘u ijrochiligi san‘atida badihago‘ylik (improvizatsiya) uslubidagi yo‘nalishning paydo bo‘lishi (Abduhoshim Ismoilov rahbarligida «O‘zbek virtuozlari» cholg‘u ansambli faoliyatida kuzatish mumkin). Ansambl ijrosidagi musiqa asarlarining shakliy ko‘rilmasi, kuy-ohang xususiyatlari va rivoji, tovush bezaklari, usullar majmui o‘zbek musiqiy ijrochilik an‘analariga xos va mos tarzda, turli cholg‘u (g‘ijjak,

nay, qonun, ud va doyra)larining texnik imkoniyatlarini to‘la ochib berilishi natijasida yuzaga keldi va o‘z samarasini bermoqda. Ansamblning repertuarida o‘zbek mumtoz va xalq cholg‘u kuylari bilan birgalikda A. Ismoilovning bastakorlik ijodiga mansub «Favvara», «To‘yona», «Dil nolasi», «Buyuk chinor», «Mustaqillik», «Xolim so‘rma», «Qalb sadosi», «Gullola», «Bazm kuyi», «Visol» va boshqa qator cholg‘u asarlar o‘rin olgan.

Mumtoz cholg‘u musiqasi yakkasoz va ansambl ijrosiga mo‘ljallangan asarlardan iborat bo‘lib, har bir soz va ma‘lum ansamblning ijro imkoniyatlari, kuy rivoji va shakli bilan ajralib turadi. Ularning repertuarlari ham o‘z vazifalariga bevosita bog‘liq bo‘lgan janrlardan tashkil topgan. Shaklan murakkab va juda rivojlangan asarlarida mumtoz cholg‘u musiqasining barcha qatlamlari taraqqiyotini yorqin namoyish qiladi. Do‘mbira juda sodda va imkoniyati kam cholg‘u hisoblanib kelingan, ammo ayrim do‘mbirachilar tomonidan talqin etilgan «Baxshi va do‘mbira kuylari», masalan, «Qadimgi nag‘ma», «Qo‘ng‘irotcha nag‘ma» va boshq. o‘ziga xos uslubda, kuylari rivojlangan holda cholg‘uning murakkab soz sifatida qabul qilinishiga imkon yaratdi. Nay, qo‘shnay, bulamon va surnay cholg‘ulari kengroq imkoniyatlarga ega bo‘lib, musiqa amaliyotida ularga mos yirik cholg‘u va maqom cholg‘u kuylari ijro etilib kelinmoqda («Yovvoyi Chorgoh», «Surnay Navosi», «Xorazm Dugohi», «Aliqambar», «Cho‘li Iroq», «Begi sulton», «Shodiyona» va boshq.).

Puflama-damli cholg‘ularda ijro etilgan musiqa asarlarning kuy tuzilishlari, tovush bezaklari har bir sozning ijro imkoniyatlari hamda puflab chalish jarayonida tovushlarni aniq va baland chiqarilishiga bog‘liqdir. «Yovvoyi Chorgoh» nay cholg‘usiga mo‘ljallangan bo‘lib, uning kuyi rivojlangan «Chorgoh» sho‘basining ohangi asosida yuzaga kelgan. Kuyning tuzilishi va baland pardalarda intilishi, kuy misralarini nafas birligida chalinishi asarni nozik, jarangdor va ta‘sirchan bo‘lishiga olib keladi. «Cho‘li Iroq» kuyi o‘ziga xos lirik-vazmin xarakterida ijro etilib, cholg‘uga xos bo‘lgan boy tembr xususiyatlari va rang-barang ijro-texnika vositalari bilan o‘ziga jalb qiladi. Kuyning ohangdorligi, kuychanligi, tovush tebratish mayinligi sozandaning mahorati bilan ham bog‘liqdir. «Shodiyona» musiqa asari surnay va nog‘ora cholg‘ulariga mos bo‘lib, yirik xalq yig‘inlari, to‘yyu-tomoshalarda ijro etilib kelingan. Ushbu asar turkumli cholg‘u kuylari sifatida ajralib turadi. Ular ohang xilma-xilligi va usullarning rang-barangligi bilan o‘ziga tortadi. Xush qayfiyat, ko‘tarinki-tantanavor xarakterlarida ijro etilgan kuylar (9-

10 kuyni qamrab olgan, nog'ora usullari ham to'qqiztadan to o'ttiz-ikkitagacha bo'lishi mumkin) jo'shqinlik va ulug'vorlik bag'ishlaydi.

Choli Iroq



«Begi sulton» kuy amaliyotda keng tarqalgan asar bo'lib, ko'proq surnay cholg'usi ijrosi tinglovchilarga tanish. Uning kuy tuzilishi va rivoji jarangdor va jozibali xarakterda talqin etilishi, cholg'uning tabiati, imkoniyati, tovush chiqarish usuli, bezaklar, nafasning to'g'ri ishlatilishi, kuy talqini bilan belgilanadi. Qo'shney tabiatdan juda nozik va mayin cholg'u bo'lgani uchun uning kuylari ham og'ir va vazmin uslubida talqin etilib, sozandaning ibtidosi bilan qo'shney cholg'usiga asoslanadi.

Tanbur va dutor cholg'ulari sozandachilik va maqomchilik san'atlarida keng ishlatilgan. Mazkur cholg'ularning turli ko'rinishlari mintaqadan tashqarida va ko'plab xalqlar madaniyatida ham qo'llanib kelingan. Ushbu cholg'ularda ijro etilgan kuy sadolari, tembrakustik tuzilishi va ijro uslublari har bir musiqa asarlarining betakror ohanglarida o'z aksini topadi. Tanbur va dutor asosan mohir sozandalar tomonidan chalinganligi uchun repertuari deyarli rivojlangan va jozibali maqom cholg'u yo'llaridan hamda shularga yaqin cholg'u kuylardan iborat. Cholg'ular ijrosidagi nola va qochirimlar kuylarning g'oyat ta'sirchan bo'lishiga erishiladi («Tanovar», «Rok», «Qo'shtor», «Azim daryo», «Bilak uzuk», «Yovvoyi chorgoh», «Sarparda», «Munojot», «Dutor navosi», «Shahd», «Qurd», «Turgay» va boshq.). Ushbu cholg'ularda ijro

etilgan musiqa asarlari o'zining ohangdor lirik xarakterlari va kuylarga xos bo'lgan ta'sirchan tuyg'ular bilan chambarchas bog'liq holda shavq-zavq baxshida etadi. Bunga yorqin misol sifatida «Tanovar» kuyining dutor va tanbur cholg'ulari talqin etilganini keltirish mumkin (mohir sozanda Turg'un Alimatov ijrosida). «Qo'shtor» cholg'u kuyi turkumli asar sifatida zamonaviy dutorchilik san'atida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu kuy marg'ilonlik sozanda Qo'zixon Madraimov ijodiga mansub bo'lib, asar o'zining ijro texnik uslubi, zarblarning kuylar bilan mutanosibliigi va jarangdorligi, turli-tuman harakatlar (pissikato va chertim yo'llari talqini) va boy tasviriy vositalarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Qo'shtor



Qashqar va afg'on ruboblari o'zlarining ovoz chiqarish uslublari, xarakterli tembri va ijro texnikalari bilan amaliyotda keng qo'llanmoqda. Qashqar rubobi jarangdor soz bo'lsa, afg'on rubobi mungli va mayin ovozga ega. Lekin ularning repertuarlari bir-biriga yaqin va aniq — an'anaviy cholg'u asarlaridan tashqari («Jigar pora», «Rohat», «Eshvoy», «Eshvoy qurd», «Eshvoy turkman», «Mushkiloti Dugoh» va boshq.) bastakorlar va kompozitorlar asarlari ham o'rin olgan.

Chang va qonun cholg'ulari ham o'zlarining tasviriy imkoniyatlari jihatidan deyarli boy va ta'sirchan, ularning repertuarlari ham rang-barangdir («Gulbahor va Tanovar», «Qo'shchinor», «Munojot», «Jigar pora» va maqom cholg'u yo'llari).

Mumtoz ijrochilik san'atida g'ijjak va sato cholg'ulari ham yetakchi o'rin egallab kelmoqda. Qadimiy cholg'ular sifatida hozirgi

kunda keng tarqalgan g'ijjak va sato o'z ijro imkoniyatlari va ularga mos repertuarlari bilan ajralib turadi. G'ijjak kamoni cholg'ular orasida o'zining yoqimli, nozik va ayrim holatlarda jarangdor soz bo'lib, ijro texnikasi va keng ishlatiladigan tovush bezaklari hamda kuylarning shaklan rivojlanganligi bilan o'ziga jalb qiladi. Yirik cholg'u («Qo'shchinor», «Tanovar») va maqom cholg'u yo'llari («Nasrulloiy», «Chorgoh», «Muhammasi Bayot», «Hojiniyoz 1-2» va boshq.) o'zbek bastakorlari cholg'u asarlari g'ijjak repertuaridan o'rin olgan.

Sato cholg'usi o'zining ijro etilishidagi imkoniyatlarining boyligi va ovozing nozik, yoqimli tembri (cholg'uni «inson ovozig o'xshash nidosi» ta'riflanishi bejiz emas) jihatidan yaqqol ajralib turadi. Satoda asosan vazmin, og'ir kuylar ijro etilib, ular kamoni orqali cho'ziq ovoqli, mayin va dardli hamda xilma-xil va ta'sirchan qilib chalinadi («Fig'on», «Nola», «Tasnifi, Tarjei va Garduni Navo» va b.). Satoda chalish uslubi ma'lum darajada murakkabroq, mukammalroq va ovoz chiqarishga mahoratlik talab etgani uchun asosan mohir sozandalar tomonidan ishlatiladi va shu tufayli uning repertuarida ko'proq an'anaviy cholg'u musiqasi namunalari o'rin olgandir.

Sozandalik san'atida maqom cholg'u yo'llari (Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg'ona vodiysi)dan tashqari rango-rang mumtoz cholg'u asarlari ham o'zlarining lokal variantlari bilan o'rin olgan. Ular yetuk sozandalar va bastakorlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan va keng tarqalgandir. Bu kuylar o'zlarining kuy-ohang tizimi, ularning tuzilishi va rivoji jihatidan ancha murakkab, shaklan rivojlangan, hajman keng va davomli, usullari xilma-xil, baland avjli, ijro uslublari va texnik vositalari mukammal bo'lgan asarlar (cholg'u kuylari va turkumlari). Cholg'u kuylari o'ziga xos mazmun, holat, kayfiyat, ohangdorlik, tasviriy va ta'sirchan mezonlari bilan huzurbaxsh ruhiy-ma'naviy ozuqa sifatida diqqatni jalb qiladi.

O'zbekiston musiqiy amaliyotida sozandalik san'ati oddiy musiqiy jarayon bo'lib qolmasdan, milliy ijrochilik an'analari asosida shakllandi va milliy-madaniy yuksalishini ta'minlashda muhim omil sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Birobarin, musiqasi san'atimizning bu turi shaklan va mazmunan boyigan o'zbek milliy cholg'ulari va mumtoz cholg'u musiqasining barcha ko'rinishlarini o'zida uyg'unlashtirgan badiiy (ijod va ijro) faoliyat natijasining ijobiy namunasidir.

Mumtoz yalla va ashula janrlari

O'zbek mumtoz musiqasini tashkil etuvchi aytim-xonandalik janrlari tarkibiga yalla va ashula kiradi. Har biri o'z mavqei, mazmuni, kuy-ohang tizimi, shakli va ijro uslubi bilan ajralib turadi.

Yalla keng tarqalgan qo'shiq-raqssimon janr bo'lib, ishqiy-lirik mazmuni bilan yakkanavoz (xonanda yoki yallachi tomonidan) cholg'u ansambli jo'rligida ijro etiladi. Mumtoz yallalar xalq yo'lidagi yallalarga nisbatan keng diapazonli rivojlangan kuy bilan farq qiladi. Xalq yallalari tor diapazonli bo'lib, uning she'rdagi har bir bandi va raqs harakatlari yakkaxon yallachi, naqorati esa guruh tomonidan cholg'u jo'rligi (ko'proq doyra yoki dutor)da aytilib kelingan. Jozibador va o'ynoqi xarakteridagi kuy hammani raqsga chorlaydi (yalla – bu «o'ynab-kuylash qo'shig'i» ma'nosini bildiradi). Yalla mumtoz she'ri va ijrochilik madaniyati rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy qilgan. Har bir yallada she'rlar bayti soni kuy va hajmiga mutanosib bo'lib, asarning kuy tuzilishi va shaklini (kuplet shakli) ta'minlaydi (she'r matni sifatida xalq so'zlari va o'zbek mumtoz va zamonaviy shoirlarining she'rlari qo'llanadi). Shu tufayli mumtoz yallalar ham jozibali, o'ynoqi xarakterda, o'ziga xos raqsboq o'lchovli ritm-usulda aytiladi. Raqsni esa qo'shiqchi-yallachi o'zi emas, balki alohida raqqosa (yoki raqqos) ijro etadi. Asarning ta'sirchanligi – hamma vositalarni bir-biri bilan chambarchas holda mahorat va xushkayfiyat bilan ijro etilishidadir. Bunday birlikni yallaning g'oyaviy-estetik mantiqi, asar obrazining ichki dunyosi hamda kuy-ohang, ritm-o'lchov, shakl va usul singari musiqiy-poetik vositalar keltirib chiqaradi.

Shu ma'noda Chokariy so'zi bilan aytiladigan «Mustahzod» yallasini ko'rib chiqamiz. Bu asar mavzusi muhabbat bo'lib, oshiqning ma'shuqaga nisbatan otashin sevgisi tavsifi yalla mazmunini tashkil etadi. Kuy jozibali xarakterda bo'lib, uning rivojlanishi muayyan ohang takroriga asoslanadi. Ancha davomli va ta'sirchan, usluban ufarsifat ohanglar bu asarda boshqa shakllantiruvchi vositalar qatori mohirona ishlatilganligini ko'ramiz. Ishaqiy-lirik yo'sindagi nafis hissiyotlarni ifoda etuvchi misralarni ijodkor o'ta hushyorlik hamda nozik did bilan, mazmuniga, kayfiyatiga monand ohanglar, usullar, sur'at, usul, cholg'u va yallaga xos bezaklari hamda raqsboq vositalar yordamida birmuncha murakkab musiqiy shaklda bayon etadi. Xuddi shu

holat «Qalam qoshliging» yallasida ham namoyon bo‘ladi. Yallada zuhur etilgan raqsbop holati musiqiy omillar vositasida yana ham yorqin tus olgan, uning jonli va raqsbop ufar usuli orqali o‘ziga xos aks ettirilgan. Yallaning jo‘rnovozligi boshidan oxirigacha xuddi shu zaylda kechadi.

Mumtoz va zamonaviy o‘zbek shoirlarining she‘rlari asosida vaznu ohangdoshlik xislatlarini yalla uslubiga tatbiq etishni «Surating», «Dog‘man», «O‘zingsan», «Ko‘chabog‘i 2», «Fig‘ondur», «Gulyor» kabi asarlarda kuzatish mumkin.

Yallalar hozirgi kunda ham tinglovchilarning qalbida nozik tuyg‘ular, hayajonli fazilatlar uyg‘otib, eshituvchi ommaning olqishiga sazovor bo‘lmoqda. O‘z kuyining rivojlanish uslubi va xarakteri jihatdan mumtoz yalla ashula janriga mos keladi.

«Ayrulmasun» mumtoz yallasi Muqimiy she‘ri bilan xalq orasida ommalashib ketgan, u sevimli yallalardan bo‘lib qolgan. Muqimiy she‘rlarining yashovchanligi — ularning yuksak badiiyliigi, chuqur g‘oyaviyligi va jozibadorligida.

Do‘stlar, hech kim meningdek yordin ayrilmasun,
Mehribon, munis o‘shal dildoridin ayrilmasun.

Ishqiy lirik mazmundagi she‘r matni asarning kuyiga mos tushgan, uning ohangi va ritmik asosi so‘zlarining nozik tabiatini, dilkashligini ta‘minlaydi. Yallaning asosiy kuyi ravon taraladi, tayanch pardalar esa davomli tovush cho‘zimlari orqali berilgan. Kuyning go‘zalligi, rivoj topishi, usul ravon harakati bilan avjga yetib borishi va umumiy holatni haqqoniy unsurlar ila boyitilgan badiiy tasvirlash uchun she‘r mazmuniga o‘ta hushyorlik bilan yondoshish asarning ko‘pgina xonandalar tomonidan talqin etilishiga olib kelgan va xalqimiz orasida juda keng tarqalganligidan dalolat beradi.

Ayrilmasun

Do‘st - - - lar

hech-kim me-ning - dek yor - din ay - ril - ma si - ney

Meh - ri - bon mu - nis o' - shal

dil - do - ri - din ay - ril - ma - su - ney.

Ashula — lirik xarakteridagi rivojlangan kuy va shakliga ega bo‘lgan aytim yo‘li. Ashula janri ham mumtoz musiqaning yetakchi janrlaridan bo‘lib, o‘zining kuy rivoji, vazmin lirik yoki og‘ir xarakteri, hayajoni va dardli mazmuni, diapazon kengligi, ritmning sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turadi. Aruz vaznida yozilgan g‘azal, ruboiy, muhammaslar ashula janrida keng qo‘llanib kelingan.



Falsafiy ma‘noga ega bo‘lgan, shuningdek, sog‘inch, alam, ayriliq va hasratni ifodalovchi ishqiylirik va ayrim nasihatgo‘y mazmun ko‘proq ashula mavzusiga xosdir. Ashulada so‘z va kuy uzviy bog‘liq, bu holat asarning butun mazmunini, mohiyatini tashkil etadi. Chunki undagi umumiy mantiqiy bog‘liqlik, vazn, qofiya, ohang, musiqiylik tinglovchida zavqshavq uyg‘otadi, hayajonli kayfiyat paydo qiladi.

O‘zbek mumtoz ashulachiligining shartli xususiyatlaridan biri uning kuy rivoji va shakli, mavzu va uslubiy ko‘rinishlari xilma-xilligidir. Har bir musiqiy janr o‘zining shakl tarkibi, xususiyatlari va ijrochilik an‘analariga ega. Shular orasida ashula juda keng tushunchaga ega bo‘lgan shakldir. Mumtoz ashulalar musiqiy matnining rivojlanishi hamda kuy tuzilmalarining nisbatan davomliroqligi va kengroq diapazonligi, baland avji mavjudligi bilan xalq ashulalaridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu tufayli ashula shaklidagi asar mumtoz va bastakorlik ijodiyotlarida keng o‘rin olgan, uning lokal variantlari mavjud,

jumladan, Buxoroda xalq ashula, Xorazmda suvora, naqsh deb yuritiladi. Bunday ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammalroq bo'lib, mumtoz musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi. Bu ashulalar yakka ijroda, cholg'u ansambli jo'rligida aytilib kelingan. Ularning rivojlanish jarayoni daromadidan boshlanib tobora avjlangan holda rivojlanadi. «Adolat tanovari», «Munojot», «Girya», «Ko'chabog'i», «Adashganman», «Qomating», «Kurd» kabi mumtoz ashulalar xonandalar repertuaridan mustahkam o'rin olgan.

«Tanovar» xalq va mumtoz ashula yo'llari xalqimiz orasida keng tarqalgan. Uning xalq yo'lidagi «Sumbula», «Qora soch», «Etdi sendek» variantlari dutor jo'rnavozligida talqin etilgan bo'lib, «Farg'onacha tanovar», «Toshkent tanovari», «Qo'qoncha tanovar», «Yo'vvoyi tanovar» kabi mumtoz ashula yo'llari ham ijod etilib, xalqimiz orasida ommalashib ketgan. «Tanovar» yo'llariga ko'pgina o'zbek bastakorlari va xonandalari yondoshgan holda uning noyob va o'zgacha ijod va ijro talqinlarini yaratilishiga muvaffaq bo'lishgan. Bu asar mazmunan, shaklan va o'zining kuychangligi, hayajonligi bilan ajralib turadi. Kuyning keng rivoji, ohanglar bezaklar bilan ko'proq boyitilishi, uning sadolanishi asarning ehtirosli, shirador va ta'sirchanligi tinglovchiga zavq va huzur baxsh etadi.

Tanovar

A-sil yo-ri-nge bo'l -
sa yo

«Tanovar»ning boshlang'ich ohanglari, mustasnosiz, o'rta pardalarda joylashgan bo'lib, ijro jarayonida asta-sekin rivojlanib (kuy diapazoni kengayib) boradi va avj qismida o'zining ta'sirchanlik holatiga olib keladi. Unda tinglovchining ham, ijrochining ham hayajonli bir tuyg'uni his etishiga va ikkiyoqlama xususiyat kasb etiladi. Umuman olganda, ashulaning har bir obrazi va har bir shakl tuzilmasi tarkibida o'z aksini topadi.

O'zbek mumtoz musiqasini tashkil etgan, badiiy barkamol, shaklan murakkab, usluban mukammal sifatleri bilan ta'riflanuvchi mumtoz ashulalar qatorida yana bir namunalari mavjud. Alohida musiqa asari sifatida ma'lum maqom sho'bbasi asosida yuzaga kelgan, yetuk hofizlar talqinida ma'lum va mashhur bo'lgan «maqom ashula yo'llari» ham mumtoz ashulachilik ijodiyotining mahsuli bo'lib, bular — «Samarqand ushshog'i» yoki «Hoji Abdulaziz ushshog'i», «Sodirxon hofiz ushshog'i», «Qadimiy ushshoq», «Toshkent ushshog'i» yoki «Mulla To'ychi ushshog'i», «Qo'qon irog'i», «Toshkent irog'i» va boshq.

Suvora janri o'zbek mumtoz musiqasi Xorazm vohasiga xos bo'lib (Farg'ona vodiysida ham suvoralar tarqalgan), o'ziga xos ashula yo'llari singari mumtoz she'riyat bilan bog'liq holda rivoj topib kelgan. Suvora shaklan va usluban ko'proq maqom ashula yo'llariga o'xshash, kuylarining nozikligi va kuychanligi, ohang rivojlanishi, davomli va baland avjlari, o'ziga xos barqaror doyra usuli, ovozga mos keluvchi tor cholg'usi jo'rnavozligi, muazzam umummusiqiy uslubiy tabiati, turkumli shaklning qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Suvoralar o'zining ohangdorligi va maqom ashula yo'llariga xos bo'lgan rivojlanish xususiyatlari bilan Xorazm maqomlarining ashula bo'limidan o'rin olgan. Suvoralar yakka yoki aytishuv (diyirilashma) ijro uslublarida keng tarqalgan. Aytishuvlarda bir kuy mazmunida va talqinida turli she'r matnlari ijro etiladi.

Suvora

Ho ko'n-gil shod o'l- di ul yor ul- fa-ti-din
ij-ti-nob ay-lab, men-ga meh-ru, va-fo-u, rahm shaf-qat be-hi-sob ay-lab.

Musiqa amaliyotida ashula (Tanovar I-V, Dilxiroj-Sinaxroj), Suvora (Suvora, Kajang suvora, Yakparda suvora, Xushparda suvora, Savti suvora) va yalla (Katta yalla, Kichik yalla) janrlaridan tashkil topgan turkumlar ham keng tarqalgan. Ashula va yalla janrlaridan iborat turkum («Yor istab» va «Mustahzod»)lar ham mavjud.

Katta ashula

O'zbek xalqining ko'p janrli mumtoz musiqa ijodiyotida **katta ashula** janri salmoqli o'rinni egallaydi. U yirik ashula janri bo'lib, asosan Farg'ona vodiysiga xos, ikki-to'rt ijrochi (hofiz) tomonidan cholg'u jo'rligisiz ijro etilgan. Katta ashula deb nomlanishiga sabab — bu ashulalar ochiq havoda, katta auditoriya orasida baland va kuchli ovoz bilan, keng diapazonda ijro etilishi va o'ziga xos katta mavzu va ijro uslubiga egaligidadir. Uni xalq orasida «patnis ashula» yoki «patnusaki ashula» deb ikkinchi nom bilan ham atashgan. Ashulani hofizlar qo'llariga patnis yoki likobcha (tarelka) ushlab,



ijro jarayonida ovoz yo'nalishini o'zgartirishga hamda o'z va hamnafasi ovozini tinglashga, uni silkitish orqali ovozni to'lqinlatib, qochirimlar qilishga yordam bergan. Bu ashulalar baland pardalarda ijro etiladi. Bundan tashqari, katta yig'inlarda, to'y-tomoshalarda,

mehmondorchiliklarda aytilishi tufayli ham ularga «katta ashula» nomi berilgan bo'lishi mumkin. Katta ashula ijrochidan zo'r qobiliyat va mahorat, shuningdek, so'z bo'g'inlariga e'tibor qilishni, she'rning ma'nosini va so'zlarini dona-dona talaffuz qilib, tinglovchilarga yetkazishni talab qiladi.

Katta ashula janrining asosiy xususiyatlari:

1. Bir vohada shakllanib, rivoj olishi (Farg'ona vodiysida);
2. O'ziga xos ijro uslubi — ikki (yoki uch-besh) xonandalar tomonidan cholg'u jo'rligisiz, galma-gal aytilishi;
3. Badihago'ylik (har bir xonanda ijrosida);
4. So'z va kuy mutanosibliigi;
5. Professionallik mahorat va qobiliyat mavjudligi (ijrochi professionallik talablariga javob berishi lozim);
6. So'z matnida noshe'riy bo'g'in va iboralardan (yor, voyey, jon, adomaney) keng foydalanish (ayniqsa, avj qismida);
7. Ta'sirchanlik;

8. Hamnafaslik (ovoz diapazoni, kuchi, balandligi, tembri, uslubi xonandalarda bir-biriga mos tushishi zarur);

9. Erkin talqin etish;

10. Ijro an'analarga bo'ysunish va rioya qilish.

Katta ashula o'rta asrlarda marosim va mehnat qo'shiq-aytimlari negizida, mumtoz she'riyat va xonandalik ijro madaniyatining rivojlanishi, mumtoz g'azallarni an'anaviy o'qish asosida yuzaga kelib rivojlandi. Uning o'tmishdagi namunalarida ishqiy-lirik g'azallar bilan bir qatorda, didaktik (nasihat), tasavvuf ruhidagi she'rlar ham kuylangan. Keyinchalik esa Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Amiriy, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa shoirlar she'rlari bilan aytila boshlangan. XX asrda zamonaviy o'zbek shoir (Xabibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, O'tkir Rashid, Erkin Vohidov va boshq.)lar she'rlari ham qo'llangan. Katta ashula taraqqiyotida masnaviy, ruboiy, muhammas, musaddas kabi poetik janrlar ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, bunga misol tariqasida Miskinning «Ey, dilbari jononim» she'rini keltirish mumkin:

Ey, dilbari jononim, ko'p nozu itob etma,
Yuz jabru jafu birla holimni xarob etma.

Mastona ko'zing birlan qoshing qilichin tortib,
Bir-biriga himo aylab, qatlimga xitob etma.

Aruz vaznida yozilgan bu g'azal tinglovchilarda zavqu-shavq, turfa ruhiy kechinmalar uyg'otib, poetik asarlarning katta ashula janri orqali xalq orasida keng tarqalishiga olib keldi. Musiqiylik — she'riyatning eng asosiy fazilatlaridan, deb bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham katta ashula yoki ashula deyilganda, xalqimiz nazarida musiqa asarlari namoyon bo'ladi, vaholanki, musiqa asarlarining o'zi ham mustaqil mazmunga ega va inson qalbining eng nozik his-tuyg'ularini ifoda eta oladigan san'at turlaridandir.

G'azallar xalqimizga mantiqan yetib borishida, ular bilan aytiladigan ashulalarning, ayniqsa, katta ashulaning xizmati juda katta bo'lgan (chunki, katta ashulada so'z kuy bilan bir uslubda «nafas» oladi). Ularda she'r va kuy bir-biriga shu qadar uyg'unlashib, bir-biriga singib ketganki, kuyning o'zini alohida eshitganda she'rni ham tinglayotgandek bo'lamiz.

Ey, sanam

Musical score for 'Ey, sanam' in 6/8 time, key of B-flat major. The score consists of two staves. The first staff has the lyrics: 'Ey. Ey, sa-nam, gul-gul yo-nib- san may i-chib rax-sho-mu-san.' The second staff has the lyrics: 'Ey, bar-qu-ro-dir yu-zing, hay-hay-mo-hi-to-bon-mu-san.'

Katta ashula mazmun jihatidan quyidagicha bo'linadi:

1. Falsafiy;
2. Ishqiy-lirik;
3. Didaktik;
4. Diniy;
5. Zamonaviy.

Hofizlar odatda she'r baytidan boshlang'ich birinchi-uchinchi misralarning har birini navbatma-navbat ijro etadilar. Boshlovchi birinchi misra bilan reja tashlasa, ikkinchi hofiz (agar ikki ijrochidan iborat bo'lsa), shu misrani takrorlaydi. Lekin kuy harakatiga u ayrim o'zgarishlar (variantlar) kiritadi. Keyingi misra bir parda balandroq, ikkala ijrochi tomonidan yana navbatma-navbat aytiladi. Avj qismi ham shunday uslubda yuqori pardalarda ijro etiladi. Har band (bayt)ning oxirgi misrasini tushirganda, goh misra boshidan, yoki misraning yarmidan ashula nihoyasiga yetkazilganda ikkala hofiz birga (unison tarzida) kuylab, ashula daromadini boshlovchi tashlab bergan reja darajasiga tushiriladi. Har bir kuplet shu asosda aytiladi. Navbatma-navbat ijro etish usuli hofizlarga ashulaning har qismi, ayniqsa, avj oldidan nafasni rostlab olishga, baland pardalarga qiynalmay chiqa olishga hamda yuqori avjga tayyorlanishga yordam beradi. Mohir hofiz avjini yuqori pardalarda, baland ovoz bilan ijro etishda hamnafasining ovoz imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Mahorat bilan ijro etilgan avj o'zining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Katta ashulaning kompozitsion tuzilishi to'rt tarkibiy qismdan iborat: daromad (boshlang'ich kuy tuzilmasi), o'rta avj (o'rta kuy tuzilmasi), avj (baland parda kuy tuzilmasi) va furovard (daromadga qaytish) yoki daromad-avj-furovard. Ba'zi katta ashulalar o'rta avj yoki katta (baland) avjdan ham boshlanishi mumkin. Bu holda ashula kuyi yuqori registrdan pastki registrga qarab tushib boradi.

Katta ashula kuylari rechitativ-kuychang tarzda bo'lib, uning kuy harakati bosqichma-bosqich, to'liqsimon holda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Sakramalar, peshrav yurishlar kuy tuzilmasida ham qo'llanadi. Erkin ritmik uslubda ijro etilgan katta ashulalarda kuy tuzilmasi bir nafasda, misra shaklida aytiladi. Shu tufayli katta ashula nota misollarida o'ltchov ishlatilmaydi.

Katta ashula ma'lum bir ohang yoki kuy bilan boshlanadi (bu asosiy kuy mavzusi) va bu kuy ashula davomida bir necha variantlarda ijro etiladi. Katta ashulaning shakllanishida «xang» (xonish, hirgoyi)lar juda katta ahamiyatga ega. Ular katta ashula kuyini kuychang holatga olib keladi.

Katta ashulaning xususiyatlaridan yana biri — bu janr ijrochiligida badihago'ylikdan keng foydalanishdir. Bu esa undagi rechitativ va ohangdorlikning bog'lanishini ta'minlaydi, ashulani rang-barang musiqa bezaklari va ichki qonuniyatlari bilan boyitadi. Cholg'usiz aytish katta ashulalarda ijro vaqtida badihago'ylik qilishga katta yordam beradi, shuning uchun ham ikki kishi aytgan katta ashula kuy tuzilishi va xarakteri, ritm va naqsh bezaklari (nola, qochirim) bilan ajralib turadi.


Chorgoh

Musical score for 'Chorgoh' in 2/4 time, key of D major. The score consists of three staves. The first staff has the lyrics: 'yo-ro'. The second staff has the lyrics: 'yo-rey Kuy-di yu-rak, bir'. The third staff has the lyrics: 'dil- ba-ri jo- no- na ish- qi-da yo-ro.'

Katta ashula janrining taraqqiyoti yo'lida uning janrlar tarkibi ham kengayib bordi. Katta ashulaning an'anaviy turidan tashqari (ikki hofiz tomonidan aytish) keyingi asrlarda uning turli xillari yuzaga kela boshladi. Xususan, katta ashula «yovvoyi maqom» — ayrim maqom sho'balari (Ushshoq, Chorgoh, Bayot, Segoh va h.k.) katta ashula yo'llarida jo'rsiz aytish; katta ashula «yakkaxonlik» — ashula-cholg'u yo'li (hofiz va cholg'u ansambli jo'rligida); katta ashulaning cholg'u yo'llari (nay, sumay, g'ijjak, tanbur va dutor uchun). Bu turlari XIX asrdan boshlab Farg'ona vodiysida keng tarqaldi.

«Yovvoyi maqom yo'llari» ikki uslubda aytilgan; birinchi uslubda maqom sho'basini ohangida tuzilgan kuy daromad va furovard qismlarida hofizlar tomonidan unison tarzidagi ritm-usulda ijro etiladi, avj qismi erkin ritmik holatda navbatma-navbat aytilgan. Ikkinchi uslubda maqom sho'balari katta ashulaning an'anaviy yo'lida (navbatma-navbat aytish) ijro etiladi. «Yovvoyi ushshoq», «Yovvoyi chorgoh» yoki «Patnisaki chorgoh», «Patnisaki segoh», «Yovvoyi bayot», «Yovvoyi munojot», «Yovvoyi tanovar», «Yovvoyi ushshoq» kabi katta ashulalar ushbu turga mansubdir.


Yovvoyi ushshoq



Katta ashulaning «yakkaxonlik» yoki ashula-cholg'u yo'li XX asrda Jo'raxon Sultonov tomonidan ijod etilgan. Bu katta ashula yo'lida cholg'u ansambli ikkinchi hofiz, hamnafas vazifasini bajaradi. Cholg'u ansambli boshlovchi kuy orqali reja tashlaydi, keyinchalik hofiz aytganda asosiy pardani ushlab (rez uslubida) turadi, hofizning ijrosi erkin uslubda, baland pardalarda namoyon bo'ladi, masalan, «Ohkim», «Guluzorim qani», «Jononim mening», «Hanuz», «Bir kelib ketsun». Ushbu yo'ldagi katta ashulalar turkum sifatida ham ijro etilgan — katta ashuladan keyin (ovozni rostlab olish uchun) yalla yoki ufar yo'lidagi asarlar aytilgan, jumladan, «Yor istab» va «Mustahzod», «Topmadim», «So'rmasan», «Namangan» va «Ey, sanam» va boshqa.

«Namangan» (Gavhar so'zi) katta ashula yo'li uch hofiz tomonidan navbatma-navbatma dilkash va nozik kuyida ijro etilib, erkin uslubda baland pardalarda namoyon bo'lsa; «Ey, sanam» (Mashrab she'ri) hofizlar tomonidan birga aytilib, ufar usuliga mos jozibali ohangda talqin etiladi.

Namangan



Katta ashulaning yakka cholg'uga mo'ljallangan cholg'u yo'llari, ya'ni «patnis cholg'u yo'llari» — mavjud bo'lgan ashulalarning cholg'ular uchun yaratilgan variantlaridir. Patnis cholg'u yo'llarining mavjudligi, katta ashula ohangining mustaqilligi, kuy mazmunining o'ziga xosligi, ta'sirchanligi, kuylarining keng diapazonligi, boy badiiy vositalarga ega ekanligidan dalolat beradi. Usulsiz chalinadigan nay, g'ijjak va tanbur yo'llari («Yovvoyi chorgoh») shakl, kuy rivoji va diapazon jihatidan ancha katta va keng bo'lsa, surnay yo'llari («Navo», «Yakkaxonlik», «Begi sulton») kichik, diapazoni ham torroqdir, dutor yo'llari («Yovvoyi tanovar») cholg'uning mavqei va imkoniyatlaridan kelib chiqqan.



Katta ashula janri XX asrda o'zgacha ohang, mavzu, yangicha uslub kasb etdi. Uning an'anaviy va yangi zamonaviy turlari yuzaga keldi, ijrochilik uslub ham o'zgardi. Xalq orasida «Bir kelsun», «Ko'p erdi», «Quling», «Adashganman», «Ohkim», «Ey, dilbari jononim», «Kanal», «Yovvoyi chorgoh», «Bo'ston», «Aziz dehqonlar», «O'zbekiston», «Mehnat ahli», «Qoyilman» kabi katta ashulalar hofizlar repertuaridan o'rin olgan.

Katta ashulaning rivojlanish jarayonida uning yirik ijrochilik maktablari shakllandi. Har biri o'z an'analari, ijro uslublari va

repertuari bilan ajralib turadi: Qo‘qon (Rahmonqul tiki, Xolqori, Hamroqul qori, Erka qori Karimov, Sherqo‘zi Boyqo‘ziyev, Abbas qori Boboyev, Meliqo‘zi Yusupov, O‘tamboy Sarimsoqov, Haydarali Hikmatov, Turdiali Ergashev, Rasul qori Mamadaliyev), Marg‘ilon (Mamatbuva Sattorov, Boltaboy Rajabov, Saidmuzaffar Azizov, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Solijon Hoshimov, Ibrohimjon Ishaqov, Musajon Orifjonov), Andijon (Odiljon Yusupov, Nabijon Saidnazarov, Jo‘rajon va Ergashvoy Yusupovlar, Fattohxon Mamadaliyev), Toshkent (Akbar qori Haydarov, Eshmat Haydarov, Ochilxon Otaxonov, Orif Alimahsumov, Orifxon Hotamov), Namangan ijrochilik maktablari va boshqalarning faoliyati katta ashulaning keng tarqalishiga muhim hissa qo‘shib, hozirgi kunlarda ularni saqlab, rivoj olishiga, yosh ijrochilarni tarbiyalashda, zamonaviy bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotlarida o‘rin egallashga imkon yaratmoqda.

Hamroqul qori To‘raqulov (1873-1943) – mashhur va mohir katta ashulachi, keng diapazonli tik ovoz sohibi, Qo‘qon ijrochilik maktabining yirik namoyondasi. Ko‘p yillar davomida o‘z ustozlari va hamnafasi, taniqli hofiz Xolqori bilan katta ashulalarni aytib kelgan. Shoirnafas, xotirasi o‘tkir, badihago‘ylik uslubining ustasi. Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Xislat she‘rlari bilan aytiladigan katta ashula («Bir kelib ketsun», «Kelibman dargohingga», «Muncha ham», «Ey, dilbari jononim», «Topmadim» va boshq.)lar repertuaridan o‘rin olgan. Shoir Haziniy bilan juda yaqin ijodiy va do‘stona aloqada bo‘lgan va uning she‘rlarini kuyga solib, katta ashula yo‘lida mohirlik bilan ijro etib kelgan. Hamroqul qori ijro etgan katta ashulalar 1907-yili Riganing «Grammofon» va «Pishushiy amur» firmalari tomonidan grammofon plastinkalarda yozib olingan. Qo‘qon va Toshkent katta ashula ijro maktablarining rivojiga katta hissa ko‘shgan.

Erka qori Karimov (1880-1954) – taniqli va sevimli hofiz, katta ashulachi va askiyachi. O‘zbekiston xalq hofizi (1937), Qo‘qon ijrochilik maktabining yirik namoyondasi. Kuchli va baland ovoz sohibi, ziyrak va o‘tkir xotiraga ega, mohir badihago‘y ustasi bo‘lgan. Ko‘proq qo‘qonlik shoir (Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Haziniy, Pisandiy)lar she‘rlari bilan aytiladigan katta ashula («Yolg‘iz», «Poshsho pirim», «Ey, chehrasi tobonim», «Yovvoyi Chorgoh», «Kanal» va boshq.)lar repertuaridan o‘rin olgan. 1937-yili Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbek adabiyoti va san‘ati dekadasida

katta ashulalar ijro etib, tinglovchilarni hayratda qoldirgan. Ko‘pgina yosh xonandalarga ustozlik qilgan. V.A. Uspenskiy tomonidan Erka qori Karimovdan qator katta ashula yo‘llari yozib olingan.

Mamadbuva Sattorov (1885-1969) – mashhur va mohir katta ashula ustasi, O‘zbekiston xalq hofizi (1939). Marg‘ilon ijrochilik maktabining yirik namoyondasi. Jarangdor va baland ovoz sohibi, o‘tkir xotira va badihago‘ylikka ega bo‘lgan. Katta ashulaning «yovvoyi maqom» uslubi mohir ijrochisi. Repertuarida an‘anaviy va zamonaviy katta ashula yo‘llari, ashula va yallalar o‘rin olgan («Ko‘p erdi», «Aylading», «So‘rmaysan», «Judo qilma», «Ul kun jonon», «Quling», «Adashganman», «Yovvoyi Chorgoh», «Patnusaki Segoh», «Yovvoyi Bayot», «Chapandozi gulyor», «Ey, dilbari jononim» va boshq.). Ustozlari va hamnafasi bo‘lmish, Boltaboy hofiz Rajabov bilan ko‘p yillar davomida katta ashula yo‘llarida kuylab kelgan. Ular ijrosidagi katta ashulalar San‘atshunoslik instituti fonotekasida saqlanib kelmoqda, gramplastinkalarda chop etilgan. Mamadbuva Sattorov o‘z shogirdlari Jo‘raxon Sultonov va Ma‘murjon Uzoqovlar bilan ham katta ashula, ashula va yallalarni ijro etib kelgan.

Jo‘raxon Sultonov (1903-1965) – taniqli hofiz, sozanda (tanbur) va bastakor, O‘zbekiston xalq hofizi (1939). Marg‘ilon ijrochilik maktabining yirik namoyondasi. O‘ziga xos kuchli va shirali ovoz sohibi, mohir sozanda, bilimdon ustoz, o‘tkir askiyachi va ijodkor-bastakordir. San‘atkorlar orasida «katta ashula piri» nomiga sazovor bo‘lgan. An‘anaviy va zamonaviy katta ashula yo‘llari repertuaridan o‘rin olgan («Yovvoyi Chorgoh», «Ohkim», «Bir kelsun», «Ey, dilbari jononim», «Bog‘aro», «Hanuz», «Bo‘lmish» va boshq.). Ashula-cholg‘u yo‘lidagi yakkaxonlik katta ashulalarni ijod etgan («Guluzorim qani», «Ohkim», «Hanuz», «O‘zbekistonda» va boshq.). J.Sultonovning o‘ttiz yillik ijodiy-ijrochilik faoliyati hamnafasi Ma‘murjon Uzoqov bilan bog‘langan holda o‘tdi va ular katta dovrug‘ qozonishdi. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, Xorazm suvorolari, ashula va yallalar ham hofiz tomonidan ijro etilib kelingan. Bastakorlik ijodiyoti ham sermahsul bo‘lib, sermazzmun qo‘shiq va ashulalar ijod etilgan. J.Sultonov ijro etgan «Naylayin», «O‘lmasun», «Hanuz», «Feruz», «Besh parda suvora», «Bormukin» va boshqalar haligacha tinglovchilarga zavq-shavq baxshida etmoqda.

Ma‘murjon Uzoqov (1904-1963) – taniqli hofiz va sozanda (dutor), O‘zbekiston xalq hofizi (1939). Marg‘ilon ijrochilik maktabining yirik namoyondasi. Keng diapazonli shirali, maftunkor

va dovudiy ovoz sohibi. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, katta ashula, ashula va yallalarning mohir ijrochisi. O'zbek ashulachilik san'atida o'ziga xos ijro uslubini yaratdi, o'z qo'shiq va yallalari bilan ijrochilik olamida yangi sahifa ochdi va chinakam dovrug' qozondi. J.Sultonov bilan ijodiy hamnafaslikda bo'lgan. M.Uzoqov ijro etib kelgan katta ashula («Hanuz», «Ohkim», «Bog'aro», «Yovvoyi Chorgoh», «Yolg'iz», «Yor istab» va boshq.), ashula («Otga mindim», «Mubtaloman, naylayin», «Ey, sabo», «Nasihah» va boshq.), maqom ashula yo'llari («Bayot 2-3», «Chorgoh», «Dugoh-Husayniy 4», «Feruz» va boshq.) va, ayniqsa, yalla («Surating», «Ko'zlaring», «Mustahzod», «Ayrulmasun», «Fig'onkim», «Sho'xi parivashga», «Yakka bu Farg'onada», «Aylasam», «Qalam qoshliging», «Sarvi qomat» va boshq.)lar musiqiy xazinamizdan mustahkam o'rin olgan. Hofiz ijro etgan har bir ashula yoki yalla shinavandalarga zo'r shodiyonalik bag'ishlab, hozir ham hamon qalblarni larzaga solib kelmoqda.

Katta ashula yo'llari xalqimiz orasida mumtoz musiqa merosimizning noyob boyligi sifatida yashayveradi va yangidan-yangi musiqa asarlarini yaratishda hayotbaxsh manbalardan biri bo'lib qoladi.

O'ZBEK DOSTONLARI

Doston — o'zbek xalqining qadimgi ma'naviy-madaniy va badiiy merosi, durdonasi bo'lib, uning asosini xalq hayoti va kurashi, orzu-umidlari tashkil etadi. Xalqqa xos insonparvarlik, vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, mehnatga muhabbat, do'stlik, sevgi va sadoqat kabi olijanob fazilatlar xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazida mujassamlangan. Doston — o'zbek mumtoz musiqasi yirik epik janri bo'lib, o'ziga xos mavqei, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dostonlarida epik tasvir, ko'pincha nasr (so'z) bilan, lirik kechinmalar she'r va musiqa orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham dostonlarning ahamiyati beqiyos va boqiydir. Ular asrlar osha shu kunlargacha saqlanib, yashab, yanada sayqal topib xalqimiz hayotida muhim o'rin egallab kelmoqda. Xalq ijodkorligi va donoligining bu nodir janri ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, xalqning asrlar davomida to'plagan tajribalari dostonlarning hikoya va she'riy misralari, nag'ma va aytimlarida badiiy ifoda etilgan.

Dunyodagi ayrim xalqlarda o'zining boy tarixiga oid yirik hajmdagi, katta qiziq-qiziq voqea va sarguzashtlarni hikoya, qissa qilish, maqtash «doston» so'zi ma'nosini anglatadi. Doston juda ulkan va murakkab, noyob xazina bo'lib, uning yaratilishi va sayqal topishida avlodlarning juda katta badiiy mehnati, iqtidori sarf bo'lgan. Xalq donishmandligining yorqin ifodasi bo'lgan bu obrazli ijod namunalari jamiyat va tabiat hodisalariga inson munosabatining musiqiy-poetik obrazi sifatida asrlar mobaynida sayqallanib kelgan. Shu tufayli insonning turli munosabat tomonlari dostonlarda o'z aksini topgan. Ushbu janrning yuzaga kelishi mifologiya, afsonalar, xalq ertaklari, qadimgi afsonaviy va tarixiy aytimlar mutanosibligida amalga oshgan.

O'zbekistonda xalq dostonchiligi, shuningdek, epik hikoya, doston janri (doston, qissa, hikoya, madhiya, qasida, sarguzasht

deb nomlangan holda) o'zining nasriy va nazmiy unsurlarini musiqa cholg'usi jo'rnavozligida qamrab olganligida namoyon etadi. Doston she'riy va nasriy parchalardan iborat matndan, aytim va cholg'u musiqasidan, doston aytuvchining xonandalik san'atidan va soz cherta bilishidan iborat. Shu bilan birga, dostonning bevosita tinglovchilar davrasida qaynab va ilhomga kirib, ijrochining tinglovchi bilan jonli muloqotda bo'lishi, badihago'ylik uslubiga tayanish doston ijrochiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa ham, hikoya va she'r kabi dostonchilikning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham hammualliflik dostonchilikda hamisha sayqal topib kelgan.

Dostonlarning paydo bo'lishining asosiy manbai xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayotidir. Ularning tili sodda, ifodali va ko'rkam, ular ko'plab so'z va she'r, musiqa va aytim kabi badiiy vositalari va ijro uslublari bilan diqqatga sazovordir. Dostonlar baxshilar tomonidan kuylanadi, demak, musiqiylik mavjud ekan, ushbu janr asrlar osha yashab keladi.

Dostonlarning yuzaga kelishida, saqlanib va rivoj olishida ijrochi-baxshi, dostonchi, shoir, jirov, yuzboshilar muhim o'rin egallaydi. Qadimgi zamonlarda «baxshi» so'zi xalqona usullar bilan bemorni davolovchi tabib, doyra yoki boshqa cholg'u chalib, afsungarlik aytimlari orqali kasal tanasidan yovuz ruhlarni quvadigan davolovchi (hozirgacha saqlanib kelayotgan «ko'ch», «qaytarma», «jahr» marosimlarida) — shaman-baxshi yoki shaman-folbinchi, shuningdek, ayrim hududlarda «ustoz» ma'nolarini anglatgan. Bugungi kunda bu so'z xalq dostonlarini kuylaydigan ijodkor-san'atkorni bildiradi. Baxshi cholg'u chertganida sozanda, she'riy parchalarni kuyga solib aytganda xonanda, matnlarni bir zumda to'qib ketadigan shoir, dostondagi hikoya parchalarini yoddan o'qiydigan so'z ustasi, harakat va mimika orqali ifodalovchi aktyor hamdir. Doston aytuvchisini turli hududlarda o'ziga xos shevasida: Xorazmda — dostonchi, baxshi yoki xalfa (ayol ijrochi); Qashqadaryo va Surxondaryoda — yuzboshi, baxshi, shoir; Samarqandda — baxshi, Xo'jand (Tojikiston) va O'sh (Qirg'iziston) viloyatlarida — soqiy yoki azanda, Farg'ona vodiysida (Namangan) — baxshi yoki sannovchi, Qoraqalpog'istonda — baksi va jirov deb aytishgan.

Dostonlarning mavzusi va shakllari asrlar davomida yuzaga kelgan an'analarga asoslanadi. Ular mavzu doirasi jihatidan juda keng bo'lib, vatanga sadoqat, qahramonlik, xalqning qudrati, ozod

mehnati, sevgi, do'stlik, tinchlik, hurlik, haqiqat, ishonch, umid, insoniylik kabi ezgulikni targ'ib qiladi. Badiiy asar sifatida yaxshilikni tasdiqlaydi, yomonlikni esa qoralaydi. Bu jihati bilan ular barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan umumbashar manfaatlarini yoqlaydi va hamdo'stlik xarakterini kasb etadi. Shuning uchun ham bir qator xalqlarning dostonlari mushtarakdir. Dostonlarda hikoya qilinadigan voqealar ma'lum bir qabila tomonidan chegaralanmagan; ularda hayot va turmush mulohazalari, oila munosabatlari va orzu-umidlari ifoda etib kelingan. Ozodlik va ona yurt, vatan uchun olib borilgan qahramonlik, hamrohlari yoki mahbubalarini qutqarish, chin sevgi, bosqinchilik yoki tahqirlashga qarshi kurashga chorlovchi, umuman olganda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ahillik, ezgulik kabi insoniy fazilatlar ulug'lanib, yovuzlik qoralanadi va ushbu mavzularni talqin etish dostonchilikning xususiyatlaridandir.

O'zbekistonda mavjud dostonlarni mavzusiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Qahramonlik-bahodirlik dostonlari;
2. Tarixiy dostonlar;
3. Romanik (sevgi haqidagi) dostonlar;
4. Diniy dostonlar.

Bulardan tashqari jangnoma, maishiy, zamonaviy va avtobiografik dostonlar ham amaliyotda mavjud.

Qahramonlik-bahodirlik dostonlari o'zbek xalqining ko'chmanchilik hayot kechirish sharoitida paydo bo'lgan. Bu dostonlarning qahramonlari albatta behisob kuch-quvvatga ega, vatanga, sevikli yoriga, xalqiga sadoqatli qilib tasvirlanadi. Shunday dostonlardan biri «Alpomish»dir. Doston qahramoni Alpomish nafaqat sehrlil kuchga ega, balki o'z yorini sevuvchi, shu yor uchun raqiblar bilan musobaqalarda mislsiz sadoqatli yordir. Uning sevgilisi Barchinoy haq-huquqsiz, kuchsiz, nimjon zaifa emas, balki kuch-quvvatda Alpomishga teng keladigan jasoratli, go'zal, qo'rqmas qizdir. Bu dostonning davomi ham bo'lib, Alpomish o'g'lining qahramonliklari va sarguzashtlari haqida so'zlovchi «Yodgor» dostoni yaratildi. O'z vatani, xalqi, ona yeri uchun dushmanlarga qarshi bo'lgan urushlarda ko'rsatgan mislsiz qahramonliklar to'g'risida so'zlaydigan dostonlar orasida «Go'ro'g'li», «Rustamxon», «Yusuf va Ahmad», «Alibek va Bolibek», «Sohibqiron» va qoraqalpoq dostoni «Qirq qiz» buning yorqin misolidir. Masalan, Yusufning Go'zalshoh huzurida o'z yurtini

maqtashi, asirdaligida turnalar orqali diyoriga salom yo'llashi; Alibekning o'zga mamlakatlarda bo'lganida Urganch elini qo'msashi epizodlari g'oyatda ta'sirlidir.

Tarixiy dostonlar nafaqat o'zbek xalqining, balki boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ham boshidan kechirgan tarixiy voqea va hodisalar, ayrim tarixiy shaxslar faoliyati asosida yaratilgan. Bunday dostonlar sirasiga «Shayboniyxon», «Tulumbiy», «Iskandarnoma» kabilar kiradi. «Shayboniyxon» dostonida epik voqelik yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega bo'lib, unda Shayboniyxonning Samarqand sultoni Bobur bilan bo'lgan kurashi haqida so'z yuritiladi.

Romantik dostonlar bu janrdagi asarlarning eng katta turidir; ularda sevgi, muhabbat, fantastika va afsona o'zaro chambarchas bog'lanib ketadi. Ko'tarinki ishq tuyg'ulari va bu yo'ldagi jasorat bu dostonlarning asosini tashkil etadi. Odatda qahramon g'oyibona oshiq bo'lgan go'zalni izlab safarga otlanadi, ajoyib-g'aroyib hodisalarni, mashaqqatli sarguzashtlarni boshidan kechiradi, g'ayritabiiy kuchlar bilan to'qnashadi, barcha qiyinchiliklarni engib, o'z maqsadiga erishadi. Bu dostonlar orasida «Tohir va Zuhra», «Kuntug'mish», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Shirin va Shakar», «Ravshan va Zulhumor», «Orzigul», «Qunduz va Yulduz» va boshqalar o'rin olgan.

Dostonchilik san'atida og'zaki epos asarlaridan tashqari yozma ravishda Sharqning mashhur yozuvchilarining ham asarlari ijro etilgan. Bu dostonlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Alisher Navoiyning «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi asarlari yozma adabiyotdagi kitobiy dostonlar deb hisoblanadi.

Hajman yirik bo'lgan dostonlar baxshilardan badihago'ylik va musiqiy-nazmiy qobiliyatni, o'qish-so'zlash va mahoratni talab etadi. Dostonlarning asosiy musiqa janri — **termadir**.

Terma so'z va kuydan tashkil topib, musiqa cholg'usi — do'mbira yoki qo'biz va cholg'u ansambli jo'mnavozligida aytiladi. Har bir dostonda 5 tadan 36 gacha kuy-ohanglar qo'llanadi. Doston kuylari «**nag'ma**», «**nola**» yoki «**nolish**» (ayrim joylarda «na'ma yoki noma») va «**baxshi kuy**» deb ataladi. Doston termalari o'z nomiga ega bo'lib, masalan, Surxondaryoda doston nag'malari Kelinoy nag'masi, Ko'ng'irod nag'masi, Go'ro'g'li nag'masi, Sarboz nag'masi, Ot haydash nag'masi va h.k.; Xorazmda — Eshvoy, Muhammad, Qora dali, Norin, Afg'on yo'li, Nola va h.k. deb nomlanadi. Musiqa terma janri orqali doston qahramonlarining ruhiy holatlarini ochib beruvchi

vosita sifatida dostonga yaxlitlik bag'ishlaydi. Har bir dostonda nag'ma yoki nola asar termalarini yangicha ohang, ritm va shakl bilan boyitib boradi. Mavjud ohanglar har bir she'riy matnda ularning mazmuniga qarab qo'llanadi. Bunday ohanglar doimiy tarzda turlicha talaffuz, tasnif, ritm, shakllar bilan yangilanib boradi. Natijada, lirik, quvnoq, raqsobop, ko'tarinki ruhdagi, jozibador xarakterdagi kuylar dostonlardan o'rin olgan. Baxshilar ijod jarayonida ommaviy xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylari ohanglari, masalan, «Yor-yor», «Alla», «Marsiya» kabi kuylardan foydalanishadi.

«Go'ro'g'li» dostonidan



Har bir dostonning muqaddimasi cholg'u kuyi ohanglari yordamida ochib beriladi. «Sayqal» va boshqa cholg'u kuylari odatda har bir aytim-terma namunalaridan keyin yoki oldin ijro etiladi. Baxshi dastlab «Qaysi dostondan aytayin» («Nima aytay», «Doston terish») termasi bilan tinglovchilarga murojaat etadi. So'ng tinglovchilarning xohishi yoki baxshining tanlashiga ko'ra biror doston ijro etiladi. Bunda baxshi o'zida va eshituvchilarda jiddiy mazmundagi musiqiy-poetik asarlarni kuylash va tinglash uchun kayfiyat hosil qiladi.

O'zbek dostonchilik san'atida ikkita asosiy ijro uslubi mavjud:

1. Rechitativ-deklamatsion — tomoq, ya'ni «bo'g'iq ovoz» aytimi. Mazkur aytim jarangsiz, xira bo'lib, u do'mbira yoki qo'biz jo'rliğida birmuncha jonli tus oladi (Samarqand, Qashqadaryo, Surxon-daryo, Namangan viloyatining Pop tumani).

2. Qo'shiqsimon-kuychang — cholg'u ansambli jo'rliğida (Xorazm vohasi) ijro etiladi. Ularda kuy tuzilishi, xarakteri va ritm-usul holatlari ancha rivojlangan. Ushbu musiqiy dostonlarda termaqo'shiq ijro tarzi turlicha bo'lib, u baxshining badiiy didi va mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Baxshi ijro jarayonida dostondagi har bir tasvirga mos so'z, she'r va kuy topib, avjga chiqq boradi, o'zlarining ta'biri bilan aytganda, «qaynaydi». Ayrim holatlarda u tinglovchilarga murojaat etib, ularning diqqatini o'ziga jalb qilib turadi. Doston avj nuqtalariga yetganda,

baxshining gavda harakatlari, boshini sarak-sarak qilishi, do‘mbira yoki cholg‘u ansamblini bir muvozanatda borib-kelishi kuy va she‘rga (ayrim holatda hikoya so‘ziga) qo‘shilib, yaxlit ritmik holatni yuzaga keltiradiki, har bir misra go‘yo otilib chiqqanday bo‘ladi.

O‘zbek xalq dostonlarining xazinadori, mashhur baxshi Ergash shoir Jumanbulbul o‘g‘li (1868-1937) xalq ijodiyotida zabardast baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li (1872-1955) bilan teng turadigan san‘atkordir. Agar Fozil Yo‘ldosh repertuaridagi dostonlarda qahramonlik eposining an‘analari ko‘proq o‘rin tutsa, Ergash shoir kuylagan asarlarda ishqiyy-romantik mavzular yetakchidir. Ergash shoir dostonchilik san‘atini badiiy jihatdan yuqori pog‘onaga ko‘tardi, epik badiiy mahorati, ajoyib obrazlar, hayotiy lavhalar yaratish san‘ati bilan boyitdi. Shu tufayli el orasida undan epik asarlarni g‘oyaviy-badiiy barkamol tarzda, sayqal berib kuylashni taqozo etar edi. Ergash shoir kuylagan xalq asarlari ichida «Go‘ro‘g‘li» turkumudagi «Ravshanxon» dostoni badiiy go‘zalligi, xalqchil ruhi, til boyligi, do‘mbirani nozik chalishi, termalarni o‘ziga xos mazmungan jozibador yoki mungli aytishi bilan ajralib turadi. Baxshining termalari o‘zining shirin zabonligi bilan tinglovchilarga shavq-zavq bag‘ishlaydi. Ergash shoir kuylagan boshqa xalq dostonlari qatori, «Ravshanxon»da ham umumbashariy fikrlar, sifatlar, ezgu niyatlar kishini to‘lqinlantiradigan darajada g‘oyat samimiy ifodalangan. Dostonda go‘zal Chambil yurtida voyaga yetgan Avaz, uning murabbiysi — elning karamli, muruvvatli sultoni dovyurak Go‘ro‘g‘li obrazlari yangicha jilo bilan sermazmun gavdalanadi. Ravshan va Zulhumorning muhabbati tasviri zamirida elimizning insoniy hurlik, tenglik, mehr-shafqat, odamiylik, do‘stlik va mardlik kabi olijanob fazilatlarini namoyon bo‘ladi.

Dostondagi qahramonning uzoq safarga jo‘nashi tinglovchilarga uning hayotga yo‘llanma olishi bo‘lib tuyuladi. Ergash shoir kuylagan Go‘ro‘g‘lining Ravshanga nasihatlarini xuddi xalqning tilidan aytilayotganday tuyulsa-da, uning nutqida otalarga xos kuyinchaklik, g‘amxo‘rlik, farzandiga bo‘lgan chuqur mehr-muhabbat yashirin ichki iztirob bilan bir butun holda aks etadi:

Paydo bo‘lding ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchding manzil xonadan.
Avval aytgan nasihatim, Ravshanjon,
Kechsang yomon bo‘lar ota-enadan.

O‘zingdan pastlarman har yo‘la ketma,
Bolam, aytgan nasihatim unutma.
Oldingdan kim chiqsa, besalom o‘tma,
Bir g‘aribni ko‘rsang, zinhor, og‘ritma...
Qo‘lingdan kelganda chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.
Nasihatim yod olib ol, yolg‘izim:
Yolg‘iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

«Ravshan» dostonidan




Bu pand-nasihatlar chuqur axloqiy mazmunga ega bo‘lib, unda mard yigitlarga xos eng yaxshi sifatlar eslatiladi. Bu nag‘ma ohangi so‘z mazmunidan chiqqan holda mardonavor va jo‘shqin xarakterida ifodasini topgan. Do‘mbira kuyi ravon ritmik uslubida keng rivoj olmagan, ammo so‘zdagi holat termaning aytim ijrosida ifodalangan.

«Ravshan» dostonida turli psixologik, iztirobli ruhiy holatlar ko‘p uchraydi, jumladan, qahramonning qon yig‘lab aytgan so‘zlarida Ravshanning o‘zini tarbiyalab o‘stirgan elatiga bo‘lgan chuqur hurmat va ehtiromi ifodalangan.

Yig‘lay-yig‘lay ado bo‘ldim,
Elatimdan judo bo‘ldim.
Chambilday elatimdan,
Ulug‘ arkon davlatimdan.

«Ravshan» dostonidan



Terma mungli, dardli ohang orqali (yig‘ilarga xos yaqin shaklida) qahramonning ruhiy holatini, g‘oyat tabiiy va ta‘sirchanli tasvirlaydi.



Dostonchilik san'atining tarixiy rivojlanish jarayonida o'ziga xos ijrochilik maktablari shakllanib kelgan. Har bir maktab dostonlar mavzusi va ijro uslubi, ijrochilar tarkibi va namoyandalari bilan ajralib turadi. O'zbekistonda Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud; har biri ijro uslubi va musiqasi bilan namoyon bo'ladi.

Samarqand dostonchilik maktabi (Bulung'ur, Jomboy, Nurota, Kattaqo'rg'on) qahramonlik-bahodirlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo'lgan. Dostonlar rechitativ-deklamatsion, tomoq uslubida do'mbira jo'rligida aytib kelingan. Har bir doston 5 tadan 10 tagacha takrorlanib turuvchi nag'malardan iborat bo'lgan. Kuylari kalta, kichik diapazonda. Ayrim holatlarda hikoyalar ham do'mbira jo'rligida ijro etilgan. Terma juda sodda, an'anaga bo'ysungan holda aytilib, asosiy urg'u she'riy va nazmiy matnlarga berilgan. Yirik namoyandalari – Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955), Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937), Po'lkani shoir (1874-1941), Islom shoir (1874-1956) Samarqand maktabi yuksak darajaga ko'tarilishiga katta hissa qo'shishgan. Ularning repertuarida «Alpomish», «Yodgor», «Kuntug'mish», «Avazxon», «Sohibqiron» kabi o'nlab dostonlar o'rin olgan. Hozirgi kunda ularning shogirdlari ushbu maktab an'alarini davom ettirib kelmoqdalar. Jumladan, O'zbekiston xalq baxshisi Ziyodulla baxshi Islom shoir o'g'li.

Qashqadaryo dostonchilik maktabi (G'uzor, Shahrisabz, Chiroqchi, Qamashi, Yakkabog', Dehqonobod) o'z repertuari

(aksariyat qahramonlik-bahodirlik dostonlaridan «Alpomish», «Avazxon», «Kuntug'mish», «Go'ro'g'li», «Erali va Sherali» va b.) va ijro uslubi bilan ajralib turadi. Bu maktab namoyandalari dostonlarni zavq bilan, sho'x, quvnoq, ko'tarinki ruhda aytishadi, nag'malari rechitativ tarzda yoqimli xarakterda ijro etib kelingan. Ushbu maktabga ham dostonlarni tomoq uslubida, do'mbira jo'rligida ijro etish xosdir. Har bir doston 15 tagacha terma musiqiy-poetik yo'lda aytilgan. Kuylari kalta, diapazoni kichik, ritm-o'Ichovi ravon. Xalq kuylaridan ham keng foydalanib kelingan. Yirik namoyandalardan – Abdulla shoir Nurali o'g'li (1874-1957), Xudoyqul baxshi Niyozov, Hamro shoir, Qodir baxshi Rahimov. Hozirgi kunda ularning shogirdlari O'zbekiston xalq baxshilari Shomurod baxshi Tog'ayev, Abduqahhor baxshi Rahimov va boshqalar ustozlari an'alarini davom ettirmoqdalar.

Surxondaryo dostonchilik maktabi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrlarda dong'i ketgan baxshichilik san'atining markazi bo'lgan. Bu davrda yashab, ijod etgan baxshilar Boysun-Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog'liqdir. Bu maktab namoyandalari nafaqat doston aytish, balki termachi va do'mbirachi sifatida ham mashhur bo'lishgan va ushbu an'ana hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Surxondaryo dostonchilik maktabi (Boysun, Sherobod, Qumqo'rg'on, Sho'rchi, Denov, Angor) voha musiqasi uslubining muhim qismi bo'lib, qahramonlik-bahodirlik dostonlar ijrosi asosiy o'rin egallaydi («Ravshan», «Go'ro'g'li», «Xondalli», «Alpomish», «Avazxon», «Kuntug'mish», «Oy parcha» va b.). Doston ijrochilarini Surxondaryoda baxshi yoki yuzboshi (juz boshi) deb atashadi. Ijro uslubi rechitativ, tomoq (ichki ovoz) an'alariga bo'ysungan, do'mbira jo'rligida ijro etiladi. Har bir doston termalari 10-15 ta nag'ma orqali aytib kelingan. Tantanavorlik, jozibali xarakterdagi ijro do'mbira kuylari bilan hamohangdir. Surxondaryoga xos bo'lgan «qo'ng'irotda nag'malar» ham dostonlarda qo'llanib kelingan. Yirik namoyandalari – Sherna baxshi Beknazar o'g'li (1855-1915), Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Ahmad yuzboshi, Chori yuzboshi, Xoliyor Abdunazarkarim o'g'li, Xushvaqt Mardonqulov, Muhammad baxshi Berdiqulov, ularning shogirdlari – O'zbekiston xalq baxshilari Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Boborayim Mamatmurodov va boshqalar. Surxondaryo vohasida «Go'ro'g'li» dostonining 32 ta varianti, «Alpomish» dostonining 40 ta varianti keng tarqalgan. Ushbu maktab vakillari tomonidan «Allanazar»,

«Olchinbek», «Oychinor», «Kelinoy», «Amir qochdi», «Ernazar», «Ulug'oy» kabi dostonlar ham ijod etilgan. Erkaklardan tashqari baxshi ayollar ham ushbu maktab namoyondalari bo'lishgan, ular orasida Izzatoy, Ulug'oy, Xanumoy, Qizsuluv va boshqalar bor.

Xorazm dostonchilik maktabi o'tmish davrlardan mashhur bo'lib kelgan. O'rta asrlarda Shimoliy baxshichilik maktabi nomini olgan. Hozirgi kunda Xorazm vohasi, Qoraqalpog'iston va Turkmanistonning Toshhovuz viloyatini qamrab olgan. Doston ijrochilari xalq orasida baxshi, dostonchi, jirov va xalfa (ayollar) nomi bilan yuritilgan. Ijro uslubi qo'shiqsimon-kuychang, cholg'u ansambli jo'rligida. Ansambl tarkibida – dutor, bulamon, g'ijjak, XX asrdan boshlab – tor, qo'shnay, doyra. Har bir dostonda 15 tadan to 36 tagacha musiqiy-poetik yo'llari mavjud bo'lgan, ular takrorlanmagan. Terma janridan tashqari Xorazm dostonchiligida qo'shiq, yalla va ashula janrlari ham o'rin olgan. Doston qo'shiqlari Xorazmda keng tarqalgan bo'lib, uning kuylari «nola» yoki «nolish» deb atalgan. Har bir nola o'z nomiga ega bo'lgan. Bu kuylar o'zining kuychanligi va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Qo'shiq asosiy janr sifatida gavdalanadi hamda u dostonning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va bu kuylar turli xarakterda (vazmin, lirik, quvnoq, o'ynoqi, raqsobop va h.k.) ijro etiladi. Shu tufayli Xorazm dostonlari jozibador, ko'tarinki ruhda, ta'sirchanlik bilan aytib kelingan.



Bola baxshi (Qurbonnazar)

Xorazm baxshichilik maktabi ikkita yetakchi – «Ironiy» deb ataluvchi shimoliy (Mang'it, Qo'ng'iroq) va «Shirvoni» (Xiva) maktabiga bo'linadi. Bu maktablar dostonlar repertuari, ijro uslubi va cholg'u ansambli tarkibi bilan farqlanadi. «Ironiy» baxshilari dostonlarni dutor va g'ijjak (yoki dutor, doyra) jo'rligida, «Shirvoni»lar esa dutor (tor), bulamon (yoki qo'shnay), g'ijjak va doyra jo'rligida ijro etishadi. Turli mavzudagi dostonlar (qahramonlik-bahodirlik, romantik) o'rin olgan. Xorazm dostonlarining yorqin, jarangdor qo'shiqchiligi va musiqiy talaffuz – shevasi ularning ma'lum

qismlarining alohida qo'shiq sifatida keng tarqalishiga imkon berdi.

Xorazmdagi o'zbek dostonchilik san'ati boshqa maktablarga mansub baxshilar uslubidan farq qiladi. Bu yerda so'z badihago'yiligi asosiy rol o'ynamaydi, so'z yoki she'r matni tom ma'noda variant sifatida berilmaydi, musiqa (kuy va aytm) yetakchilik qiladi. Ijro jarayonida dostonchilar yozma manbalardan ham foydalanishadi. Xorazmda dostonlarni baxshining bir o'zi yakka ijro etishi bilan birga, ansambl ijrochiligi ham keng tarqalgan. Bunda uch-besh kishidan iborat ustoz baxshi rahbarligida ijrochilar ansambli tuziladi. Dostonni ustoz dutorda («Ironiy» maktabiga xos) yoki torda («Shirvoni» maktabida) boshlaydi, qolganlari unga g'ijjak va bulamon bilan jo'r bo'lishadi (XX asrdan boshlab ushbu ansambl tarkibiga ko'shnay va doyra kirib keldi). Ansambl jo'rnavozligi doston kuy-ohanglari (nola) xilma-xilligini va turli xarakterini ta'minlaydi. Dostonning har bir qo'shig'i muayyan nola (na'ma)da ijro etiladi. Har bir qo'shiq-terma o'zining nomidan tashqari, kuy tuzilishi, rivoji, shakli, lad va usullari bilan ajralib turadi. Ushbu nuqtai nazardan Xorazm baxshilari professionallik mahoratiga ega bo'lgan mohir qo'shiqchilar sifatida ham tanilgan.

«Oshiq G'arib» dostonidan

O-g'o-lar, tun ke-cha a-rab shir-von- dan o-g'o-lar, tun
ke-cha a-rab, shir-von- dan bir yor sav-do-
si- na yo- ray tush-dim-da gal- dim.

Xorazm dostonchiligi repertuar tarkibi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. «Go'ro'g'li» dostoni va uning 100 dan ortiq variant-dostonlari keng tarqalgan, boshqa maktablarga xos bo'lgan «Alpomish» qahramonlik dostoni uchramaydi. Xorazmda yetakchi o'rin egallagan ishqiy-romantik dostonlarning aksariyati o'lkamizning boshqa hududlarida mavjud emas.

Xorazmda erkak baxshilar bilan bir qatorda ayol baxshilar ham faol bo'lib, o'tmishda ular faqat ayollar davrasida kuylashgan.

Ayollar ijrosidagi dostonlar his-hayajonga boyligi va qalbga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ularning repertuarida «Tohir va Zuhra» singari romantik (ishqiy) dostonlar muhim o‘rin egallaydi. Doston qo‘shiq-lari garmon (qo‘l sozi) va doyradan iborat cholg‘u ansambli jo‘rligida ijro etilgan. Yirik namoyandalari – O‘zbekiston xalq baxshisi Bola baxshi (Qurbonnazar) Abdullayev (1899-1994), Xudoybergan Utegenov, hozirgi kunda – O‘zbekiston xalq baxshilari Abdulla (Norbek baxshi) Qurbonnazarov, Qalandar baxshi Normatov va boshqalar.

Qoraqalpog‘iston dostonchiligi ikkita yetakchi maktabdan iborat – baksi (dutor va g‘ijjak jo‘rligida, qo‘shiqsimon uslubda) va jirov (qo‘biz jo‘rligida rechitativ «ichki ovoz» uslubida).

O‘zbekistonda ayrim xususiyatlari bilan ajratib o‘tilgan baxshichilik maktablari qanchalik o‘ziga xoslik kasb etmasin, ularda umum-o‘zbek dostonchilik an‘analari yetakchilik qiladi. Barcha o‘ziga xosliklar, lokal xususiyatlar, ijrochilik uslub belgilari umumdostochilik an‘analari doirasida hayotiy va yashashga qobildir.

Baxshilarning oilaviy marosim va to‘y-tomoshalarga taklif etilishi o‘zbek dostonchilik san‘atining bugungi kunda ham ommaviy ekanligini bildiradi.

O‘zbekistonda dostonchilik san‘atining rivoj olishiga har ikki yilda o‘tkaziladigan xalq baxshilarining Respublika va 1999-yildan Termiz shahrida xalqaro miqyosdagi o‘tkazilayotgan baxshi-shoirlar va oqinlarning ko‘rik-tanlovlari azaliy zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bebaho xalq dostonlari o‘zbek mumtoz musiqasi xazinasining yetakchi janri bo‘lib qoladi.

O‘ZBEK MAQOMLARI

O‘zbek mumtoz musiqasida **maqom** janri yetakchi o‘rin egallab kelgan. Maqomlar juda qadim zamonlarda Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari musiqa madaniyatida mavjud bo‘lgan; yetuk sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va IX-X asrlarda rivojlanib, yangi vositalar bilan boyidi. «Maqom» so‘zi arabcha bo‘lib, «o‘rin», «joy», «bosqich», «daraja» kabi ma‘nolarni anglatadi. Bu so‘z adabiyot, tasavvuf ilmi va boshqa sohalarida ham keng iste‘mol etilgan bo‘lib, maxsus ibora sifatida aynan musiqa san‘atida eng ko‘p va xilma-xil ma‘nolarda ishlatiladi. Musiqada «**maqom**» deganda kuy tovushqatorining alohida bosqichlari – *parda* tuzilmalari (lad birliklari); *lad tizimlari*; alohida *musiqasi asari* (cholg‘u yoki ashula); *musiqasi turi* (janri) – cholg‘u va ashula asarlarini birlashtiruvchi katta-kichik *turkumli janr* deb tushunish kerak. Turli xalqlar madaniyatida «maqom» iborali asar va turkumlar mavjud: maqom (o‘zbek va tojiklarda), mug‘om (ozarbayjon), muqom (uyg‘urlar), dastgoh (eron), nu‘ba (mag‘rib) kabi iboralarning variantlari keng tarqalgan.

Maqom yirik turkum va asar janri sifatida mumtoz musiqa toifasiga kiradi. Musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan u o‘zining badiiy mukammalligi, kuy va shakl tuzilishlari, lad va usul tizimlari hamda ilmiy va amaliy asoslarining puxta ishlanganligi bilan farq qiladi.

Maqom musiqa, she‘riyat va raqs san‘atlarini mujassamlashtiruvchi mushtarak badiiy jarayon.

O‘zbekistonda maqom asarlari va turkumlari – ya‘ni **Buxoro «Shashmaqomi»**, **Xorazm maqomlari** va **Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari** turkumlari, shuningdek, uning lokal variantlari – Toshkent irog‘i, Qo‘qon irog‘i, Samarqand ushshog‘i, Farg‘ona «Surnay maqom yo‘llari», Xorazm «Dutor maqom turkumi», «Feruz» turkumi va boshqalar mavjud.

Maqomlar ko‘p asrlik tarixiy yo‘lga ega. U o‘ziga xos an‘analar hamda tizimlarga asoslangan, mahalliy uslublarning o‘zaro izchil

bog'lanishlaridan kelib chiqqan. Maqomlarning alohida uslublarining iboralaridan boshlab, o'ziga xos betakror xususiyatlarigacha bo'lgan tomonlari har bir muayyan tarixiy davrning badiiy-estetik g'oyalari ostida shakllanib kelgan. Ilk bor VII-VIII asrlarda xalq musiqasi negizi va mahalliy professional ijrochilik an'analarning rivoji yirik turkumli janrlar shakllanishiga olib keldi. Jumladan, Borbad ijodiga mansub «Xusravoniy» turkumi. IX-X asrlarda maqomsimon cholg'u va ashulacholg'u asar va turkumlar rivojlanadi. XI-XIII asrlardan boshlab to XVII asrgacha Yaqin va O'rta Sharqda «Duvozdaxmaqom» - 12 maqom turkumi keng tarqalib, musiqa amaliyotida qo'llanib keldi. Ushbu turkumga – Ushshoq (oshiqlar), Rost (to'g'ri, mos kelish), Navo (kuy, ohang), Busalik (atoqli ot – Abu Solihdan olingan), Hijoz (pasttekislik), Husayniy (kishi nomi), Isfahon (shaharga nisbat), Zirafkand yoki Kuchak (pastga sakrash, tushish va to'shak), Rahoviy (Rum shaharlaridan biri), Zangula (qo'ng'iroq, zang), Iroq (mamlakat nomiga nisbat), Buzurg (katta, ulug') kabi maqomlar, shuningdek, oltita ovoza (avaza, maqomlarga javob yoki nazira tarzida ishlatilgan, masalalan, Navro'z, Shahnoz va b.) va 24 ta sho'balalar (maqomlarning shoxobchalari, ular orasida Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Uzzol, Muhayyar, Sabo va b.) o'rin olgan¹.

XVIII asrda Buxoroda yangi turkum – «Shashmaqom» uzilkesil shakllandi. XIX asrda «Xorazm maqomlari» turkumi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari vujudga keladi. Keyinchalik «Shashmaqom» va boshqa turkumlar asosida maqom asarlarining yangi usublari va ko'rinishlari zamonaviy talqinda rivoj oladi. Umumiy tuzilishi va turkumlarga bo'linishi, nomlanishi jihatidan Buxoro va Xorazm maqomlari bir-biriga yaqin turadi. Farg'ona-Toshkent maqomlarining ikki yo'nalishi orasida ham uzviy aloqalar mavjud. Og'zaki tarzda tarqalib kelayotgan maqomlar XIX asrning 80-yillarida yozib olindi. «Xorazm maqomlari» turkumi, «Dutor maqom turkumlari» Komil Devoniy Xorazmiy tomonidan ixtiro etilgan tanburga moslangan o'n sakkiz chiziqli «tanbur chizig'i» notatsiyasi orqali yozib olinib, maqomlarni o'rganishda qimmatli manba sifatida qo'llanib keldi.

¹Manbalarga ko'ra, o'n ikki maqom yilning o'n ikki burji (oyi) bilan bog'liq ekani, 24 sho'ba esa kunning 24 soatiga bog'langan holda ishlangani haqida aytiladi. Har bir maqomning chalinish vaqti ham bir sutkaning 12 qismiga bo'lib ko'rsatilgan ekan. *Qarang:* Ishoq Rajabov. «Maqomlar masalasiga doir». Toshkent, 1963. 97-bet.

Maqomchilik san'ati qonuniyatlarini sharxlash, asoslash, musiqa nazariyasi va amaliyotiga oid masalalar IX asrdan boshlab «musiqiy risolalarda» o'z aksini topdi. Musiqa ilmi, jumladan, maqomchilik san'ati rivojiga Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi, Darvesh Ali Changiy kabi musiqa nazariyotchilari ulkan hissa qo'shganlar. Maqomlarni tartiblashda, muayyan tizimga tushirishda Urmaviy va Sheroziylarning (XIII asr) xizmatlari, ayniqsa, 12 maqom turkumi O'rta Osiyo, Xuroson, Ozarbayjon xalqlari musiqa madaniyati eng taraqqiy etgan davri musiqa ilmida va amaliyotida qo'llanib kelinganligi haqida ma'lumotlar qimmatlidir.

XX asrda maqomchilik san'ati rivojlanib, yetuk sozandayu xonandalar va bastakorlar ijodi va repertuarlaridan o'rin oldi. Ular zamonaviy nota yozuvlari orqali to'plamlar sifatida nashr etildi, ularni nazariy va amaliy o'zlashtirish ishlari amalga oshdi. 1923-yili Buxoroda «Shashmaqom» rus kompozitori va folklorshunos olimi V. A. Uspenskiy tomonidan atoqli maqomdon-ustozlar Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'anilardan yozib olindi va tarixda birinchi bor 1924-yili «Olti musiqali poema (Shashmaqom)» nomi bilan Moskvada chop etildi. 30-yillari V. Uspenskiy va V. Belyayevlar «Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari», E. Romanovskaya «Xorazm maqomlarining cholg'u yo'llari»ni notaga olib, nashr etishdi. 1950–61-yillari «Shashmaqom» to'liq ravishda 5 jildlik to'plam sifatida B. Fayzullayev, Sh. Sohibov va F. Shahobovlar yozuvlarida (V. Belyayev tahririda) Moskvada nashr qilindi (tojik tilida). 1959-yilda «Shashmaqom» Yunus Rajabiy yozuvida o'zbek tilida «O'zbek xalq musiqasi» antologiyasining V jildida (I. Akbarov tahriri ostida) chop etildi. «Xorazm maqomlari» Matniyoz Yusupov yozuvida «O'zbek xalq musiqasi» antologiyasining VI jildida nashrdan chiqdi (1958). 1966–1975-yillarda Yunus Rajabiy tomonidan qayta tayyorlangan va to'ldirilgan «Shashmaqom» nomli olti jilddan iborat to'plam (F. Karomatov tahriri ostida), «Xorazm maqomlari» esa 1978–1991-yillarda Matniyoz Yusupov tomonidan (I. Akbarov tahriri ostida) qayta nashrga tayyorlanib, uch jildlik beshta kitobdan iborat to'plam sifatida chop etildi.

Keyingi yillarda maqomlarni notaga olish borasida ishlar jadallashtirildi, jumladan, Buxoro «Shashmaqomi»ning bo'lim va qismlarini yozib olishda

Ari (Ariel) Boboxonov, Sulaymon Taxalov, Rahmatilla Inoyatovlar, «Xorazm maqomlari» tanbur chizig'i orqali yozib olingan variantlarini bevosita maqom amaliyoti bilan qiyoslab o'rganishda xorazmlik sozanda Ozod Bobonazarovning xizmati katta bo'ldi¹.

Yangi topilgan «Xazorasp nusxasi» ustida Urganch universitetida Botir Rahimov rahbarligida bir qancha malakali maqomchilar – Rustam Boltayev, Samandar Xudoyberganov, Matrasul Matyoqubovlar ilmiy-ijodiy izlanishlarini boshlaganlar va yangi nota yozuvlari nashrga tayyorlanmoqda.

Maqomlarni ilmiy tarixiy va nazariy o'rganish ishlari ham XX asrning 20-yillarida birin-ketin shakllandi. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li (Bekjon Rahmonov) va Muhammad Yusuf Devonzoda (Matyusuf Xarratov)larning «Xorazm musiqiy tarixchasi» (1925-yil, arab alifbosida), V. A. Uspenskiyning «O'zbeklarning klassik musiqasi» (1927), Abdurauf Fitratning «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» (1927-yil, arab alifbosida), G'ulom Zafariyning «O'zbek musiqasiga oid maqolalari va «Farg'ona-Toshkent ustozlarining shajarasi» («Alanga» jurnali, 1931-yil, № 1), Cho'ipon maqolalari, N.Mironovning «O'zbeklar musiqasi» va «O'zbeklar va boshqa O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati haqida ocherklar» (1931-yil) nomli kitoblari musiqashunoslik va maqomshunoslik tarixida yangi burilishning yuzaga kelganligidan dalolat beradi.

XX asrning 50–60-yillarida maqomchilik san'atini ilmiy va amaliy o'zlashtirilishida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi – bu borada Yunus Rajabiy, Matniyoz Yusupovlarning maqom yozuvlari nashr etildi. Va 1963-yilda Is'hoq Rajabovning «Maqomlar masalasiga doir» kitobi soha ilmiga yangicha asos soluvchi dastlabki tadqiqotlardan biri bo'ldi. Kitobda O'rta asr musiqiy risolalarida sharh etilgan nazariy masalalar bilan maqomlarning shakllanish va rivojlanish jarayoni, «Shashmaqom» va boshqa maqom turkumlari tuzilishi, ichki qonuniyatlari va ijrochilik asoslari batafsil tadqiq etildi.

70–80-yillarda maqomlar va umuman, o'zbek an'anaviy musiqasiga bo'lgan e'tibor osha boshladi: konservatoriyada «Sharq

¹Tanbur chizig'ida yozib olingan Xorazm maqomlarini Yevropa nota yozuviga ko'chirish ishlarini birinchi bo'lib V.Belyayev 1930–40-yillari boshlagan, keyinchalik bu ishni I.Akbarov davom ettirib, yettita qo'lyozma asosida matnning yig'ma variantini ishlab chiqdi (ushbu yozuvlar qo'lyozmalari San'atshunoslik instituti va O'zbekiston davlat konservatoriyasining kutubxonalarida saqlanmoqda). 80-yillarida Ozod Bobonazarov va Bozorboy O'rinovlar tomonidan «Xorazm maqomlari» jonli ijrolarga mos nota yozuvlari nashrga tayyorlandi.

musiqasi» kafedrasida ochilishi (1972), maqom ijrochilari tanlovlarining o'tkazilishi (1983), xalqaro miqyosda yirik ilmiy anjumanlar o'tkazilishi (Toshkent, 1975; Samarqand, 1978, 1983, 1987); maqomchilik sohasida tadqiqot mavzularining kengayishi (F.Karomatov, T.Vizgo, T.G'ofurbekov, O.Matyoqubov, A.Jumayev, R.Yunusov, R.Sultonova, Yu.Plaxov, O.Ibrohimov va boshq.), maqomlarning nazariy masalalari, mahalliy-lokal uslublari va o'zaro mintaqaviy munosabatlari, «Shashmaqom», Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqomlari ichki qonuniyatlari (kuy, lad, ritm, shakl, usul va h.k.) va ijrochilik uslublari ilmiy kitoblar va maqolalarda o'z aksini topdi.

Mustaqillik davri maqomchilik san'atiga, uni ilmiy va amaliy o'zlashtirishga e'tibor yanada kuchaydi. Birgina an'anaviy musiqa sohasida «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalining o'tkazilishi (Samarqand, 1997-yildan boshlab har ikki yilda), maqom ijrochilari va maqom ansambllari tanlovlari (Toshkent, 1991, 1995, 1999, 2004), havaskor maqom ansambllari (Shahrisabz, 1995; Marg'ilon, 2004; Urganch, 2006) ko'rik-tanlovlari; yirik ilmiy-amaliy anjumanlar, yangi nashrlar, jumladan, I.Rajabovning «Maqom asoslari» (T., 1992), R. Yunusovning «Maqomlar va mug'omlar» (T., 1992), O. Ibrohimovning «Maqom va makon» (T., 1996), R. Sultonovanning «Shashmaqom ashula qismlarining ritmikasi» (T., 1998), O. Matyoqubovning «Maqomot» (T., 2004), O.Ibrohimovning «Farg'ona-Toshkent maqomlari» (T., 2006), «Shashmaqom saboqlari» maqolalar to'plami (T., 2005) va boshqa nashrlar ma'naviy islohotlar yo'lida qo'yilayotgan ulkan odimlar ekanligining isbotlaridir. 2007-yili Ishoq Rajabovning «Maqomlar» nomli yirik risolasi YUNESKO tomonidan nashr etildi.

O'tmishda an'anaviy «ustoz-shogird» uslubi bo'yicha maqomchilik san'ati o'zlashtirilib kelingan bo'lsa, XX asrdan boshlab musiqa ta'lim muassasalarida an'anaviy ijrochilik, jumladan, maqomchilik san'ati uslublari o'zlashtirilib, yuzlab iqtidorli yosh maqom ijrochilari kashf etilmoqda.

2003-yil noyabr oyida «Shashmaqom» YUNESKO tomonidan «Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi» deb tan olinishi, ushbu noyob xalqimiz xazinasini nafaqat saqlash va himoya qilish, balki yanada rivojlanishi va yuksalishiga olib kelmoqda.

Shashmaqom

O'zbek mumtoz musiqasining mustahkam, buzilmas poydevori bo'lmish olti maqom – «**Shashmaqom**»dir. «Shashmaqom» XVIII asrgacha hali tugal shakllanmagan bo'lsa ham, uning shakllanish jarayoni ancha ilgari boshlanganligi tabiiydir. O'n ikki maqom – «Duvozdahmaqom» turkumi mukammalroq bo'lib, olti maqom turkumi – «Shashmaqom»ning yuzaga kelishida hal etuvchi ahamiyat kasb etgan. O'n ikki maqom Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida tahminan XI-XVII asrlarda yashagan bo'lsa, «Shashmaqom» XVIII asrda va, ayniqsa, XX asrda butun O'zbekiston va qardosh Tojikiston bo'ylab tarqaldi va har tomonlama rivoj topib, o'zining mukammal olti maqom – «Shashmaqom» shakli-shamoyiliga ega bo'ldi.

«Shashmaqom» olti maqomdan iborat turkum. Unga **Buzruk** (katta, ulug'), **Rost** (to'g'ri, haqqoniy), **Navo** (ohang, kuy), **Dugoh** (ikkinchi yoki ikki parda), **Segoh** (uch yoki uchinchi parda), **Iroq** (mamlakat nomi) maqomlari kiradi. Har bir maqom o'z navbatida juda katta hajmdagi turkum asarlar bo'lib, ularning har biri tarkibida tahminan 20 tadan 44 tagacha katta va kichik maqom yo'llari bor.

Har bir maqom ikki yirik bo'limdan iborat. Birinchisi – cholg'u bo'limi – «**Mushkilot**» (qiyinchiliklar) deb ataladi. Ikkinchisi – ashula bo'limi – «**Nasr**» (zafar, g'alaba, yordam) deb ataladi.



Viktor Uspenskiy Buxorolik maqom ustozlari bilan (1923).

Maqomlarning negizida asosan parda tuzilishi (lad, tuzuk), vazn hamda shakl qonuniyatlari birligi yotadi. Ularda avvalo muayyan ruhiy holat, u bilan bog'liq g'oya, mavzu va mazmun mumtoz darajada ifoda etilgan. Har bir maqomning mezonlari pardalar uyushmasi, ohang-kuy va vazn-usul tartibi bilan belgilangan. Maqomlarning ijro etilishida tanbur va doyra yetakchi cholg'ulardan hisoblangan. Shu tufayli har bir maqom to'rt torli tanbur cholg'usiga sozlanadi: **Buzruk**, **Dugoh**, **Segoh** va **Iroq** kvartaga (sol-re-sol-sol), **Rost** – kvintaga (sol-do-sol-sol), **Iroq** – sekundaga (sol-fa-sol-sol). Bu maqomning lad shaklini tashkil etishda yordam beradi. Har bir maqom o'z mavzui, ohang-kuyi, shakli va ijro uslubi-usuliga ega. Ularning birlamchi mezoni lad tuzilmasidir. Ishoq Rajabovning ta'riflashicha: «Shashmaqom olti turli pardalarga moslab olingan va olti xil ladga asoslangan kuy va ashulalar yig'indisidan iborat. Shashmaqomga kirgan maqom yo'llari, tanburning parda tuzilishiga moslashtirib olingan»¹.

«Shashmaqom» turkumining maqomlari to'la va yaxlit ijro etiladigan bo'lsa, avval ularning cholg'u yo'llari birin-ketin ijro etilib, keyin ashula bo'limi sho'balariga o'tiladi. Har bir maqomning cholg'u va ashula yo'llari faqatgina o'sha maqomlar lad asosi va badiiy-estetik ta'siri bilan xarakterlidir.

«Shashmaqom»ning cholg'u bo'limi

«Shashmaqom»ning **Mushkilot** bo'limini oltitadan o'ntagacha rang-barang cholg'u asarlar turkumi tashkil qiladi. Ulardan beshtasi asosiy, muqarrar qismlar bo'lib, qolganlari ularning variantlari yoki har bir maqomga xos mansub cholg'u qismlari ham uchraydi (maqomlarda har bir qism yoki sho'ba uchta ma'noda ishlatiladi: 1-mustaqil asar; 2-turkum qismi; 3-usul nomi). Mushkilotning asosiy qismlari – tasnif, tarje', gardun, muhammas va saqil.

¹Ishoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963. 126, 131-betlar.



Levicha hofiz

Ularning har bir kuy yo'llari mustaqil cholg'u qismlar hisoblanadi va o'zlariga mansub bo'lgan maqomlar nomi bilan qo'shib aytiladi. Masalan, Buzruk tasnifi, Rost garduni, Navo tarjei, Iroq muhammasi va h.k. «Shashmaqom»ning cholg'u yo'llari ohang va kuy tuzilishi jihatidan juda murakkab va puxta yaratilganligi bilan ajralib turadi.

Tasnif («ijod etilgan», «yaratilgan» ma'nosini bildiradi) – mushkilotning asosiy qismi, u maqomning bosh cholg'u qismi vazifasini o'taydi. «Shashmaqom»da 6 ta tasnif mavjud: Buzruk tasnifi, Rost tasnifi, Navo tasnifi, Dugoh tasnifi, Segoh tasnifi va Iroq tasniflari. Ular parda tuzilmalari, kuy mavzulari va xarakteri bilan o'ziga xos tarzda ajralib turadi. Masalan, Buzruk tasnifi tantanavor, ulug'vor; Rost tasnifi yoqimli kayfiyat baxsh etuvchi xarakterda. Tasniflarning doyra usuli zarblari va shakllari bir qolipda, uning ritm o'lchovi $\frac{2}{4}$, usuli asosan to'rt taktli.

Buzruk tasnifi

Tarji yoki tarje' (qaytarish, naqarot) – Mushkilot bo'limining ikkinchi asosiy bo'limi bo'lib, aksariyat shodiyona, tantanavor xarakterdagi kuylardir. Rost maqomidan tashqari hamma maqomlarda uchraydi. Tarje'ning kuy harakati bo'lakcha tasnifning mantiqiy davomi, lekin kuy rivoji, shakli va uslubi bir muncha farq qiladi. Usuli to'rt taktli (tasnifga o'xshash), o'lchovi $\frac{2}{4}$, sur'ati tezroq. Maqomlarda usul shakli ma'lum variantda uchraydi, masalan, Iroq tarje'i usuli besh taktli.

Navo tarje'si

Gardun (osmon, falak, taqdir – falak gardishi) – cholg'u bo'limining uchinchi asosiy qismi. U o'ziga xos murakkab kuy tuzilishi va rivoji, xarakteri, shakli va doyra usuliga ega. Gardun qismi faqat Iroq maqomida uchramaydi. «Shashmaqom» tarkibida Buzruk garduni, Rost garduni, Navo garduni, Dugoh garduni, Segoh garduni mavjud. Gardun doyra usuli murakkab – uch taktli $\frac{2}{4}$, $\frac{3}{4}$, $\frac{3}{4}$.

Dugoh garduni



Muhammas (beshlangan, beshlik) – asosiy qismlardan to‘rtinchisi bo‘lib, hamma maqomlarda mavjud. Muhammaslarning kuy mavzulari qayta ishlash, rivojlantirish, o‘ziga xos ohang va shakli bilan ajralib tursa, ularning doyra usullari hajman katta va murakkablanshgan deb hisoblanadi. Usul o‘lchovi $\frac{2}{4}$ bo‘lib, hajmi 16 takti, $\frac{4}{4}$ o‘lchovligi 8 takti tashkil etadi. Bu cholg‘u asarlar o‘tmishda eng mashhur maqom cholg‘u yo‘llaridan sanalgan, ularda kuy va usul mutanosibligi ancha mukammal va murakkab bo‘lgan. Undan tashqari, muhammaslarda bir-biriga o‘xshash ohang vositalari ko‘plab uchraydi. «Bunda u yoki bu kuy bo‘lagi turli maqomlarning ruhiga moslashtirib olinadi. Masalan, eshituvchiga ma‘lum bo‘lgan Ushshoq muhammasi («Rost» maqomidan) ohangi va kuyi variantlari Rost, Buzruk, Navo, Segoh va Iroq maqomlarida uchraydi»¹.

«Shashmaqom»da muhammaslar umumiy soni 16 ta, har bir maqomning mushkilot bo‘limi tarkibida asosiy qismdan tashqari navbatma-navbat kelishida ikkitadan to‘rttagacha muhammaslar uchraydi. Ba‘zi muhammaslar o‘z mualliflari nomi bilan yuritiladi: Nasrullovi, Husayniy, Hojixo‘ja, Mirza Hakim. Jumladan, «Buzruk» maqomi cholg‘u bo‘limida Buzruk muhammasi va Nasrullovi muhammasi ijro etiladi; «Dugoh» maqomi tarkibi Dugoh muhammasi, Chorgoh muhammasi, Hojixo‘ja muhammasi, Chorsarxona muhammasi mavjud.

Muhammasi Ushshoq



¹Ishoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963, 148-bet.



Muhammas kuylari o‘zining jozibadorligi, ta’sirchanligi, tinglovchiga oson yetib borishi bilan mashhurdir.

Saqil (og‘ir, vazmin, cho‘zilgan) – cholg‘u bo‘limining yakunlovchi qismi. Kuy mavzui o‘ziga xosligi, vazmin sur‘atda ijro etilishi va hajmi jihatdan eng katta va juda murakkab doyra usuliga ega bo‘lgani uchun, so‘ng ashula bo‘limining Saraxbor qismiga vazminroq, ravon o‘tishi bilan ta’riflanadi. «Shashmaqom» mushkilotlarida saqillarning bir nechta (bittadan to uchtagacha) namunalari oldinma-ketin ijro etiladi. Aksariyat saqillar muallif nomi bilan yuritiladi. Jumladan, «Buzruk» maqomi cholg‘u bo‘limida Sulton saqili; «Iroq» maqomida – Iroq saqili 1-2, Kalon saqili; «Dugoh» maqomida Ashkullo saqili, ular jami 9 ta. «Iroq» maqomi saqillari o‘z nomiga ega – Saqili Avval, Saqili duv-duv. Saqil doyra usuli: o‘lchovi $\frac{2}{4}$ – 24 taktli, $\frac{4}{4}$ – 12 taktli.

Ashkullo Saqili





«Shashmaqom»ning cholgʻu boʻlimlari tarkibi asosiy qismlardan tashqari har bir maqomga xos bastakorlik cholgʻu asarlari ham kirgan. Bular, jumladan, «Navo» maqomida Nagʻmai Oraz, «Dugoh»da — Dugoh peshravisi va Dugoh samoyisi, «Segoh»da — Hafifi Segoh asarlaridir. Ular oʻziga xos kuy harakati, ohangi, shakli va usullari bilan ajralib tursa ham, ularning birlamchi vositasi maʼlum maqomning lad tuzilmasiga mos kelishidir.

Mushkilot boʻlimi qismlarining kuy mavzulari oʻz xarakteri, doyra usuli oʻziga xoslik bilan ajralib tursa, ularning lad asoslari va asar shakli bir xilligi bilan xarakterlanadi. Asarlar «xona» va «bozgoʻy» asosida shakllanadi. «Xona» va «bozgoʻy» kuy tuzilmalari boʻlib, cholgʻu asarlari shakli ularning almashuvi asosida gavdalanadi. «Xona» (uy, xona) — asosiy kuy jumlasiga boʻlib, unda asarning asosiy mavzui va ohangi mujassamlangan va rivojlanish jarayonida u shaklan va mazmunan boyitib boriladi. Kuy oʻz harakati doirasida yuqoriga intilib, avjga tomon rivojlana boradi va asta-sekin oʻzining boshlangʻich pardasiga qaytadi. Shu tufayli, xonaning har bir kuy tuzilmasi son belgisi bilan belgilanadi — Xona 1, Xona 2 va h.k. (X_1 , X_2 , X_3 va h.k.). «Bozgoʻy» (qaytaruv) — kuy tuzilma boʻlib, xona mavzui-ohang asosida ifodalanadi va ijro jarayonida oʻzgarmaydigan shaklda muntazam takrorlanib (naqarotga oʻxshash) turadi. Cholgʻu asarlarida kuy xonalar bilan takomillashadi va mazmunan boyiydi, bozgoʻy esa takroriy jumlar kabi musiqiy fikrni yakunlab, umumlashtirib beradi. Demak, asar shakli xona va bozgoʻy kuy tuzilmalarining ketma-ket harakatidan shakllanadi. Kuyda qancha xona boʻlsa, shuncha bozgoʻy boʻladi. Masalan, Buzruk tasnifi toʻrt taktli xona jumlasidan boshlanib, bozgoʻyga oʻtadi (uning kuy tuzilmasi xona ohangiga asoslangan). Keyinchalik

xona rivojlanib boradi (asar shakli 8 ta xona va 8 ta bozgoʻydan iborat). Tasnif, Muhammad va Saqil qismlarida shakllar ketma-ket ifodalanuvchi xona va bozgoʻydan tuzilgan. Tarjeʼ qismlarida bir necha xonadan (masalan, X_1 , X_2 , X_3) keyin bozgoʻy kelishi mumkin. Gardun va ayrim tasnif qismlari bozgoʻydan boshlanib, xonaga oʻtadi. Ayrim qismlar shakli, masalan, Saqillar faqatgina xona kuy tuzilmalaridan iborat boʻlishi mumkin. Muhammad va Saqil qismlarida usuldan kelib chiqqan holda xona va bozgoʻy kuy tuzilmalari bir xil hajmda boʻladi (16 taktli va 24 taktli).

- «Buzruk» maqomi Mushkilot qismlari shakli quyidagicha:
Buzruk tasnifi: X_1 B X_2 B X_3 B X_4 B X_5 B X_6 B X_7 B X_8 B.
Buzruk tarjeʼi: X_1 X_2 X_3 B X_4 B X_5 B X_6 B X_7 B X_8 B.
Buzruk garduni: B X_1 X_2 B X_3 B X_4 B.
Buzruk muhammasi: X_1 B X_2 B X_3 B X_4 B.
Nasrullovi muhammasi: X_1 B X_2 B X_3 B.
Islimxon saqili: X_1 X_2 X_3 X_4 X_5 X_6 .
• Sulton saqili: X_1 B X_2 B X_3 B X_4 B.

Maqomlarning Mushkilot asarlari odatda yakkasoz yoki cholgʻu ansambli tarkibida ijro etiladi. Zamonaviy ijro uslubida xona birorta cholgʻu (yoki cholgʻular) tomonidan ijro etilsa, bozgoʻy — ansambl ijrosiga mansub. Mushkilot qismlaridan — tasnif, tarjeʼ, gardun turkum sifatida, aslida esa qismlar alohida asar sifatida ijro etilib kelinmoqda.

«Shashmaqom»ning Mushkilot boʻlimi toʻla hajmda XX asrning 80-yillari Toshkent davlat konservatoriyasida Abdurahim Hamidov rahbarligidagi talabalar maqom ansambli tomonidan gramplastinkalarga yozib olingan va nashr etilgan.

«Shashmaqom»ning ashula boʻlimi



Cholgʻu boʻlimidan keyin «Nasr» deb ataladigan ashula boʻlimi rang-barang, katta va kichik, sodda va murakkab ashula asarlar turkumidan tashkil topgan. Har bir maqom mazmuni, hajmi, shakli jihatlaridan turlicha boʻlgan ashula namunalaridan iborat. Ular shoʻba (boʻlim, asar), tarona, shoxobcha kabi iboralar bilan yuritiladi. Ashula boʻlimi ikki turkum — ikki guruh shoʻbalardan iborat. Birinchi guruhni tashkil etgan **Sarhbor**, **Talqin**, **Nasr** va **Ufarlar** «Shashmaqom» ashula boʻlimining asosiy ashula yoʻllaridan

hisoblanadi. Ikkinchi guruh shoʻbasiga — **Savt, Moʻgʻulchalar** va turli maqomlarning oʻziga xos boʻlgan baʼzi ashula yoʻllari kiradi. Har bir guruh tuzilishi, shakli va ijro uslublari boʻyicha bir-biridan farq qiladi. Ularning birlamchi vositasi soʻz va kuy mutanosibliigidir. Shu jihatdan Nasr boʻlimida Sharq mumtoz shoirlarining sheʼrlari soʻz matni sifatida qoʻllanadi. Ular oʻzbek va tojik tillari va shevasida talqin etiladi. Maqom ashula yoʻllarida aytilgan sheʼrlar — Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Zebuniso, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy, Munis, Avaz Oʻtar, Muqimiy, Furqat, Yusuf Saryomiy, Xurshid, Habibiy kabi shoirlarning lirik-ishqiy, falsafiy va didaktik mazmundagi gʻazallari va xalq sheʼriyatidan tashkil topgan. Maʼlum maqom yoʻliga turlicha mazmundagi sheʼrlar tushirib aytilgan.

Maqomlarning birinchi guruh shoʻbalariga Saraxbor, Talqin, Nasr, ularning taronalari hamda yakunlovchi Ufar qismlari kiradi. Bulardan tashqari, har bir maqomda unga mansub boʻlgan turkum tarkibiga kirgan ashula yoʻllari ham oʻrin olgan. Jumladan, «Buzruk» maqomida Nasrullovi, «Rost»da — Navroʻzi sabo, «Navo» va «Dugoh»larda — Husayniy va Oraz, «Segoh»da — Navroʻzi ajam va Navroʻzi Xoro.

Saraxbor (sar — bosh, axbor — xabar) — ashula boʻlimining yetakchi shoʻbasi, unda maqomning asosiy musiqiy mavzusi va lad tuzilmasi bayon etilgan. Saraxbor boshqa shoʻbalarga qaraganda eng yirik, murakkab va ijrosi mukammal ashula yoʻli boʻlib hisoblanadi. «Shashmaqom» turkumida oltita Saraxbor mavjud — Buzruk saraxbori, Rost saraxbori, Navo saraxbori, Dugoh saraxbori, Segoh saraxbori va Iroq saraxbori. Saraxborlar kuy rivoji, uning diapazoni kengligi (2-2,5 oktava), yuqori pardalarda avjlarning mavjudligi, xanglarning (maʼlum boʻgʻinni xonish qilish) ijro yetilishi, bezaklarning qoʻllanishi jihatidan ham maqom ashula yoʻllarining asoschisi hisoblanadi. Bu taʼsirli, jozibali, beqiyos ashulalarning salmogʻi, qolgan boshqa ashula qismlari (talqin, nasr, ufar)da ham davom etadi. Saraxbor usuli sodda va ravon: oʻlchovi 2/4 bir taktli vazmin surʼatda ijro etiladi.

Navo saraxbori



Talqin (nasihat) — ikkinchi asosiy shoʻba boʻlib, nasihatimiz gʻazallar bilan aytilgan. «Shashmaqom»ning «Iroq» maqomidan tashqari hamma maqomlarda mavjud. Talqinlar salmoqli, ulugʻvor va murakkab usuldagi ashula yoʻllaridir. Ular oʻzining kuy harakati, qiyofasi va yoʻnalishidagi xarakteri jihatidan **Nasr** (zafar, yordam) va **Ufarlar** bilan hamohangdir. Maqomlardagi Talqin, Nasr va Ufar shoʻbalarini shoxobchalar nomi bilan ataladi (Segoh va Iroqdan tashqari). Uzzol talqini — Uzzol nasri — Uzzol ufari (Buzruk maqomida); Ushshoq talqini — Ushshoq nasri — Ushshoq ufari (Rost maqomida); Bayot talqini — Bayot nasri — Bayot ufari (Navo maqomida); Chorgoh talqini — Chorgoh nasri — Chorgoh ufari (Dugoh maqomida); Segoh talqini — Segoh nasri — Segoh ufari (Segoh maqomida). Talqinning doyra usuli 3/8 3/4 yoki 3/4 3/8 oʻlchovda ikki taktli shaklda.

Uzzol talqini



Ushshoq nasri

A - gar gul - shan - g'a kir - sa savr
gul - ro' yim xi - rom ay - lab yu -
gur - gay sar - vu gul yuz mar - ha -
bo bir - la sa - lom ay - lab

Bayot ufori

O'r - ta nur el fur - qa - ting din nav - habun - yod. ay - la - sam,
qo'z - g'o' lur o - lam o' kur - mak - bir - la far -
yod ay - la - sa - mey Yem - ri - lur
bo - shim - g'a go' yo kim, fa lak g'am - xo - na - si o

Ayrim maqomlar tarkibida Nasr yo'llari ko'p sonni tashkil etuvchi sho'balardir. Ular har bir maqomda o'z nomi bilan yuritiladi – Nasrullohi (Buzruk maqomida), Navro'zi Sabo (Rost maqomida),

Orazi Navo va Husayniy Navo (Navo maqomida), Orazi Dugoh va Husayniy Dugoh (Dugoh maqomida), Navro'zi xoro, Navro'zi ajam (Segoh maqomida) va Iroq maqomida Muhayyari Iroq.

Birinchi guruh sho'balari o'zlaridan keyin ijro etiladigan **Tarona** (qo'shiq, kuy, ashula)larga ega. Ular ma'lum maqom yoki sho'balarning lad asosi va ohang-kuylari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, sho'balari oralarida joylashgan (Saraxbordani keyin 2–7 tarona, Talqin va Nasrlardan keyin 1–3 taronalar aytiladi). Taronalar xalq qo'shiqlariga yaqin, ular sho'balarni bir-biri bilan bog'lovchi vazifasini o'taydi (**suporishga** o'xshash) va guruh bo'lib ijro etilishi yetakchi hofizga dam olish uchun imkon tug'diradi.

Ikkinchi guruh sho'balari birinchi guruhdan tashkil topgan bo'lib, **Savt** va **Mo'g'ulcha** turkumlaridan iborat. Har biri qator shoxobchalardan – **talqincha**, **qashqarcha**, **soqiynoma** va **ufar** (ayrim sho'balarda **chapandoz** qismi ham uchraydi) lardan tashkil etilgan. Mo'g'ulcha Saraxborlardan tashkil topgan va shu tufayli maqomlar nomi bilan yuritiladi: Buzruk mo'g'ulchasi, Navo mo'g'ulchasi, Dugoh mo'g'ulchasi, Segoh mo'g'ulchasi. Savtlar ham 5 qismli turkum bo'lib (Savt va Mo'g'ulcha turkumlarida birinchi qism turkum nomi bilan ataladi), Talqin va Nasr sho'balari bilan chambarchas bog'liqdir. «Shashmaqom»da ular oltita va har biri o'z nomi bilan ataladi: Savti Sarvinoz («Buzruk» maqomida), Savti Ushshoq, Savti Sabo va Savti Kalon («Rost» maqomida), Savti Navo («Navo»da), Savti Chorgoh («Dugoh»da). Tarkiblari quyidagicha:

Buzruk mo'g'ulchasi

1. Buzruk mo'g'ulchasi
2. Buzruk mo'g'ulchasi talqinchasi
3. Buzruk mo'g'ulchasi qashqarchasi
4. Buzruk mo'g'ulchasi soqiynomasi
5. Buzruk mo'g'ulchasi ufari

Savti ushshoq

1. Savti ushshoq
2. Savti ushshoq chapandozi
3. Savti ushshoq qashqarchasi
4. Savti ushshoq soqiynomasi
5. Savti ushshoq ufari

Savt va Mo'g'ulcha turkumlaridan tashqari «Shashmaqom»da ikkinchi guruh tarkibiga boshqa turkumlar ham kirgan: Buzruk maqomida 5 qismli Iroqi Buxoro va Rok, Navoda – Mustahzodi Navo; Dugoh maqomida uch qismli «Oromijon» turkumi (Saraxbori Oromijon, Oromijon va Ufari Oromijon) va ikki qismli Qalandari va Samandari Dugoh.

Savti Ushshoq



Segoh mo'g'ulchasi



Ashula bo'limi asarlari *xat* asosida shakllanadi. Har bir xat kuy tuzilma bo'lib, cholg'u muqaddimasi, asosiy musiqiy-she'riy kuydan va xangdan iborat. Ashula kuyining tarkibiy qism-bo'laklari *daromad* (boshlang'ich kuy tuzilmasi), *miyonxat* (o'rta kuy jumlasini), *dunasr* (boshlang'ich kuy jumlasini yuqori pardalarda takrorlanishi), *avj* va *furovard* (daromadga qaytish) deb yuritiladi. Avj qismlarida namudlar va yuqori pardali *Zebopari* va *Avji turk* nomli avjlar qo'llaniladi. Har bir maqom sho'basida 2–3 namud va avjlar hofizlar tomonidan an'ana sifatida aytilib kelingan. **Namud**

(ko'rinish) – muayyan kuy yoki ashulaning ma'lum parchasini turli ashula yo'llari tarkibida avj sifatidagi ko'rinishidir¹, masalan, Ushshoq namudi «Rost» maqomi Ushshoq sho'basining asosiy kuy jumlasidan tashkil topgan. «Shashmaqom» turkumidagi namud va avjlar kuy yo'li jihatidan barqaror bo'lsa, lad va usul jihatidan o'zgaruvchidir. Ashula bo'limida asosiy ishlatiladigan namudlar:

1. Uzzol namudi.
2. Ushshoq namudi.
3. Navo namudi.
4. Bayot namudi.
5. Oraz namudi.
6. Dugoh namudi.
7. Segoh namudi.
8. Muhayyari Chorgoh namudi.

Namudlar turli tartibda ulanishi mumkin, masalan, Uzzol namudi – Muhayyari Chorgoh namudi; Segoh namudi – Ushshoq namudi – Turk avji; Zebopari avji – Muhayyari Chorgoh namudi. Buzruk saraxbori ijrosida Uzzol namudi va Muhayyari Chorgoh namudlari ishlatiladi.

Maqomlarda agar parda makon bo'lsa, usul (vazn) zamon omili, vaqt oqimining tartiblashuvidir. Kuylar orasida o'tadigan vaqt (maqom ilmida *igo'*) odatda, usul tushunchasida mujassamlanadi.² Parda hamda usullarga qarab maqom turkumlarining tarkibiy qismlari belgilanadi. Usul maqomlarda doyra yoki nog'ara cholg'ulari ijrosida jo'rnavozlik vazifasini bajaradi va shu tufayli kuy harakatining erkin oqimida, doyra usuli vazn qolipining saqlanib turishida muhim ahamiyatga ega. Usullar aslida kuy vaznidan kelib chiqadi. Maqomlar ijrosida cholg'u va ashula usullari mavjud. Har bir usul o'lchovi va zarbalar shaklidan iborat. «Shashmaqom» turkumida bir taktli usuldan (Saraxbor usuli) to 24 ta taktli usullar (Saqil usuli) qo'llaniladi. Har bir asar o'z usuliga ega. «Ustoz-shogird» an'anaviy maktabida ijrochilik ta'limoti odatda usullarni o'zlashtirishidan boshlangan. Har bir shogird avval ustoz yonida doyra chalib, usullarni o'rganganidan so'ng, maqomlarning lad tizimi, kuy yo'llari hamda so'z matnlarining nozik sifatlarini o'zlashtirgan.

¹ Ishoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963. 158-bet.

² Otanazar Matyoqubov. Maqomot. Toshkent, 2004. 159–193-betlar.

Buxoro va Samarqand an'anaviy ijrochilik madaniyatida avjlar aytish uslubiga katta e'tibor qaratib kelingan va ijrochi-hofizning mahorati ham shunga qarab baholangan.


Xorazm maqomlari

«Xorazm maqomlari» turkumi Xorazm an'anaviy musiqasining eng yirik namunasi, u XIX asrda shakllanib, keng rivojlangan. «Xorazm maqomlari» turkumi **Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh** maqomlaridan iborat bo'lib, har bir maqom o'z navbatida «Shashmaqom»ga o'xshash ikki bo'limdan iborat: cholg'u bo'limi — **Chertim yo'li yoki Mansur**; ashula bo'limi — **Aytm yo'li yoki Manzum** deb ataladi. Xorazm maqomlari «Shashmaqom» kabi ustoz-bastakorlar mahsulidir. Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xo'ja, Feruz, Komil, Muhammadrasul Mirzo, Matyoqub Xarratov va boshqalar maqomlarga yangi cholg'u qismlar bastalab, ularni shakllan va mazmunan boyitdilar. Kuy tuzilishi, lad asoslari saqlangan holda maqomlar Xorazmga xos musiqiy uslublarda ijro etilib kelingan. Buxoro maqomlari bilan qiyoslaganda Xorazm maqomlarida ba'zan ashula yo'llarining doyra usullari, kuy yo'llari ixchamlashtirilib olingan va biroz usul sur'ati tezlashtirilgan yoki soddalashtirilgan. Xorazm maqomlaridagi kuy yoki ashula yo'llarida namudlar eng katta o'zgarishlarga uchragan, «ularning o'rniga bastakorlar ijod etgan yangi avjlar ham kiritiladi»¹.

Xorazm maqomlarining chertim yo'li tarkibiga **Tanimaqom** (tasnif vazifasini bajaruvchi), **Tarje'**, **Gardun, Muhammas, Saqil** qismlaridan tashqari **Peshrav** va **Ufor** qismlari kirgan.

Xorazmga xos bo'lgan cholg'u asarlar — Sayri Gulshan, Zarbul futh, Fohitiy zarb (Potixa zarb), Xafif ham ayrim maqomlar tarkibiga kirgan. Asar shakllari xona va bozgo'y asosida tuzilgan. Doyra usullari sodd va yengil, ijro jarayonida o'zgarishlar kiritilishi mumkin.


Xorazm maqomlarining aytim-ashula yo'llari tarkibida sho'balari qatori — **Tanimaqom** (Saraxbor vazifasini bajaruvchi), **Talqin, Nasr, Ufor**, taronalar ham mavjud (faqatgina Tanimaqomdan keyin ijro etiladi). Ammo ularga turdosh bo'lgan Xorazmga xos Suvora, Naqsh, Faryod, Muqaddima kabi ashula yo'llari aytilib kelingan.



Matyoqub Xarratov



Matyusuf Xarratov



Hojixon Boltayev



Komiljon Otaniyozov

Xorazm «Rost» maqomi tarkibi quyidagicha:

Chertim yo'li
Tanimaqom Rost
Tarje'
Peshravi Gardun
Muhammas I-II

Aytm yo'li
Tanimaqom Rost
Taronalar
Suvora
Naqsh

¹Ishoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963. 253–254-betlar.

Ushshoq muhammasi
 Saqili vazmin
 Ufor


Talqin
 Faryod
 Sabo
 Ufor

Ushshoq muhammasi



«Xorazm maqomlari» turkumi o'ziga xos mahalliy maqom uslubi sifatida gavdalanadi. U ham Buxoro maqomlari singari mazmunan va usluban, shaklan va ijrochilik madaniyati jihatidan mustaqil ahamiyatga molikdir. Ushbu maqom turkumi vohta ijrochilik an'analari bo'yicha yakkanavozlik tarzida erkin va badihago'ylik ravishda aytilib, Xorazm hududida mashhur bo'lgan mumtoz shoirlar – Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Atoiy va boshqalarning she'rlaridan keng foydalanib kelingan.

Xorazm Segohi



Xorazm maqomlarining ashula (aytim) bo'limlari tarkibidagi sho'balari «Shashmaqom» yo'llarining ko'p jihatlarini asosan saqlab qolgan. Lekin so'nggi yillarda Xorazm ashula ijrochiligidagi o'ziga xos xususiyatlarga bog'liq holda, ba'zi ashula yo'llari tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketgan. Xorazm maqomlarining aytim yo'llari

sho'balarning ba'zi qismlari bizgacha yetib kelmagan (Iroq va Panjgoh maqomlarining faqatgina chertim yo'llari bizgacha saqlanib qolingan).

Maqomlar aytim bo'limlarining bosh sho'basini bo'lgan Saraxborlar Xorazmda maqomlar nomi bilan yuritilgan – maqomi Rost, maqomi Buzruk, maqomi Navo, maqomi Dugoh, maqomi Segoh; keyinchalik ularga Tanimaqom nomi berilgan. Tanimaqom Rost kuy tuzilishi «Shashmaqom»ning Rost Sarahbori ohanglaridan iborat bo'lsada, biroz o'zgartirilib ijro etiladi. Undagi xanglar va namudlar ham qisqartirilgan holatda ifoda etilgan. Rost Sarahborining uchta taronasi Xorazm maqomida terma, suvora va naqsh deb nomlanadi. Suvora yo'li Rost Sarahborining uchinchi va to'rtinchi taronalari asosida yaratilgan, Naqsh «Shashmaqom»ning Ushshoq Nasri sho'basining birinchi va ikkinchi taronalari asosida bo'lib, uning ma'lum ko'rinishi Xorazmda «Hanuz» nomi bilan mashhurdir.

Rost maqomi



Xorazm vohasida «Xorazm maqomlari» turkumidan tashqari besh qisimli «Feruz» ashula-cholg'u maqom turkumi, Dutor maqom turkumlari ham keng tarqalgan.

Xorazmda maqomchilik san'atini targ'ib etishda Muhammad Rahimxon Soniy, Komil Devoniy, Xudoybergan Muhrgan, Matyoqub Pozachi (Xarrat), Matpano Xudoyberganov, Madraim Sheroziy, Hojixon va Nurmuhammad Boltayevlar, Komiljon Otaniyozov, Ro'zmat Jumaniyozov, Ikrom Ibrohimovlarning xizmatlari juda katta va ahamiyatlidir.

Farg'ona-Toshkent maqomlari

O'zbek mumtoz musiqasida «Farg'ona-Toshkent maqomlari» yoki «Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari» maqomchilik san'atining yana bir asosiy turkumini tashkil etadi. Farg'ona vodiysida XIX-XX asrlarda

turkumli va turkumsiz ashula va cholg' u maqom yo' llari keng tarqalgan bo' lib, ular vo ha mumtoz musiqa merosida yetakchi o' rinlarni egallab, mahalliy ijrochilik an' analari bilan sug' orilgan. Katta va kichik turkumga ega bo' lgan Farg' ona-Toshkent maqom ashula va cholg' u yo' llari «Shashmaqom» tarkibidagi bir qator sho' 'ba



Mulla To'ychi
Toshmuhammedov



To'xtasin
Jalilov



Rasulqori
Mamadaliyev



Sultonxon
Hakimov



Viktor Uspenskiy va Shorahim Shoumarov

(saraxbor, savt), shoxobcha (qashqarcha, soqiynoma) va turkumlarga yaqindir (ularning kuy harakati, shakli, usullariga o' xshash).

Farg' ona-Toshkent maqomlari va maqom yo' llari 2, 3, 5 va 7 qismli turkumlarni tashkil etadi. Ularning har biri ma' lum shoxobchalarga ega hamda sonlar vositasi bilan bir-biridan ajratiladi.

Farg' ona-Toshkent maqomlari orasida yirik ashula turkumlari:

Bayot I–V, Chorgoh I–V, Gulyor-Shahnoz, Dugoh-Husayniy I–VII (ularning har bir qismi umumtartib soni raqamlari bilan belgilanadi, Gulyor-Shahnoz maqomidan tashqari), masalan, Bayot I, Bayot II, Bayot III, Bayot IV, Bayot V.

Yirik maqom cholg' u yo' llari orasida turkumli (yakkasoz yoki cholg' u ansambli ijrosida); Chorgoh I–V; Miskin I–VII, Nasrulloyi I–III, Navro' zi ajam taronalari I–III; Hojiniyoz I–II, surnay maqom yo' llari va b. Bulardan tashqari, alohida ashula va cholg' u maqom asarlari hamda yetuk sozanda va bastakorlar tomonidan Farg' ona vodiysiga xos bo' lgan ashula, katta ashula va cholg' u yo' llari asosida «Shashmaqom» ning sho' 'ba va shoxobchalari mutanosibligida yuzaga kelgan. Masalan, Yovvoyi Chorgoh, Yovvoyi Ushshoq, Yovvoyi tanovar (ashula va cholg' u yo' llari), Cho' li Iroq, Toshkent Irog' i, Qo' qon Irog' i, Samarqand yoki Hoji Abdulaziz ushshog' i, Toshkent yoki Mulla To'ychi ushshog' i, Xo' jand yoki Sodirxon hofiz ushshog' i va boshqalar.

Farg'ona-Toshkent maqomlari «Shashmaqom» ashula bo'limining sho'ba, shoxobcha va taronalarining ohang, usul va shakllari tarkibida shakllangan va ashula yo'lining harakati asosida rivoj topgan. Birinchi qism – Saraxbor negizida, ikkinchi qism – uning taronasi yoki nasr asosida, uchinchi qism – savt, to'rtinchi qism - qashqarcha va beshinchi qism – soqiynoma yoki ufar asosida.

Bayot, Chorgoh va Dugoh-Husayniy maqomlari «Shashmaqom»ning shu nomlar bilan atalgan sho'balari («Navo» va «Dugoh» maqomlari) asosida yaratilgan bo'lib, Gulyor-Shahnoz esa turli maqom sho'balari («Segoh» va «Rost» maqomlari) asosida yuzaga kelgan (ushbu maqomning beshta qismi o'z nomiga ega: Gulyor, Shahnoz, Chapandozi Gulyor, Ushshoq va Ufari Gulyor deb ataladi).

Gulyor-Shahnoz maqomi o'z tuzilishi jihatidan boshqa turkumlardan tubdan farq qiladi. Lekin Gulyor-Shahnozning shoxobchalari mazmunan va usluban ancha murakkab, original ashula maqom yo'llaridir. Ular jozibali, yoqimli ham ta'sirchan ohanglarga boy.


«Chorgoh» maqom turkumi besh qismli bo'lib, «Shashmaqom»ning Dugoh maqomi sho'balari asosida yaratilgan. Chorgoh 1 o'zining ulug'vorligi, yoqimlili bilan Dugoh saraxbori kuy shakli sifatida yuzaga kelgan; lekin kuy rivoji qisqartirilgan va unga ma'lum o'zgarishlar kiritilgan. Daromaddan avjga (Muhayyari Chorgoh namudi saqlangan) kuy yo'nalishi va harakati saraxborga o'xshash (doyra usuli, sur'ati, she'r vazni saqlangan). Chorgoh 2 tarona uslubida Chorgoh savti variantidir. Chorgoh 3 – Chorgoh savtisi asosida aytiladi, ammo uning doyra usuli va shakli soddalashtirilgan. Chorgoh 4 – Chorgoh savti qashqarchasi ko'rinishida bo'lib, kuy mavzui, shakli va doyra usuli saqlangan. Chorgoh 5 – ufor doyra usulida bo'lib, uning sur'ati ancha sustlashtirilgan. Lekin ijro uslubi o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Chorgoh maqomi turkumi vodiy ijro uslubiga moslashtirilgan holda «Shashmaqom» sho'balaridan qisqartirib olingan (kuy harakati va rivoji, xanglar ishlatilmasligi, avjlar qisqartirilishi yoki umuman tushirib qoldirilishi, usul variantlari qo'llanishi bilan ravshan bo'ladi).

Chorgoh




Chorgoh III



Farg'ona-Toshkent maqomlari an'anaviy ijrochiligida keng tarqalgan bo'lib, o'zbek bastakorlari tomonidan ularning yangi variantlari yuzaga kelgan, jumladan Chorgoh YI (ufar uslubida) va Dugoh Husayniy VII–VIII (ufor va suporish shakllarida) Yunus Rajabiy ijodiga mansub.

Dugoh Husayniy



So'nggi yillarda Farg'ona-Toshkent maqomlarining o'zbek bastakorlari tomonidan yangidan-yangi variantlari yaratilishi, ushbu maqomlarning yanada rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, besh qismli Nasrullovi (ashula va cholg'u) turkumi; Miskin cholg'u turkumi asosida Miskin ashula turkumi (yetti qismli),



Yunus va Risqi Rajabiy

Ushshoq asosida «Qadimgi ushshoq», «Zikri ushshoq», «Umrzoq Polvon ushshog'i» va boshqa asarlar taniqli xonanda va bastakor Fattohxon Mamadaliyev tomonidan ijro etilgan. Bulardan tashqari, xalq orasida Rasulqori ushshog'i, Orifxon ushshog'i, Fattohxon ushshog'i kabi asarlar ham keng tarqalgan.

Samarqand ushshog'i

Bi - yo ki zul - fi ka - ju chash - mi sur - ma - xo in jost
 Ni - go - hi gar - mu a - do
 (xo) ey dil - ra - bo in - jost (o)

Farg'ona-Toshkent maqomlarini targ'ib etishda Hoji Abdulazaz Abdurasulov, Sodirxon hofiz Bobosharipov, Yunus Rajabiy, Abduqodir Ismoilov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Imomjon Ikromov, Orifxon Hotamov, Rasulqori Mamadaliyev, Ochilxon Otaxonov, Abduhoshim Ismoilov, Mahmudjon Tojiboyev va boshqalar maqom yo'llarini yanada boyitish, yangi namunalarni ijod etishga katta hissa qo'shganlar.

«Shashmaqom» tarkibidagi maqomlar xususida Buzruk maqomi

«Shashmaqom» turkumining birinchi maqomi — **Buzruk** (katta, ulug') «12 maqom» turkumida asosiy maqomlardan biri bo'lib (Buzurg nomi bilan atalgan), ma'lum lad asosidagi kuy va ashulalarni birlashtirgan. «Shashmaqom»da mazmunan, shaklan va hajmi jihatidan katta maqomlar toifasiga kiradi. Uning tanbur sozlanishi kvarta (sol-re-sol-sol). Buzruk maqomi doriy va miksoliy «re» lad tovushqatorlariga mos keladi.

Buzruk maqomining cholg'u — **Mushkilot** — bo'limi 7 qismli bo'lib, unga: Buzruk tasnifi, Buzruk tarje'i, Buzruk garduni, Buzruk muhammasi, Nasrullovi muhammasi, Islimxon (Islimiy) saqili va Sulton saqili kiradi. Har biri o'z mavzui, kuy-ohang rivoji va harakati, shakli va usuli bilan ajralib turadi.

Buzruk tasnifi ohanglari mazkur maqomning bosh mavzusi sifatida uning boshqa qismlarida ham namoyon bo'ladi va ruhiy holatni gavdalandiradi. Buzruk maqomining hamma cholg'u yo'llari kuy tuzilishi jihatidan mukammal va betakror asarlar bo'lib, ohangdorligi va tantanavorligi bilan insonni maftun etadi.

Maqomning ashula — **Nasr** — bo'limi ikki guruh sho'balardan iborat. Birinchi guruh tarkibi: Buzruk saraxbori oltita taronasi bilan, Uzzol talqini taronasi bilan, Nasrullovi uchta taronasi bilan, Uzzol nasri va Uzzol ufori.

Buzruk saraxbori maqomning asosiy mavzui bilan bog'liq bo'lib, ulug'vor va tantanavor xarakterda gavdalanadi. Tuzilish jihatidan juda murakkab, yuksak mahoratni talab qiluvchi asardir. Saraxborga nisbatan taronalar kichik shakldagi yengil, ayrimlari xushchaqchaq qo'shiq yoki lirik ashula yo'llarida.

Uzzol talqini, Uzzol nasri va Uzzol ufori «12 maqom» turkumida ma'lum sho'ba bo'lib, uning lad asosi va kuy tuzilishi Buzrukka yaqin bo'lgani uchun uning tarkibiga kirib kelgan. Nasr yo'lidagi sho'balardan yana biri Nasrullovi (bastakor taxallusi) kuy ohanglari jihatidan farq qiladi. O'rta asarlarda u cholg'u va ashula yo'llaridan iborat alohida maqom hisoblanib, «Rohaviy» nomi bilan mashhur bo'lgan.

Buzruk maqomining ikkinchi guruh sho'balari to'rtta ashula turkumidan tashkil topgan, ularning tuzilishi quyidagicha: Mo'g'ulcha Buzruk (Saraxbor asosida), Savti Sarvinoz (Uzzol talqini

va Uzzol nasri negizida), Buxoro Iroqi (Iroq shoʻbasi asosida) va Rok (hindcha raga soʻzidan, Uygʻur muqomlari tarkibida ham Rok cholgʻu va ashula yoʻllari mavjud). Har bir turkum 5 qismli boʻlib, oʻz ichiga shoxobchalarni qamrab olgan: 1-qism — turkum nomi, 2—talqincha, 3—qashqarcha, 4—soqiynoma, 5—ufor. Rok turkumida talqincha oʻrniga Mustahzodi Rok qismi aytilgan. Oʻzbek anʼanaviy musiqasida Rok qashqarcha va ufari keng tarqalgan boʻlib, zamonaviy ijodiyot va ijrochilikda koʻp ishlatilgan.


Rost maqomi

«Shashmaqom turkumining ikkinchi maqomi — Rost, u oʻtmishda «12 maqom» tizimida yetakchi maqomlardan biri boʻlib, oʻziga xos lad asosi va kuy-ohangidan iborat boʻlgan. Ushbu maqomning ladiga juda koʻp kuy va ashulalar mos kelgani uchun «Rost» (mos keladigan, toʻgʻri tushadigan) deb nomlangan. Oʻtmish rivoyatlariga koʻra, Odam Atoning ayriliqdan chekkan nido-nolasi, «ohu-vohi» Rost maqomi pardalaridagi kuydan iborat ekan. Shuning uchun ham Rost maqomini «ummul advor», yaʼni «maqom lad doiralarning onasi» deb hisoblaganlar. Maqomning tanbur sozi kvinta (sol-do-sol-sol), asosiy lad tuzilmasi «do» miksolidiy tovushqatoriga toʻgʻri keladi.

Rost maqomi ikki yirik boʻlimdan iborat. Uning cholgʻu — *Mushkilot* — boʻlimi yaxlit holda birin-ketin ijro etiladi. Bu cholgʻu qismlari — Rost tasnifi, Rost garduni, Rost muhammasi, Ushshoq muhammasi, Panjgoh muhammasi, Vazmin saqili va Rag-rag saqili. Maqom tarkibidagi Panjgoh muhammasi boshqa muhammas qismlaridan ajralib turadi (kuy-ohang, tuzilishi va harakati bilan).

Ashula — *Nasr* — boʻlimi ikki guruh shoʻbalardan iborat boʻlib, uning negizini «12 maqom» tizimi tarkibidagi Ushshoq maqomi asosiy shoʻba sifatida ifoda etgan. Birinchi guruh ashula yoʻllari kuy mavzusi jihatidan xilma-xildir: Rost saraxbori toʻrtta taronasi bilan, Ushshoq talqini taronasi bilan, Ushshoq nasri ikkita taronasi bilan, Navroʻzi sabo va uning talqinchasi va Ushshoq ufori. Saraxborning cholgʻu muqaddimasida maqomning bosh mavzusi oʻz aksini topgan, uning ohangi keyinchalik boshqa qismlarida uchraydi. Juda vazmin va taʼsirchan xarakterda ifodalangan.

Ikkinchi guruh shoʻbalari uchta Savt turkumlaridan tashkil topgan: 5 qismli Ushshoq savtisi, Sabo savtisi va Kalon savti.



Oʻzbekiston xalq hofizlari:

H.Rajabiy, F.Mamadaliyev, O.Yusupov, O.Otaxonov

Ushshoq va Sabo savtlari birinchi guruh shoʻbalari bilan chambarchas bogʻliqdir, Kalon savtisi original kuy-ohangga ega, uning lad asosi maqom lad tuzilmasi bilan teng. Sabo savtisi Navroʻzi saboga taqlid qilinib ishlangan va qisqartirib olingan. Oʻtmishda «Navroʻz» ovozasi «12 maqom» tizimiga kirgan va bayramona kayfiyati bilan mashhur boʻlgan. Shu tufayli Rost maqomining kuy qiyofasi tinglovchiga oson yetib boradi. Bir tomondan insonda yuksak lirik kayfiyat uygʻotadi (Ushshoq), ajoyib manzaralarni tasvirlab, voqelikni musiqiy-badiiy vositalar bilan tushuntiradi. Ikkinchidan, bayramona kayfiyat ham paydo qiladi (Navroʻzi sabo).

Rost maqomi asosida Oʻzbek mumtoz musiqasida turli ashula va cholgʻu turkumlar (Ushshoq, Gulyor-Shahnoz, Surnay maqom yoʻllari) va asarlar (Yovvoyi Ushshoq, Samarqand va Qoʻqon ushshogʻi, Mulla Toʻychi va Sodirxon ushshogʻi va b.) yuzaga kelgan.

Navo maqomi

«Shashmaqom» turkumidagi uchinchi maqom — *Navodir*, oʻrta asrlarda mashhur maqom yoʻllaridan sanalgan. U oʻzining kuychanligi

va ohangdorligi, yoqimli «bulbul navosi»ga o'xshash kuyi bilan ajralib turadi. Afsonaga ko'ra, Navo maqomini Dovudiy nag'ma deb ham atashgan. «12 maqom» tizimining asosiy maqomlaridan biri hisoblangan. Tanbur sozlanishi sekunda (sol-fa-sol-sol), «re» eoliy – «fa» ioniy lad tovushqatorlariga mos keladi. Shu tufayli Navo maqomi yo'llari, ayniqsa, tanbur ijrosida va jo'rnavozligida to'laqonli va jozibali yangraydi. Chunki tanbur pardalarining moslab sozlanishi Navo maqomi kuylariga mos tushadi, uning jo'r torlari kuyga hamohang va hamsado qo'shimcha tovushlar vositasi bilan uyg'unlashib, kuyning ta'sirchanligini va yangroqligini ta'minlaydi, insonda eng nozik his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Navo maqomi cholg'u – *Mushkilot* – bo'limi sakkiz qismli turkumni tashkil etadi va unga Navo tasnifi, Navo tarje'i, Navo garduni, Nag'mai Oraz, Navo muhammasi, Bayot muhammasi, Husayniy muhammasi, Navo saqili deb nomlangan qismlar kiradi. Navoning cholg'u yo'llari xalq kuylariga yaqin bo'lib, insonda to'y-hashamlarda hosil bo'ladigan kayfiyatni uyg'otadi. Ularning usul sur'ati biroz tezlashgan bo'lib, surnay kuylaridek sadolanadi. Navo cholg'u yo'llarida asosiy kuy mavzui, maqomga xos ruhiy (hashamatlik) holat hamma qismlar bo'ylab saqlanib qoladi.

Navo maqomining ashula – *Nasr* bo'limi ikki guruh sho'balardan iborat. Birinchisi Navo saraxbori ikkita taronasi bilan, Bayot talqini taronasi bilan, Bayot nasri ikkita taronasi bilan, Orazi Navo uchta taronasi bilan, Husayniy Navo va yakunlovchi Bayot ufari sho'balardan tashkil topadi. Bularning hammasi mashhur ashula yo'llaridir.

Ikkinchi guruh sho'balari uchta turkumdan – Navo mo'g'ulchasi, Navo savti va Navo mustahzodlaridan iborat bo'lib, har biri 5 qismli shoxobchalarni o'z ichiga olgan. Ulug'vorlik va chuqur lirik hissiyot ashula yo'llarining xarakterini tasvirlaydi.

Navo mo'g'ulchasi ufari kuy rivoji va ijro uslubi boshqa mo'g'ulchalardagidan tubdan farq qiladi. U odatdagi o'zidan oldin kelgan ashula yo'llarini izidan yurmay, asosiy pardaga nisbatan olti parda baland boshlanadi va boshqa mo'g'ulcha shoxobchalari bo'ysungan umumiy qoidadan chetga chiqadi.

Navo maqomi asosida o'zbek mumtoz musiqasida bir necha cholg'u (jumladan, Navo surnay yo'llari, Bayot cholg'u yo'llari)

va ashula turkumlari va asarlari (jumladan, Bayot I–V turkumi, Sheroziy Bayoti I–V turkumi) yuzaga kelgan va keng tarqalgan.

Dugoh maqomi

Dugoh – «Shashmaqom» tarkibidagi to'rtinchi maqomdir, uning atamasi «ikki o'rin», «ikki parda» yoki «ikkinchi parda» ma'nolarini bildiradi. Dugoh ham cholg'u va ashula bo'limlaridan iborat. Tanbur sozlanishi kvarta (sol-re-sol-sol), asosiy lad tuzilmasi «re» miksolidiyga to'g'ri keladi.

Mushkilot turkumi boshqa maqomlarga qaraganda yirik – 10 qismli: Dugoh tasnifi, Dugoh tarje'i, Dugoh garduni, Dugoh peshravi, Dugoh samoyisi, Dugoh muhammasi, Hojixo'ja muhammasi, Chor sarxona muhammasi, Ashkullo saqili. Bu cholg'u asarlarining barchasi jozibali, ta'sirchan va dilkash xarakterga ega. Dugoh muhammasi, Chorgoh muhammasi, Ashkullo saqillari yetuk sozandalar va ansambllar repertuaridan o'rin olgan.

Dugoh maqomining ashula – *Nasr* – bo'limi ikki guruh sho'balardan iborat bo'lib, jozibali, ta'sirchan, dilkash va maftunkor ohang-kuylardan tashkil topgan. Ularning lad asoslari, kuy tuzilishi, harakati, doyra usullari, she'r vazni va o'lchovi, kuy mazmuniga mos bo'lganligi sababli tinglovchilarda yuksak badiiy-estetik zavq uyg'otadi. Birinchi guruh – Dugoh saraxbori to'rtta taronasi bilan, Chorgoh talqini taronasi bilan, Chorgoh nasri taronasi bilan, Orazi Dugoh uchta taronasi bilan, Husayniy Dugoh va Chorgoh ufarlaridan iborat.

Ikkinchi guruh sho'balari – Dugoh mo'g'ulchasi, Dugoh savtisi (besh qismli shoxobchalardan iborat), Qalandari va Samandari, Oromijon turkumi (tarkibida: Oromijon saraxbori, Oromijon va Oromijon ufari)dan tashkil topgan. Ular ham ta'sirli, ohanglarga boy, mungli, lekin ulug'vor yangraydigan ashula yo'llaridir. Samandari Dugoh xarakterlidir, uning ashula yo'li mos keladigan lad tuzilmasi ijro jarayonida o'zgarib turadi. Ushbu ashula yo'li boshqalarga qaraganda baland pardalarda ijro etiladi. Qalandari va Samandari Dugoh ashula yo'llari mo'g'ulchalarning boshqa shoxobchalaridan o'zining kuy tuzilishi va rivoji, tarkibiy vositalari va ijro talqinlari bilan butunlay ajralib turadi.

Dugoh maqomi asosida o'zbek mumtoz musiqasining ko'pgina ashula va cholg'u turkum asarlari bastakorlar va yetuk sozanda-

xonandalar tomonidan ijod etilgan, jumladan, Chorgoh I–VI, Dugoh Husayniy I–VII, Yovvoyi Chorgoh, Mushkiloti Dugoh va boshq.

Segoh maqomi

«Shashmaqom» turkumining beshinchi maqomi — **Segoh** (uch joy, uch parda, uchinchi parda). Tanbur sozi kvarta (sol-re-sol-sol), ayrim asarlarda kvintaga ham sozlanishi mumkin. XVII asrgacha ma'lum sho'baning nomi. Uning lad asosi «re» doriy va eoliydir. Ikki yirik bo'limdan iborat.

Mushkilot — cholg'u bo'limiga Segoh tasnifi, Segoh tarje'i, Segoh hafifi, Segoh garduni, Segoh muhammasi, Ajam muhammasi, Mirza Hakim muhammasi, Bastanigor muhammasi kiradi.

Maqomning **Nasr** bo'limi ikki guruh sho'badan iborat bo'lib, birinchisi mazmunan va shaklan nihoyatda mukammal. Unga Segoh saraxbori yettita taronasi bilan, Segoh talqini taronasi bilan, Segoh nasri taronasi bilan, Navro'zi xoro uchta taronasi bilan, Navro'zi ajam taronasi bilan va Segoh ufari kiradi.

Ikkinchi guruh sho'balari faqatgina bitta Segoh mo'g'ulchasi turkumi va uning beshta shoxobchalaridan iborat.

Iroq maqomi

«Shashmaqom» turkumi orasida oltinchi maqom — **Iroq** (mamlakat nomi) hajmi katta emas. Iroq maqomi juda qadim zamonlardan mashhur bo'lib, «12 maqom» tizimidan o'rin olgan.

Uning tanbur sozlanishi kvarta (sol-re-sol-sol), «lya» eoliy ladiga asoslangan.

Iroq maqomining cholg'u — **Mushkilot** — bo'limi Iroq tasnifi, Iroq tarje'i, Iroq muhammasi, Iroq saqili I–II, Kalon saqili qismlaridan iborat. Iroq tasnifi mazkur maqomning bosh kuy mavzusi sifatida uning ohanglari va ichki harakatlarini to'liq aks ettiradi hamda keng tarqalgan Iroq surnay yo'llarini ham eslatadi. Tasnif yo'li hajmi jihatidan ancha keng. Maqom tarkibidagi uchta Saqil yo'llari betakror ohanglardan tarkib topgan va kuylar mavzusi turlicha. Muhammad yoqimli, ta'sirchan va jozibador yangraydi, insonda nozik his-tuyg'ular uyg'otib, chuqur hayollarga yetaklaydi.

Iroq maqomining **Nasr** bo'limi faqatgina birinchi guruh sho'balaridan tashkil topgan. Ular — Iroq saraxbori oltita taronasi,

Muhayyari Iroq, Chambari Iroq va Iroq ufaridir. Ashula yo'llari orasida Muhayyari «nasr» usulidagi sho'ba bo'lib, Chambari «talqin» doyra usuliga mos. Saraxbor sho'basida juda murakkab ashula yo'li bo'lib, uning diapazoni juda keng (2,5 oktavani tashkil etadi), kuy tuzilishi va ijro uslubi murakkab.

O'zbek an'anaviy musiqasida Iroq maqomi yo'llari asosida juda ko'p kuy va ashulalar yaratilgan, jumladan, Cho'li Iroq, Surnay Irog'i, Toshkent Irog'i, Qo'qon Irog'i, Buxoro Irog'i va boshq.

MAQOM IJROCHILIGI USHLARI

Maqomlar — bastakorlik san'atining mahsulidir. U maqomchilikdagi boy tajribaga asoslangan holda yuzaga keldi. Keyingi ikki asrdan ko'proq o'tgan davr ichida bir sozanda-xonandadan ikkinchisiga og'zaki tarzda o'tib kelishi jarayonida maqomlar tobora juda katta o'zgarishlarga uchradi va bizgacha yetib keldi. Bu jarayon XIX asrda tuzilgan va maqomlarda aytilgan she'r to'plamlaridagi maqom va sho'balarning nomi, she'r o'lchovlarini, hozirgi maqom qismlari bilan solishtirilsa, yaqqol seziladi.

«Shashmaqom», «Xorazm maqomlari», «Farg'ona-Toshkent maqomlari» o'zbek mumtoz musiqa merosida juda katta o'rin tutadi. Maqom yo'llarida milliy va mahalliy musiqaning boy va rang-barang ohanglari, vazn xususiyatlari, doyra usullari va ashulalarda she'r matnlarini moslab tushira bilish qoidalariga bog'liq qator tomonlari mujassamlangan. Bu holat, ayniqsa, ijrochilik madaniyatida namoyon bo'ldi.

XX asrda maqom san'atining qadimiy o'choqlaridan bo'lmish Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg'ona va Toshkent ushblari umumlashtirilib, mushtarak an'ana sifatida ko'rilga boshlandi. O'tmishda «ustoz-shogird» an'analarga tayangan maqom ijrochiligi yangi vosita va ushblar orqali o'zlashtirilib kelinmoqda. Yangi ta'lim tizimida an'anaviy ijrochilik ushblari XX asrning 20-yillaridan Buxoro «Sharq musiqa maktabi»da, Samarqanddagi «Musiq va xoreografiya instituti»da, Xorazm va Farg'onalarda ochilgan ta'lim muassasalarida o'rganish va o'zlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Tarixiy shakllangan Buxoro, Xorazm, va Farg'ona-Toshkent maqom ijrochiligi an'analari Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Ma'rufjon Toshpo'latov, Abdurahmon Umarov, Abduqodir Ismoilov, Matyusuf Xarratov kabi yetuk ustozlar tomonidan yosh avlodga taqdim etildi. «Shashmaqom»ning ijro an'analari tinglash va ularni notaga olish ishlari O'zbekistonda 50-yillardan yangidan avj ola boshladi. Mazkur davrda maqom san'atini muntazam



Maqom ansambli

rivojlantirish, notaga olish va amalga joriy etish birinchi navbatda Yunus Rajabiy nomi bilan bog'liq. 1958-yilda O'zbekiston radiosi qoshida Yunus Rajabiy rahbarligida maxsus maqom ansambli tashkil etildi. Jamoaning dastlabki maqsadi Olti maqom turkumini to'raligicha radioning ovoz fondiga yozib olish edi. Bu ish oldin qog'ozga tushirilgan yozuvlarni amalga sinab ko'rish uchun ham o'ziga xos ijodiy laboratoriya vazifasini bajardi va bir butun ilmiy-amaliy jarayonda matnlar va ijro darajasi takomillashib bordi. Ushbu maqsad sari O'zbekistonning yetuk maqom ijrochilari va iste'dodli yoshlar jalb etilib, natijada qisqa vaqt ichida maqom yo'llari qaytadan notaga olinib, «Shashmaqom» nomi bilan olti kitob holiga keltirildi. Matnlarga mos ijrolar paydo bo'ldi va ular yigirmadan ortiq gramplastinkadan iborat audio yozuvlar tariqasida chop etildi.

Yu. Rajabiy ishlari o'zining keng ko'lami tufayli «Shashmaqom» va «Farg'ona-Toshkent maqomlari» taraqqiyotining ma'lum davrini belgilovchi muhim tarixiy hujjatga aylandi. Xorazmda bu ishlarni Matyusuf Xarratov, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov va Ro'zmat Jumaniyozovlar amalga oshirishdi.

Maqomchilik san'atida ijrochilik katta ahamiyat kasb etgan. Maqomlar o'tmishda yetuk sozanda va xonandalar tomonidan ijro etilib, ular maxsus malaka hosil qilgan bo'lishi («ustoz-shogird» maktabini o'tgan va ma'lum talablarga javob berishi), maqomlar ijro an'analari yuksak darajada egallagan bo'lishlari lozim edi. Sozanda mohir cholg'uchi bo'lishi, xonanda-hofiz ashula yo'llarini



Risqi Rajabiy



Faxriddin Sodiqov



Maqom ansamblining hofizlari

puxta va chiroyli ijro etishi uchun kuchli va baland, keng diapazonli ovozga ega bo'lishi, she'riyat qonuniyatlarini bilishi lozim bo'lgan. Hofiz kuy va unga aytiladigan she'r mazmunini his qila bilishi, uni tinglovchiga yuksak mahorat bilan to'g'ri yetkaza olishi zarur. Shu tufayli maqom yo'llarini har tomonlama yuksak-badiiy saviyada talqin etilishi talab etilgan. Maqom yo'llari ijrochiligida hofiz keng diapazon, yoqimli ovoz va yuksak aytish mahorati,

sozanda cholg'uni mohirona sadolanishi, hofizga jo'rnavoz bo'lishi va yuksak chalish texnikasiga ega bo'lishi shart.

Maqomlarni tanbur jo'rligida ijro etish alohida uslubdir. Ovozning tanburga moslashuvi maqom turkumlarini mukammal (barcha parda va usul jihatlarini me'yoriga yetkazib), mukammal va muhtasham tarzda aytilishiga olib keladi. Tanbur bunda faqat jo'r sozi emas, balki asosiy muhim ijro vositasi va hofizga «hamnafas» o'rnida keladi (Levi Boboxonov, Shonazar Sohibov, Matyoqub Xarratov, Shorahim Shoumarov, Jo'raxon Sultonov, Rasul qori Mamadaliyev, Fattohxon Mamadaliyev, Shoqosim Shojalilov, Orifxon Hotamovlar singari hofizlar bir vaqtda mohir sozanda – tanbur sozini mukammal bilgan san'atkorlar). Tanbur bilan aytilganda cholg'u kuylari davomida nafasni rostlab, biroz dam olish mumkin. Ijro jarayonida hofiz uzoq muddat ashula aytishi, bir yarim-ikki soatga boradigan maqom turkumining tarkibiy qismlarini ketma-ket payvand etib, uzmasdan bir butun badiiy asar sifatida talqin etishga erishadi. O'zbekiston xalq artisti Berta Dovidovaning ijodini Turg'un Alimatovning tanbur jo'rnavozligisiz tasavvuf etib bo'lmaydi. Mashhur Levi Boboxonov «Shashmaqom»ni yakka, hofiz tarzida turkum qilib, uzmasdan tanburni o'zi chalib aytgan va yuksak mahoratga ega bo'lgan. Rasul qori Mamadaliyev ijrochilik uslubida tanbur yetakchi o'rin egallab kelgan. San'atkor cholg'uni o'zlashtirishdagi mahorati hofizligidan kam bo'lmagan va maqomlarni erkin talqin etishda mohirlikka erishgan (Rasul qorining tanburni ishlashi, unda barmoqlarini va noxunni ishlatilishi va ijrosi, birorta sozandaning uslubiga o'xshamaydigan, o'ziga xoslik soz va ovoz birlikligi bilan ajralib turadi).


«Shashmaqom» ijrochiligida an'anaga bo'ysunish, qat'iy cholg'u va ashula yo'llarini to'liq, yuksak mahorat, kuy qochirimlari va, ayniqsa, namud va avjlar ijro etilishi talab qilingan. Buxoro ijrochilik uslubida she'r va kuy mutanosibligida musiqiy shevasi yuzaga kelgan. Buxoro hofizlari ikki tillik (o'zbek va tojik) shevalar asosida maqomlarini aytib kelishgan. Ashula yo'llari tanbur, dutor, doyra jo'rnavozligida ijro etilgan. Cholg'u yo'llari yakkasoz va cholg'u ansambli jo'rligida namoyon bo'lgan. «Shashmaqom» ikki uslubda ijro etilib kelingan: to'liq turkum sifatida va alohida, mustaqil cholg'u va ashula-cholg'u asarlari sifatida cholg'u ansambli jo'rnavozligida. Abdurauf Fitrat ta'riflashicha: cholg'u ansambli tarkibida ikkita tanbur, dutor, qo'biz yoki sato, doyra bo'lgan. Ushbu ansambl ikki-uch hofizlarga jo'rnavozlik qilgan. Ikki-uch soat davom etadigan bu

murakkab musiqa asarlar turkumi hofizlar tomonidan galma-gal aytilib kelingan. Turkum va yakka asar holda ijro etish uslublarining mavjudligi «Shashmaqom» shoʻbalarida talqin usullarini turlicha oʻzgarishlariga olib keldi. Viktor Uspenskiy Buxoro maqomdon ustalarini yozib olish jarayonida ularning ijrochiligida ayrim oʻzgarishlar mavjudligi haqida maʼlumot bergan. Buxoro sanʼatkorlari ijodida anʼanaga qatʼiyan boʻysunish asosiy omil sifatida qabul qilingan.


Xorazm va Fargʻona-Toshkent maqomlari ham tanbur va dutor joʻrligida ijro etilgan. XX asardan boshlab Xorazm maqomlari tor va doyra joʻrligida aytilib kelindi. Buxoro maqomlarini ijro etishda yetuk xonanda-hofizlar yakkanavoz uslubida asosiy shoʻbalarini aytib, taronalar ansambl uslubida ijro etilgan. Ular ijro jarayonida anʼanaga qatʼiy rioya qilishlari lozim edi. Xorazm maqomlari va Fargʻona-Toshkent maqomlari mahalliy ijro anʼanalari va uslublarida, yakkanavoz tarzda (ayrim holatlarda erkin, badihagoʻylik uslublarida) ijro etilgan. Maqomlarni toʻliq ijro etish uchun yuksak qobiliyat va mahoratga, shu bilan birga xotiraga ega boʻlish talab etiladi. Ishoq Rajabovning maqomlar ijrochilik masalasiga doir fikrlashicha: «Shashmaqom» va boshqa katta formadagi xalq musiqa asarlarini ijro etishda cholgʻuvchi va hofiz maxsus malaka hosil qilgan boʻlishi, maqomlarni ijro etish texnikasini yuksak egallagan boʻlishi lozim. Sifatsiz ijro etish maqom yoʻllari haqida notoʻgʻri tasavvur qoldirishi mumkin. Maqom ijrochiligida bir hofizning aytish uslubi va uning aytgan ashula yoʻli ikkinchisiga hech bir oʻxshamaydi. Maʼlum maqom yoʻlini turli hofizlar hatto variantlar darajasida ijro etishi mumkin. Chunki har bir hofiz ashula yoʻlini puxta va chiroyli ijro etish uchun oʻz ovoziining imkoniyatlari doirasida unga maʼlum oʻzgarishlar kiritadi. Hofiz ovoziining kuchi va baland-pastligiga qarab, ashulada mavjud boʻlgan kuy boʻlaklarini qisqartirib yoki ularga namudlar kabi qismlar kiritishi mumkin.»¹.

Buxoro hofizlaridan Ota Jalol Nosirov va Ota Gʻiyos Abdugʻanilar XIX-XX asr kesimida maqomdon ustozlar sifatida tanilganlar. Domla Halim Ibodov maqomlarning ikki guruh shoʻbalarining mohir ijrochisi boʻlgani uchun «Savtxon» nomiga ega boʻlgan. Buxorolik hofizlarning maqomlarni ijro etish uslubida oʻziga xos yuksak mahorati, ijro texnikasi, qochirimlar borligini alohida qayd etish lozim. Bu ijrochilik uslubi juda qadim zamonlardan sanʼat va madaniyat markazi boʻlmish Buxoroda shakllangan ijrochilik anʼanalardir.


¹Ishoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963. 268–269-betlar.



Ota Jalol Nosirov



Ota Gʻiyos Abdugʻani



Domla Halim Ibodov

Bulardan biri oʻziga xos Buxoro musiqiy shevasi, u ikki tillik inʼikosida yuzaga kelgan. Buxoroda avjlar ijrochiligiga ham katta ahamiyat berilib, yuksak darajadagi avjlar madaniyati rivoj olgan va ushbu anʼana boshqa vohalarda ham keng tarqalgan. Masalan, buxorolik hofizlar Qoʻqon Ushshogʻiga Segoh, Ushshoq, Uzzol va Muxayyari Chorgoh namudlarini, ayrim ijrolarda Zebo pari avjini ham qoʻshib ijro etganlar. Domulla Halim Ibodov ijodida avjlarga katta eʼtibor berib kelgan, jumladan, Navroʻzi Saboda Segoh namudi toʻliq shaklida Navo va Oraz namudlari bilan ijro etilgan. Fargʻona hofizlari esa Qoʻqon Ushshogʻini faqat Segoh namudi bilan aytib kelganlar.

Maqom ijrochiligi uslublarida sheva masalasiga hamma vaqt katta eʼtibor berilib kelingan, shu tufayli hofizlar ijro etish uslubida baʼzi farqlar mavjud. Buxoro va Samarqandda maqom yoʻli bir turli ijro etilsa, Fargʻona vodiysida boshqacha, Xorazmda esa yana boʻlakcha

uslubda ijro etiladi. Kuy tuzilishi va rivoj olishi, uning xarakterini ochib berish, kuy va soʻz mutanosibli, hanglardan ustalik bilan foydalanish va ularni kerakli joyda ishlata olish va, ayniqsa, usullarni ijro etish imkoniyatiga qarab, maqom yoʻllarining doyra usuli surʼatini oʻzgartira berish ijrochilik uslubida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham maqomlarni ijro etuvchi hofiz va sozandalar oʻtkir didli, sheʼriyat qonunlarining bilimdoni, kuy va ashula yoʻllarining tuzilishi, kuy harakatini bilish, peshqadam sanʼatkor sifatida mahalliy anʼanalarni saqlab, ularni rivojlantirish qoidalarini biluvchi namoyandalar boʻlishgan. Tarixda bunday bastakor, hofiz va sozandalar nomi koʻplab saqlanib qolgan (oʻrta asr «musiqiy risolalarida», shoirlar ijodida, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida, Darvish Ali Changiyning «Risoi musiqiy»sida oʻsha davrlarda mashhur boʻlgan mohir sanʼatkorlar nomi koʻplab uchraydi).

Ustozlar maqomlarni bir butun turkum shaklida, boshidan oxirigacha yoki ularning ayrim shoʻbalarini ijro etib kelganlar. Hozirgi vaqtlarda hofizlar maqom ashula yoʻllarini yakkanavoz holda koʻproq talqin etmoqdalar. Maqomlar ijrochiligida yana bir anʼana — ashula yoʻllari sheʼr matnlari yangilanib turishi. Maqom yoʻllarida turli vazndagi gʻazallar oʻqilishi, **aruz («ilmi aruz»)** qonun-qoidalariga eʼtibor berish va **usul («ilmi iqoʻ»)**lar mutanosibida aytilishi ularni katta oʻzgarishlarga olib kelgan. Gʻazalxonlikda «musiqiylik» deyilganda sheʼr talaffuz qilib oʻqilganda ham, kuyga tushirib ashula yoʻlida aytilganda ham ravon va jozibali yangrashi lozimligini tushunish kerak. Musiqa bilan sheʼriyat shaklan ham mazmunan bir-biriga uzviy bogʻlangan holda ijro etilsa, ikkovi bir-birini mazmunan toʻldiradi va sheʼrdagi taʼsirchanlik oshadi.

«Shashmaqom» ijrochiligidagi tajriba bizga shuni koʻrsatmoqdaki, — deb yozadi Yunus Rajabiy, — maqomlar va umuman boshqa janrdagi ashula va qoʻshiqnlarni ham ijro etilishida ohanglarning badiiy-estetik taʼsirchanligini his qilgan holda, ularga aytiladigan sheʼrlarning shakl va mazmuniga ham jiddiy eʼtibor berilishi zarurdir. Bu oʻrinda sheʼr ashula kuyiga aynan toʻgʻri va aniq talaffuz etilishiga katta eʼtibor berilsa — bunday noyob sanʼat asarlari shinavandalarga tez va oson yetib boradi. Bu ashula soʻzlarini iloji boricha boʻlinib qolmasligiga, yaxlitligicha, jozibali, obrazli ifodalanishiga erishish demakdir. Buni ijrochilik sanʼatining muhim shartlaridan biri desa boʻladi¹. Maqomchilik sanʼatida oʻziga xos **tili** mavjud — bu soʻz

¹Yunus Rajabiy. Musiqa merosimizga bir nazar. Toshkent, 1978. 13-bet.



Berta Dovidova va Yunus Rajabiy

va kuy birligi, ularning mushtarakligi holatidagi his va tuygʻular tilidir. Sanʼatning sheʼriyat va musiqa birligida goʻzallik, insonni nafosat olamiga olib kiruvchi maqomchilik (kengroq oʻzbek mumtoz musiqa) sanʼati yuzaga kelganligi maʼlum. Oʻtmishda bastakorlik anʼanalariga koʻra ashula yoki qoʻshiqning kuyiga mohirona, shaklan va mazmunan uning ruhiga mos sheʼrlarni tanlab, maqsadga muvofiq tarzda tushira bilish juda katta sanʼat deb, va u bastakorlik sanʼatining asosiy omillaridan hisoblangan.

Maqom ijrochiligida ovoz imkoniyatlaridan toʻgʻri foydalanish, yuksak mahoratga, xotiraga, ijro uslubi va anʼanalariga, aynan moʻlir sozanda boʻlish, sheʼr vazni va doyra usullarini bilish talab etiladi. Oʻtmishda maqom ijrochilik anʼanalari ogʻzaki tarzda ustozdan shogirdga oʻtib kelgan.

Ota Jalol, Ota Gʻiyos, Usta Shodi, Qori Kamol, Abdusamad Begijon, qori Najmiddin, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Madumar Hofiz, Hamroqul qori, Erka qori, Sodirxon hofiz, Valixon ustoz, Shobarot ustoz, Ilhom hofiz, Abdurahmon Umariy, Rizqi Rajabiy, Shorahim Shoumarov, Akbar Haydarov, Turgʻun Karimov, Imomjon Ikromov, Abdusoat Vahobov, Maqsudxoʻja



Turg'un Alimatov



Hozirgi maqom ansambli

Yusupov, Ma'rufjon Toshpo'latov, Borux Zirkiyev, Matqoroh Xudoyberganov, Mug'anniy (Safo Ollaberganov), Cholariy (Matyusuf Xarratov), Sheroziy (Madrahim Yoqubov), Komiljon Otaniyozov, Hojixon Boltayev, Bola baxshi Abdullayev, Ro'zmat Jumaniyozov, Turg'un Alimatov, Orifxon Hotamov, Berta Dovidova, Barno Ishoqova, Shoqosim Shojalilov singari sozandalar, nafasi o'tkir, hofizasi zo'r xonandalar, o'zbek mumtoz musiqasining yetuk namoyandalari musiqa san'atimizni, an'anaviy ijrochilikni saqlanib, rivoj olishiga, uning ijro uslublari va an'alarini targ'ib etishda katta hissa ko'shib kelganlar.

XX asrga kelib maqomchilikda an'anaviy va yangi, zamonaviy ijro uslublari yuzaga keldi. Bu borada maqom ansambllarining tashkil topishi, maqom ijrochilik uslublari musiqa ta'limi tizimiga og'zaki va yozma an'analarning mutanosibligida joriy etilishi muhim o'rin tutdi. 1972-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida «Sharq musiqasi» kafedrasining ochilishi va uning faoliyati tufayli respublikamizda an'anaviy ijrochilik yangi sharoitda, tiklangan holda rivojlanib kelmoqda. 1983-yildan boshlab Toshkentda har to'rt yil ichida maqom ijrochilari va keyinchalik maqom ansambllari Xalqaro va respublika tanlovlari o'tkazilib, yangidan-yangi iqtidorli maqom ijrochilari kashf etilmoqda.

XULOSA

O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va rango-rang, ayni paytda, yangi zamon an'analarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda avvalo benazir xalq musiqa ijodi, mumtoz musiqa merosi, milliy bastakorlik, hozirgi zamon kompozitorlik ijodiyoti, shuningdek, xalq, havaskorlik hamda jo'shqin ommabop estrada san'ati kabi shaklan va usluban nihoyatda serjilo jabhalar namoyon bo'ldi.

Istiqloq sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan diqqat-e'tibor, unutilayotgan an'analarimizni tarixan qisqa muddat ichida qayta tiklanishi, muttasil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, isloh etish jarayonlarida ustuvorlik kasb etdi. Shuningdek, qo'shni va uzoq, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-musiqiy aloqalarni o'zaro boyitish yo'lida rivojlantirish sa'y-harakatlari ham dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarda o'zining ajoyib, betakror badiiy in'ikosini topgan. Ajdodlarimiz bergan ta'riflardan biriga ko'ra, musiqa — inson ruhining ozig'idir. Binobarin, milliy musiqa ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi va ayni paytda, yangi, buyuk davlat bunyodkori bo'lmish jamiyatimizning ruh, quvvati va jon ozig'idir.

Mustaqillik yillari o'zbek an'anaviy musiqasiga e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ham ancha o'zgarishlarga olib keldi. Qadimiy milliy musiqamizdagi boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida

o'zbek musiqa san'ati yana ham yuksak darajaga ko'tarildi. Xususan, mamlakatimizda yuksak mumtoz musiqa namunalarini avaylab-asrash, jonlantirish, ravnaq topishiga qaratilgan bir qancha ibratli ishlar amalga oshirildi. Bu borada Yunus Rajabiy nomidagi maqom ijrochilarining respublika tanlovi (1991, 1995, 1999, 2004), yetuk bastakorlar ijodiga bag'ishlangan «Barhayot siymolar» yosh ijrochilar tanlovi (1992 -1996); katta ashula, maqom ansambllari (1991-2006), baxshi-shoirilar va oqinlar (1999, 2001, 2003, 2005) ko'rik-tanlovlari; an'anaviy ijrochilik bo'yicha o'rta ta'lim muassasalari respublika tanlovlari; Samarqand, Xorazm, Farg'ona va Qoraqalpog'istonda uyushtirilgan Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Komiljon Otaniyozov, Hojixon Boltayev, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Otajon Xudoyshukurov nomlaridagi yosh an'anaviy ijrochilar tanlovlari pirovardida e'tiborga molik yutuqlar qo'lga kiritildi va buyuk ajdodlarimiz tomonidan ijod etilgan mumtoz musiqa asarlariga qaytadan jon bag'ishlandi va shu tufayli milliy-ma'naviy xazinamizdan o'ziga munosib o'rin olmoqda.

1997-yildan boshlab ko'hna Samarqand shahrida har ikki yilda o'tkazilishi an'anaga aylangan «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali nafaqat respublikamiz, balki jahonshumul ahamiyatga molik hodisaga aylandi va ushbu anjumanda Sharq mamlakatlaridan tashqari Ovropa, Amerika va Afrika qit'alaridan tashrif buyurgan mashhur va taniqli musiqa san'ati namoyandalari ishtirok etgan mazkur bayramona tadbir bois qadimiy va mushtarak musiqa an'analari o'zaro yanada yaqinlashdi, ijodiy hamkorlikka keng yo'l ochildi. Shu bois o'zbek mumtoz musiqasi jahon «sahnasi» dan munosib o'rin egalladi. Ashula, katta ashula va maqom yo'llari ushbu festivalda tarannum etilib, tinglovchilar olqishiga sazovor bo'ldi. Munojot Yo'lchiyeva (1997), Nasiba Sattorova (1999), Soyibjon Niyozov, Nabijon Ibrohimov (2001), Dilnura Qodirjonova (2003) va Nodira Pirmatovalar (2005) ushbu nufuzli festivalning sovrindorlari bo'lishdi.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz musiqasining eng salobatli, eng sermahsul va eng ardoqli qismini maqomchilik san'ati tashkil etadi. Uning tarkibiga turli davrlarda bastakorlar va yetuk sozandalar

tomonidan ijod etilgan har xil hajmli, turkumli va shaklan-mazmunan alohida mukammal cholg'ʻu hamda ashula namunalari kirgan.

Bugungi mustaqil O'zbekistonda maqomotning uch turi — Buxoro «Shashmaqom»i, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqomlari musiqa amaliyotida joriy bo'lib kelmoqda. Jonli jarayon bilan yo'g'rilgan maqomchilik an'analari bastakorlik va ijrochilik san'ati bilan bevosita bog'liqdir. Bunda ijodkorlik jabhasi ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'lishi ma'lum bo'lmoqda — biri maqom yo'llarini ijro etish talqinida an'anaga bo'ysungan holda rivojlanishi, yana biri maqomchilik an'analari muvofiq yangi namunalarni ijod etishdan iborat (jumladan, Fattohxon Mamadaliyev tomonidan «Ushshoq» negizida «Qadimgi Ushshoq», «Zikri Ushshoq», «Umurzoq Polvon Ushshog'i», «Savti Fattohxon», «Miskin» maqom ashula turkumi yaratilishi; Orifxon Hotamov tomonidan «Ushshoq», «Giry» (masalan, «Orifxon Ushshog'i») turkumlari, yangi ashula yo'llari, Abduhoshim Ismoilov tomonidan maqom sho'balari asosida yangi cholg'ʻu asarlarini ijod qilish va talqin etilishi. Maqomchilik ijodiyotining bu sohasi so'nggi yillarda yorqin namoyon bo'lmoqda. «Feruz» turkumi, dutor va surnay maqom cholg'ʻu yo'llari o'z muxlislarini topmoqda.

Mumtoz musiqaga mansub janrlar qatorida katta ashula va suvoralar namunalarining yangi davrdagi hayoti ham alohida diqqatni o'ziga tortadi. Har biri o'ziga xos bu noyob aytim turlarining mahalliy musiqiy an'analari doirasida tutgan o'rni ko'p jihatdan o'zaro o'xshash — katta ashula Farg'ona-Toshkent ashulachilik ijodiyotining yangi sifat bosqichdagi rivoji va alohida mumtoz ko'rinishi bo'lsa (bu borada katta ashula kechalari, Navro'z va Mustaqillik bayramlarida katta ashula namunalari keng ommaga targ'ib qilinishi namunalidir), suvora — Xorazm ashulachilik san'atining muhim va noyob qirralarini o'zida mujassam etgan mukammal aytim-ashula namunasi (Xorazmda so'nggi yillari suvora aytishuvlarining o'tkazilishi an'anaga aylandi).

Merosimizning yana bir ijodiyot turini dostonchilik san'ati an'analari tashkil etadi. Musiqiy-nasriy-nazmiy ijodiyotining eng qadimiylaridan biri bo'lgan o'zbek dostonchiligi boshqa Sharq xalqlari dostonchilik merosi bilan uzviy bog'liq holda rivoj topib

kelmoqda. 1999-yilda Respublikamizda «Alpomish» dostonining 1000 yillik tantanalari yangi davrda baxshichilik san'atini rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash va o'zbek xalq va mumtoz musiqa ijodiyotini keng targ'ib etishda, ayniqsa, yoshlarni ko'p ming yillik madaniyatimiz sarchashmalaridan bahramand qilishda salmoqli hissa bo'ldi.

So'nggi yillarda o'zbek mumtoz musiqasini o'rganishga, o'zlashtirishga va targ'ib etishga, ularni yanada ravnaq toptirishga qaratilgan qator e'tiborli ishlar amalga oshirildi. Endilikda o'zbek mumtoz musiqamiz, kengroq, an'anaviy musiqamiz maxsus fanlar sifatida musiqa, san'at va madaniyat ta'lim tizimiga joriy etila boshlanganligini ta'kidlash kerak. 1972-yili an'anaviy ijrochilik ilk bor Toshkent konservatoriyasida joriy etilgan bo'lsa, 1990-yillardan boshlab o'rta maxsus bilim yurtlarida va 2002-yildan akademik litseylar va musiqa maktablarida an'anaviy ijrochilik bo'limlari o'z faoliyatlarini boshladi va yosh avlodning milliy an'analari ruhida tarbiyalash jadallashtirildi. O'zbek mumtoz musiqasi va an'anaviy ijrochiligi nafaqat konservatoriya, madaniyat va san'at institutlari, musiqa, san'at va madaniyat kollejlari, akademik litseylarida, balki umumta'lim maktablarining o'quv jarayoni hamda ta'lim-tarbiya tizimidan ham munosib o'rin ola boshladi.

Respublikamiz miqyosida muntazam ravishda uyushtirilayotgan ko'rik-tanlovlar, bir jihatdan, buyuk san'atkorlarimizning musiqa madaniyatimizga qo'shgan hissasini, ularning o'ziga xos mahorat va iste'dod qirralarini aniqlashga, ommalashtirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, xalq orasida mumtoz san'atimiz va san'atkorlarimizning ijodini keng tarqalishi va kelajakda yanada davom ettirib, rivojlanishiga olib keladi degan umiddamiz. Bu nodir ma'naviy xazinani yoshlar ongi, faoliyatiga zamonaviy vosita va uslublar asosida singdira olish zarur. Ana shunda avlodlar va qadriyatlar vorisligi, an'analarning umrboqiyiligi, musiqa san'atimiz istiqboli, ravnaqi va zamonaviyligini ta'minlagan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev R. O'zbek dostonlarining musiqiy-uslubiy xususiyatlari. «San'at», 2006, № 1.
2. Abdullayev R. Katta ashula. «O'zbekiston san'ati», 1980, № 6.
3. P.Абдуллаев. Катта ашула. //Музыка народов Азии и Африки. Вып. 5. М., 1987.
4. P.Абдуллаев. Бытование дастанов в Узбекистане. //Музыка эпоса, Ешкар-Ола, 1989.
5. P.Абдуллаев. Музыкально-стилистические особенности узбекских дастанов (на англ.яз.). //Музыка эпоса Азии. Сеул-Бусан, Корея, 2003.
6. P.Абдуллаев. Узбекистан: шедевры наследия человечества. // Нематериальное культурное наследие (на англ.яз.). Токио, Япония, 2004.
7. Akbarov I., Kon Yu. Vuxoro maqomlari. //O'zbek xalq muzikasi, 5 jild. Toshkent, 1959.
8. Akbarov I., Kon Yu. Xorazm maqomlari. //O'zbek xalq muzikasi, 6 jild. Toshkent, 1958.
9. Т.Гафурбеков. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской музыке. Ташкент, 1987.
10. А.Джаббаров. Узбекские дастаны. //Вопросы музыкознания, Вып.2, Ташкент, 1971.
11. Т.С.Вызго. К вопросу об изучении макамов. //Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркменистана и Таджикистана. М., 1972.
12. О.Ибрагимов. Фергано-Ташкентские макамы. Ташкент, 2006.
13. Ibrohimov O. Maqom va makon. Toshkent, 1996.
14. История музыки Средней Азии и Казахстана. М., 1995.
15. В.М.Жирмунский, Х.Т.Зарифов. Узбекский героический эпос. М., 1947.
16. Karomatov F. Uzbek cholg'u musiqasi. Toshkent, 1972.
17. Karomatov F., Rajabov I. Shashmaqom. //Shashmaqom, 1 tom. Toshkent, 1966.
18. Ф.Кароматов. Узбекская инструментальная музыка (наследие). Ташкент, 1972.
19. Ф.Кароматов, Ю.Эльснер. Макам и маком.//Музыка народов Азии и Африки. Вып.4. М., 1984.

20. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963.
21. Rajabov I. Maqom asoslari. Toshkent, 1992.
22. Rajabiy Yu. Muzikamiz merosiga bir nazar. Toshkent, 1978.
23. Rahmon Bekjon, Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent, 1998.
24. Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi professional muzikasi asoslari. Toshkent, 1984.
25. Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent, 2004.
26. О.Матякубов. Фараби об основах музыки Востока. Ташкент, 1986.
27. Макомы, мугамы и современное композиторское творчество. Ташкент, 1978.
28. Mamadaliyev F. Milliy musiqa ijrochilik masalalari, Toshkent, 2001.
29. Профессиональная музыка устной традиции Ближнего, Среднего Востока и современность. Ташкент, 1981.
30. P.Султанова. Ритмика вокальных частей Шашмакома. Ташкент, 1988.
31. Традиции музыкальных культур Ближнего, Среднего Востока и современность. М., 1987.
32. P.Юнусов. Макамы и мугамы. Ташкент, 1992.
33. Yunusov R. Maqomlar xususida. Toshkent, 1982.
34. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. Toshkent, 2000.
35. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent, 1993.
36. Shashmaqom saboqlari. 1-to'plam. Toshkent, 2005.
37. Shashmaqom saboqlari. 2-to'plam. Toshkent, 2005.
38. Shashmaqom an'analari va zamonaviylik. Toshkent, 2005.
39. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent, 1981.
40. O'zbekiston san'ati. Toshkent, 2001.

NOTOGRAFIYA

1. Alpomish. Dostondan parchalar. Toshkent, 1999.
2. Romanovskaya E.E. Xorazm klassik musiqasi. Toshkent, 1939.
3. В.А.Успенский. Шесть музыкальных поэм (Шашмаком). Москва-Бухара, 1924.
4. Shaxnoz-Gulyor. V. A. Uspenskiy yozuvlari Sh. Shoumarovdan. Toshkent, 1956.
5. Shashmaqom, I–VI tomlari. Yu. Rajabiy yozuvida. Toshkent, 1966-1975.
6. O'zbek xalq cholg'u muzikasi. Toshkent, 1954.
7. O'zbek xalq muzikasi. I–IV jildlar. Yu. Rajabiy yozuvida. Toshkent, 1957-1959.
8. O'zbek xalq muzikasi. Buxoro maqomlari. V jild. Yu. Rajabiy yozuvida. Toshkent, 1959.
9. O'zbek xalq muzikasi. Xorazm maqomlari. VI jild. M. Yusupov yozuvida. Toshkent, 1958.
10. O'zbek xalq muzikasi. VII–VIII jildlar. M. Yusupov va O. Halimov yozuvlari. Toshkent, 1958-1960.
11. Xorazm maqomlari. 3 tomlik. 1–5 kitoblar. M. Yusupov yozuvida. Toshkent, 1978-1991.

DISKOGRAFIYA

1. Katta ashula (gramplastinka). Toshkent, 1987.
2. Maqomlar. 2 komplektli gramplastinka. Toshkent, 1987.
3. Farg'ona hofizlari, 2 komplektli gramplastinka. Toshkent, 1987.
4. Qo'shiq. Doston. Maqomlar. 2 komplektli gramplastinka. Toshkent, 1987.
5. Shashmaqom. Cholg'u bo'limlari. Mushkilot. 6 komplektli gramplastinka. Toshkent, 1987-1991.
6. Shashmaqom. 21 komplektli gramplastinka. Toshkent, 1978.
7. O'zbeklarning an'anaviy musiqasi. 2 komplektli gramplastinka. Toshkent, 1987.
8. O'zbek xalq musiqasi merosi. 26 komplektli gramplastinka. Toshkent, 1985-1990.
9. O'zbekiston keksa san'atkorlari. 1–19 seriyalari. Gramyozuvlar to'plami. 1975-1990.
10. Yu. Rajabiy, K. Otaniyozov, H. Boltayev, O. Xudoyshukurov, F. Mamadaliyev, A. Abdurasulov va boshq. gramplastinkalari.

MUNDARIJA

Kirish	3
O'zbek mumtoz musiqasi va uning xususiyatlari	8
Mumtoz musiqa janrlari tasnifi	19
O'zbek mumtoz cholg'u musiqasi	23
Mumtoz yalla va ashula janrlari	31
Katta ashula	36
O'zbek dostonlari	45
O'zbek maqomlari	57
Shashmaqom	62
Shashmaqomning cholg'u bo'limi	63
Shashmaqomning ashula bo'limi	69
Xorazm maqomlari	76
Farg'ona-Toshkent maqomlari	79
«Shashmaqom» tarkibidagi maqomlar xususida	85
Buzruk maqomi	85
Rost maqomi	86
Navo maqomi	87
Dugoh maqomi	89
Segoh maqomi	90
Iroq maqomi	90
Maqom ijrochiligi uslublari	92
Xulosa	102
Adabiyotlar	106
Notografiya	108
Diskografiya	109

Rustam Samigovich ABDULLAYEV

O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI

*Madaniyat va san'at kollejlari va
akademik litseylari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent – «Yangi nashr» – 2008

Muharrir *T.Alimov*
Texnik muharrir *T.Smirnova*
Musahhah *F.Komilova*
Komputerda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Bosishga 15.02.2008-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$.
Tayms garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma toboq 7,0.
Nashr tobog'i 7,0. Adadi 750 nusxa. Bahosi shartnoma asosida.
Buyurtma N 35.

«Yangi nashr» MCHJ nashriyoti. Toshkent, Jarariq, 15/108-uy.

«Arnaprint» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
100182, Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 41-uy.